

J.R.Muxitdinova, A.S.Sayfitdinov

TEXNOLOGIYA  
TA'LIMI PRAKTIKUMI  
(Servis xizmati bo'limi)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

J.R.MUXITDINOVA, A.S.SAYFITDINOV

# TEXNOLOGIYA TA'LIMI

## PRAKTIKUMI

(SERVIS XIZMATI BO'LIMI)

(Oliy ta'lif talabalari uchun o'quv qo'llanma)

UDS: 605.965.13

KBK: 7426(Ўзб)

Muxitdinova Jamilaxon Ruslanovna, Sayfiddinov Anvar Sadritdinovich

KBK: 7426(Ўзб)

### ANNOTATSIYA

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'lifm bakkalavriat 5112100-Texnologik ta'lifm hamda 60112300-Texnologik ta'lifm yo'naliishlari talabalar uchun "Texnologiya ta'lifi praktikumi" fanidan "Servis xizmati" bo'lifi bo'yicha tikuvchilik ustaxonalardira ish o'mini to'g'ri tashkil qilish, xavfsizlik texnikasi qoidalari, gazlamaga ishlov berish, mahsulot (kiyim) yaratish uchun bolalar, ayollar, erkaklar kiyimlari namunalarini tikish xaqidagi nazariy va amaliy bilimlarni egallashlarida zarur manba hisoblanadi.

### АННОТАЦИЯ

Данное учебное пособие предназначено для студентов высших учебных заведений бакалавриата 5112100-Технологическое образование и 60112300-Технологическое образование по предмету «Практикум технологического образования» раздела «Обслуживающий труд» является необходимым ресурсом в приобретении теоретических и практических знаний и навыков. В учебном пособии даётся подробная информация по правильной организации рабочего места, правила техники безопасности, обработка ткани, пошив детской, женской и мужской одежды.

### ABSTRACT

This manual is intended for students of bachelor's degree 5112100-Technological education and 60112300-Technological education on the subject "Practicum of technological education", section "Service work" is a necessary resource in the acquisition of theoretical and practical knowledge and skills. The training manual provides detailed information on the proper organization of the workplace, safety regulations, fabric processing, sewing children's, women's and men's clothing.

#### Taqrizchilar:

N.N.Nabidjanova - Namangan muhandislik texnologiyasi instituti Yengil sanoat mahsulotlarini konstruktsiyalash va texnologiyasi kafedrasi texnika fanlari doktori, professor

X.M.Akramov - Namangan davlat universiteti "Texnologik ta'lifm" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2022 yil 19 iyulida  
233-soni huyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat etildi. 233-0265 ro'yxatga olibdi.

ISBN:978-9943-9225-5-6

28801

© J.R.Muxitdinova, A.S.Sayfiddinov

©“Fan ziyosi” nashriyoti.

©Toshkent-2023

## KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda olib borilgan keng ko'tamli islohotlar natijasida milliy davlatchiligimiz poydevori mustahkamlanib, davlatimiz suvereniteti, chegaralarimiz daxlsizligi ta'minlandi, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini kuchaytirish, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi.

Ayni vaqtida mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili bugungi kunda jahon bozorida kon'yunktura o'zgarib, raqobat tobora kuchayib borayotganini har tomonlama hisobga olishni, shu asosda davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha strategik yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliiyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion, salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamонавиyl bilimga ega va mustaqil fikrلaydigان yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish xozirgi kunning eng dolzarb masalaарidan xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra oliv ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish. ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha ko'satmalar berilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma Texnologik ta'lim yo'nalishi bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda Texnologiya ta'limi praktikumi faniga oid servis xizmati bo'limi bo'yicha tikuvchilik ustaxonalarida ish o'rnnini to'g'ri tashkil qilish, xavfsizlik texnikasi qoidalari, gazlamaga ishlov berish, mahsulot (kiyim) yaratish uchun bolalar, ayollar, erkaklar kiyimlari namunalarini tikish xaqidagi nazariy va amaliy bilimlarni egallahshlarida zarur manba hisoblanadi.

# TIKUVCHILIK USTAXONALARIDA ISH O'RNNINI TASHKIL QILISH TEXNOLOGIYASI. TEXNIKA XAVFSIZLIGI QOIDALARI.

## 1. Tikuvchilik ustaxonalarida ish o'rnnini tashkil qilish

Tikuvchilik ustaxonalari keng, yorug', quruq va ozoda bo'lishi kerak. Xonaning harorati 19—21°C bo'lishi, o'z vaqtida shamollatib turilishi lozim. Xonaning havosi devor teshiklari, deraza, eshik orqali tashqaridagi havoning harorati bilan xonadagi havoning farqi hisobiga tabiiy usulda almashtiriladi. Bundan tashqari, mexanik usulda ventilatordan ham foydalaniladi. Qish fasilda xonani maxsus isitish tarmoqlari yordamida isitiladi.

Tikuvchilik xonasining yaxshi yoritilishi muhim ahamiyatga ega. Yoritish yaxshi bo'lmasa, mehnat qobiliyati pasayadi, ko'z toliqib, shikastlanishi mumkin. Yoritishning tabiiy, sun'iy va aralash xillari bor. Yaxshisi tabiiy yorug'likda ishlagan ma'qul, lekin kuz va qish mavsumida sun'iy yorug'likdan foydalanishga to'g'ri keladi. Tabiiy yorug'lik deraza orqali chap tomonidan yoki to'g'ridan tushishi kerak. Ish joyi sun'iy yorug'lik manbalari — elektr cho'g'lanma yoki luminissent lampalari yordamida 100—200 luks atrofida yoritilishi kerak. Ish joyini to'g'ri yoritish maqsadida bir vaqtida tabiiy va sun'iy yorug'likdan foydalaniladi. Zamонави tikuv mashinalarining bosh qismiga cho'g'lanma lampalar o'rnatilgan bo'lib. chok tikish jarayonida ignani yoritib turadi.

Talabalarning mehnat qobiliyatlariga ta'sir etish, badiiy didlarini tarbiyalash omillaridan biri xona va jihozlarni bo'yashda rangni to'g'ri tanlashdir. Devor va mebellarning rangi katta gigienik va pedagogik axamiyatga ega. SHuning uchun devorlar och, sokin ranglarga bo'yalishi lozim. Ustaxona tabiiy va sun'iy jihatdan yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Xonalarni quyosh tushishiga qarab och ranglarga bo'yash kerak. Ish joylari yoniga ish turlariga mos bo'lgan mehnat xavfsizligi qoidalari osib qo'yiladi. Xonada, aibatta, baxtsiz hodisa ro'y berganda zarur

bo'ladigan birinchi yordam vositalari bo'lgan dori qutisi bo'lishi kerak. Dori qutisining yonida yaqin davolash maska-nining manzili va telefon raqami yozib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Ustaxonalar kerakli miqdorda tikuv mashinalari va qo'l ishlarini bajarish uchun ish stollari, bichish stollari va manekenlar bilan jixozlanadi. O'tirish chun imkon boricha baland-pastligi rostlanadigan vintli o'rindiqlar qo'yiladi.

Tikuv ustaxonasida ko'zgu va kiyim ilgichlar bilan jixozlangan, kiyib ko'rish kabinasi bo'lishi kerak. Tikuv buyumlarini namlab-isitib tashlash uchun dazmol, dazmol taxtasi, dazmol tagliklari bilan jixozlangan aloxida joy ajratiladi.

Asbob-uskunalar, jixozlar, ko'rgazmali qo'llanmalar, ish namunalari maxsus shkaflarda saqlanadi. Ustaxonada albatta birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar bilan ta'minlangan aptechka bo'lishi zarur.

Tikuvchilik ustaxonasini jixozlash, ish o'rinlarini to'g'ri tashkil etish, xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiena qoidalariga va estetik talablarga mos ravishda bajarilganda mexnat ko'nikmalarini shakllantirishga, mexnatga to'g'ri munosabatni va mexnat madaniyatini tarbiyalashga imkon yaratiladi.

## 2. Xavfsizlik texnika koidalari

Xavfsizlik texnikasi mexnat qilish uchun xavfsiz sharoit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar sistemasidan iborat.

Tikuvchilik darslarida mashinalarni, dazmollar va qo'l asboblarini ishlatajotganda qo'lga igna kirib ketishi, qo'lni nimadir kesib olishi, mashinalarning aylanib turadigan qismlari kiyim yoki sochni o'rab ketishi, dazmolda biror joy kuyib qolishi, tugma yoki igna parchalari uchib yuzga tegishi natijasida o'quvchilardan birontasi jaroxatlanib qolishi mumkin.

Xavfsizlik texnikasi qoidalari shunday noxushliklar yoki baxtsiz xodisalarining oldini olishga xizmat qiladi. Tikuvchilikda o'quvchilar uchun bu qoidalarni asosan ikki guruxga bo'linadi:

## Xavfsizlik texnika qoidalari

1. Qo'lida va mashinada  
bajariladigan ishlarda

2. Dazmolda bajariladigan  
ishlarda

### 1. Qo'l va mashina operatsiyalarda ishlovchilar quyidagilarga rioxqa qilishi kerak:

#### a) Igna, to'g'nag'ich, qaychi bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalari:

- igna, to'g'nag'ichlarni maxsus idish va yostiqchalarda saqlash;
- ishni angishvona yordamida tikish;
- igna siniqlarini atrofga tashlamaslik;
- qaychi, ignalarning o'lchamlari tikilayotgan kiyimga mos bo'lishi;
- qaychini maxsus idishda saqlash;
- qaychini bir- biriga uzatishda otmaslik, uchini uzatilayotgan odamga.

#### b) Tikuv mashinasida ishlashdagi sanitariya-gigiyena, xavfsizlik texnikasi qoidalari:

- ish o'rniiga yorug'lik old yoki chap tomonidan tushishi;
- o'rindiqni mashina ignasining to'g'risiga qo'yib, boshni sal oldinga egib o'tirish;
- tikuvchi o'rindig'i bilan mashina orasi 10—15 sm bo'lishi;
- sochlar ro'mol ostiga yig'ishtirilgan bo'lishi;
- mashinalar, asbob-uskunalarining yaroqliliginи tekshirib turish;
- mashinada ishlayotganda qo'l holatining to'g'ri bo'lishiga e'tibor berish kerak;
- ishlayotgan mashinani moylash, ustidan narsalarni uzatish mumkin emas.
- mashinalar, asbob va moslamalarining ishga yaroqliliigi tekshirib turiladi. Ish boshlashdan oldin ish o'rni sarajomlab olinadi, mashinada barmoqqa igna kirib ketishining oldini oladigan saqlagich, yuritgich, tasma to'sig'i

mashinani ishga tushirish joylarida izolatsiya g'iloflari bor yo'qligini tekshiriladi va xokazo;

- elektr simlariga ip, latta, simchalar osmaslik lozim, aks xolda qisqa tutashuv yuz berishi mumkin. Simlarda nuqson sezilsa, darxol elektromantyorga xabar berish, ochilib qolgan simlarga qo'l tekkizmaslik kerak;
- narsalarni ishlayotgan mashina ustidan uzatish mumkin emas;
- elektr dvigatelini uchirmsandan mashinaga moy surish, uni tozalash, mashina shkiviga tasma kiydirish man etiladi;
- ish o'rniда asboblar sochilib yotmasligi, qaychi va iplar mashinaning aylanayotgan qismlari yoniga qo'yilmasligi kerak;
- ish o'rnlari orasidagi yo'lni to'sib qo'ymaslik kerak.

## **2. Dazmol bilan ishlaganda quyidagilarga rioya qilish kerak:**


- elektr dazmolda ish boshlashdan oldin shnur izolatsiyasi tekshirib ko'riliши lozim;
- dazmol, shtepsel rozetkasi, vilkaning tok o'tkazuvchi qismlarga qo'l tekizish mumkin emas;
- dazmolning sozligiga axamiyat berish zarur (korpusda qisqa tutashuv bo'lsa, ishlayotganda qo'lga salgina igna sanchilganday bo'ladi);
- ishlayotganda shnur dazmolga tegib turmasligi kerak;
- dazmolning o'ta qizib ketishiga yo'l qo'ymaslik lozim;
- dazmol, shtepsel razetkasi, vilka buzuq bo'lsa ishni to'xtatib, elektromontyorni chaqirish kerak.

## **Nazorat savollari:**

- 1.Tikuvchilik ustaxonalari qanaqa bo'lishi kerak?
- 2.Tikuvchilik ustaxonalari nimalar bilan jixozlangan?
3. Maxsus shkaflarda nimalar saqlanadi?
4. Xavfsizlik texnikasi qoidalari qanaqa baxtsiz xodisalarning oldini olishga xizmat qiladi?
5. Qo'l va mashina operatsiyalarida ishlovchi nimalarga rioya qilishi kerak?
6. Dazmol bilan ishlaganda nimalarga rioya qilishi kerak?

## QO'L ISHLARINI BAJARISHDA QO'LLANILADIGAN ISH QUROLLARI

Qo'l ishlari ikki guruhga bo'linadi: tik turib bajariladigan ishlar va o'tirib bajarilagn ishlar.



Tik turib bajariladigan ishlarda kiyim yoki detal stol ustiga qo'yiladi, o'tirib bajariladigan ishlar esa kiyim yoki detalni ham stol ustiga, ham ishchining tizzasiga qo'yib qilinishi mumkin.

Oyoq toliqmasligi uchun o'tirib bajariladigan ish o'rning (1-rasm) pastki qismiga kichkina yashikcha o'rnatiladi. Ishlatiladigan asbob va moslamalar olishga qulay va bir-biriga yaqinroq qilib qo'yiladi.

Tik turib yoki o'tirib ishlayotganda gavda holatiga ahamiyat berish zarur, chunki gavda holati noto'g'ri bo'lsa, odam tez charchaydi, ish qobiliyati pasayadi va gavda qiyshayib yoki bukchayib qolishiga olib keladi.



1-расм. Кул ишлари бажариладиган иш урни.

O'tirib bajarilagan ishlarda ishchi to'g'ri o'tirishi uchun: oyoqlar polga yoki yashikchaga to'la tiralib turishi kerak; oyoqlarni chalishtirib o'tirmagan ma'qul, akl holda qon aylanishi yomonlashadi; gavdani va boshni to'g'ri tutib yoki salgina oldinga egib o'tirish kerak; ko'krakni stolga tirab o'tirish yaramaydi; qo'l tirsakdan bukilib, gavdadidan taxminan 10 sm masoafada turishi lozim; ish bajarayotganda tirsaklarni stol ustiga tirab o'tirish yaramaydi; tikayotgan kiyim yoki detalni ko'zdan 25-30 sm masoafada tutish kerak; ish o'rni yaxshi yoritilgan bo'lishi, yerug'lilik chap tomondan tushib turishi lozim.

### Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar

Qo'l ishlarini bajarishda quyidagi asbob va moslamalardan foydalaniadi: igna, angishvona, santimetrlı lenta, pichoqli halqa, qaychi, dukcha, andaza, maniken, iz tushirgich va boshqalar.

#### Ignalar

Ignalar uzunligi va yo'g'onligiga qarab 1 dan 12 gacha nomerlanadi. Toq nomerli ignalar juft nomerli ignalarga qaraganda uzunroq bo'ladi. Ignalarning usti silliqlangan, igna ko'zi tekis, silliq bo'lishi kerak.

I-Jadval

#### Ignalar o'lchami

Ign nomeri	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Diametri, mm	0,6	0,7	0,7	0,8	0,8	0,9	0,9	1,0	1,0	1,2	1,6	1,8
Uzunligi, mm	35	30	40	30	40	35	45	40	50	50	75	80

## Angishvona

Angishvona ikki xil tubli va tubsiz bo'ldi (2-rasm). Ayollar kuylagi va ich kiyimlarni tikishda tubli angishvona ishlataladi. Ust kiyimlardan palto, kostyum, plashlarni tikishda tubsiz angishvona ishlataladi. Angishvona alyuminiy yoki jezdan tayyorlanadi, uning o'ngida ko'zlar o'yilgan bo'lib, ignani sanchishda igna shu ko'zlarga tushib, sirpanib ketmayli. Angishvonalar 2 dan 12 nomergacha bo'ldi.



**2-rasm: a) tubli angishvona; b) tubsiz angishvona**


2-Jadval

### Angishvonaning o'lchami va nomerlari

Angishvona nomeri	2	3	4	5	8	10	15
Katta diametri, D, mm	15	16	17	18	17	18	19
Kichik diametri, D, mm	11	12	13	14	14	15	16
Balandligi, N, mm	15-19	15-20	15-20	15-21	15	15	15

## Iplar

Iplar. Tikuvchilikda ishlataladigan iplar tabiiy, sun'iy, sintetik va paxta tolalaridan tayyorlanadi (3-rasm). Iplarning yo'g'onligi uzun, zichligi (tekis) bilan xarakterlanadi. Kiyim tikishda ishlataladigan ip gazlama qalinligiga, kiyim turiga, bajariladigan operasiyalarga qarab tanladi.



**3-rasm. Tikuv iplari**

## Santimetri lenta


**Santimetri lenta** 150 sm uzunlikdagi rezinkalangan lenta bo'lib, har 0,5 sm oraliqda belgisi bor (4-rasm). Uchi tomonida 10 sm masofada 0,1 sm oraliqda belgi qo'yiladi. Santimetri lenta gavda o'lchamini va detallarni o'lhash uchun ishlataladi



4-rasm. Santimetri lenta

## Pichoqli halqa

**Pichoqli halqa** asosan qo'lda qaviq tushirgandan keyin ipning uchini qirqish uchun ishlataladi (5-rasm). Pichoqli halqani chal qo'lning ko'rsatkich yoki o'rta barmog'iga taqiladi. Ipnini qirqish uchun uni halqa pichog'iga ort tomondan ilib uziladi. Pichoqli halqlar ettita (1-7) o'lchamda chiqariladi.



5-rasm. Pichoqli halqa


## Qaychi

**Qaychi** kiyim detallarini bichish, tikayotganda detallarning ba'zi joylarini qirqish, baxyaqatorlar oxiridagi ip uchini qirqish uchun ishlataladi.(6-rasm)

Baxyaqator oxiridagi iplarni qirqish uchun o'zi ochilar qaychi ishlataladi.

### Qaychu turlari va o'lchamlari

Qaychilar nomeri	Uzunlik sm	Bajariladigan operatsiyalar
1	38,0	Kartondan andoza qirqish va qalin gazlamadan kichik bichish
2	33,5	Qalin va o'rta qalnlikdagi gazlamadan tikiladigan kiyim detallarini qirqish
3	25,0	Jun gazlamadan ko'ylik bichish
4	23,0	Yupqa jun, ipak va ip gazalamadan bichilgan kiyim detallarini qirqish
5	19,0	
6	18,0	Detal chetlarini qirqish cho'ntak og'zini qirqish va shakozo
7	15,0	
8	9,0	Iplarni qirqish



**6-rasm. Qaychi turlari**

**Dukcha**

**Dukcha** - metall, plastmassa yoki suyakdan yasalgan o'tkir uchli sterjen. (7-rasm) Dukcha detallardagi ko'klangan qaviqlarni sug'urib tashlash yoki detal uchlarini to'g'rilash uchun ishlataladi.

**7-rasm. Dukchalar**

**Iz tushirgich**

**Iz tushirgich** andazalar tayyorlashda kiyim chizmasidan detallarni kartonga tushirishda tushirishda yoki qog'ozdan gazlamaga, bir detaldan ikkinchi detalga iz

**8-rasm. Iz tushirgich** (rasm) Iz tushirgichlar bita yoki qo'sh diskli bo'ladi. Bu disk oddiy dastak uchiga o'rnatiladi.

**Qo'l ishlarini bajarishda quyidagilar talab qilinadi:**

- detallarni bir-biriga vaqtincha qaviq qator bilan ulashda ipning rangi asosiy detal' rangidan farq qilishi kerak,
- qaviqlarni detallarga tushirishda qaviq yirikligi o'ng tomondan ham, teskari tomondan ham bir xilda bo'lishi kerak.
- qaviq yirikligi va qaviq qator zichligi gazlama qalin-yupqaligiga bog'liq. Doimiy qaviq va qaviq qatorlar uchun ishlataladigan ipning rangi asosiy gazlama rangiga mos bo'lishi har.
- Petlyalar yo'r mashda qaviq qatorlar orasida ochiq joy qolmasligi lozim.
- qalinligi har xil gazlamadan bichilgan detailarni ulashda yupqa gazlamadan bichilgan detailni ust tomoniga qo'yishi kerak.

**Nazorat savollari:**

1. Qo'l igna turlari, ularning parametrlari va vazifasi.
2. Angishvona turlari, ularning parametrlari va qo'llanishi.
3. Qo'lda bajariladigan ishlarni bajarish uchun qo'llaniladigan asbob turlari (santimetrli lenta, qaychi, bo'rlar, chizg'ich, andaza, to'g'nog'ich, maneken, iz tushirgich) va ularning vazifalari.

## DAZMOLLASH VA NIIB (NAMLAB ISITIB ISHLOV BERISH) TARTIBI VA QOIDALARI

Namlab-isitib ishlash uch xil usulda bajariladi:

Dazmollash

Presslash

Bug'lash

Dazmollash

– dazmolning qizdirilgan sathini namlangan gazlama sirtidan sal bosib yurgizish.

Presslash

– gazlamani surilmaydigan qizdirilgan ikki sath orasida siqish.

Bug'lash

– gazlamani qizdirilgan sathlar ta'sirida emas, balki bug' bosimi ta'sirida ishslash.

Namlab-isitib ishlashda ishlataladigan asosiy uskunalar:

Dazmollar

Presslar

Bug'li havo manekenlari

## Dazmollar

Tikuvchilik korxonalarida elektr, bug' va elektr-bug' bilan qizitiladigan dazmollar ishlataladi. Elektr dazmollar spiral isitkich elementli yoki naychali elektr isitkichli (TEN) bo'lishi mumkin (9-rasm). Zavodlarda ishlab chiqariladigan dazmollarning massasi, ular nimaga mo'ljallanganligiga qarab, har xil og'irlikda bo'ladi. Masalan, ich kiyim va ayollar ko'ylagini dazmollahsga 4 kg li, kostyum va ip gazlamalardan tikiladigan buyumlar uchun 6 kg li, drap va movut palo'tolar uchun massasi 8 kg li dazmol ishlataladi. Dazmollar termoregulyatorli va termoregulyatorsiz bo'lishi mumkin.



9-rasm. Elektr dazmol

Gazlama turiga va dazmollahsh rejimiga qarab, dazmol qizigan yuzasining temperaturasi 140 dan  $220^{\circ}\text{S}$  gacha bo'lishi mumkin.

Jun, ip, zig'ir tola va viskoza tolali gazlamalarni  $180\text{-}200^{\circ}\text{S}$  temperaturada dazmullanadi, tabiiy ipak va kapron, lavsan, atsetat tola aralashmali gazlamalar esa  $140\text{-}160^{\circ}\text{S}$  temperaturada dazmullanadi. Dazmol mato qo'yib dazmollahsha dazmol yuzasini odatdagidan  $20^{\circ}\text{S}$  ortiq qizitish mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan temperaturada 15-20 sekund davomida dazmollansa ham gazlama sifatiga pishiqligiga tao'sir qilmaydi.

Jun, ip, zigo'ir tola gazlamalarini dazmollahsha 20-30% namlab (dazmullanayotgan paketning ogo'irligiga nisbatan) dazmullanadi. Namlash uchun purkagich ishlataladi. Purkagich normal ishlashi uchun suvning bosimi 0,1-0,15 MPa bo'lishi kerak.

## Namlab-isitib ishlash terminologiyasi


Operasiyalar	Amalda ishlatalishi	Operasiya bajariladigan uskuna turi
1	2	3
Bir tomonga yotqizib dazmollash	Yupqa gazlamalardan tikilgan kiyim choklarni bir tomonga yotqizib dazmollash	Engil vaznli press, dazmol
Yorib dazmollash	Ust kiyim choklarini ikki tomonga yorib dazmollash	O'rta va engil vaznli press, dazmol
Dazmollab yupqalashtirish	Kiyim yoqalari, eng uchi, borti, etagini dazmollab yupqalashtirish	Og'ir, o'rta va engil vaznili presslar
Bukib dazmollash	Detal chetini qoplama cho'ntak taqilma qopqogo'ini bukib dazmollash	Bukish presslari, dazmol
Qirishtirib dazmollash	Ust kiyim old bo'lagida qabariq hosil qilish uchun va vitachlkalar oxiridagi solqilarni yo'q qilish uchun qirishtirib dazmollash	Og'ir vaznli presslar, dazmol
Cho'zib dazmollash	Ostki yoqani tik va qaytarma joylari bo'ylab, eng ustki bo'lagining old qirqimi bo'ylab cho'zib dazmollash	
Bo'rttirib dazmollash	Oqish gazlamalardan tikiladigan ko'ylik koftalarini, taxlamalar 'rnini, cho'ntak o'rnini belgilash uchun bo'rttirib dazmollash Kiyimda hosil bo'lgan yiltiroqligini yotish	Engil vaznli press, dazmol
Bug'lash		Butlagich, butli havo manekeni

### Dazmol bilan ishlaganda eslatma:

- > Kiyimni dazmol qilishdan avval uning yorlig'iga e'tibor bering, balki uni umuman dazmol qilish mumkin emasdir yoki ma'lum haroratga amal qilish lozimdir...
- > Haroratni nazorat qiling!
- > Odatda, o'ng tomondan chap tomonga, libosning keng qismidan ingichka qismiga qarata dazmol qilish lozim.
- > Toza, yuvilgan kiyim va buyumlarni dazmol qiling, aks holda kichik dog' ham ko'zga tashlanib qoladi.
- > Quruq liboslarni dazmollash biroz mushkul; shuning uchun pulverizator (suv purkagich) yoki namlash imkonii bo'lgan toza marlidan foydalaning.
- > Cho'yshab, yostiqjild, sochiqlarni yuza tomonidan dazmol qilinadi. Rangli liboslarni ichki tarafidan dazmol yurgiziladi, aks holda matoda yaltiroq chiziqlar paydo bo'lishi mumkin. Erkaklar ko'ylagini esa faqat old qismidan dazmol qilish lozim.
- > Junli kiyimlarni astaridan ham, ustki qismidan ham dazmol qilaversa bo'ladi, faqat nam marlidan foydalanishni unumang.
- > Krep matosidan tikilgan va yuzasida bo'rib chiqqan rasmlı liboslarni quruq va past haroratda dazmol qiling.
- > Sun'iy ipakdan to'qilgan tafta matosini dazmollashda namlangan marlidan foydalaning, yana uni astar qismidan dazmol yurgizish lozim.
- > Kraxmallangan matolarni namlangan marli qo'yib, yuqori haroratda teskari tarafidan ham, ustki tomonidan ham dazmollash shart! Bunda mato dazmolga yopishib qolmasligi uchun kraxmallash jarayonida ozgina tuz qo'shishni maslahat beramiz.
- > G'ijimlangan galstuk dazmol qilinmaydi. Uch litrli bankaga qaynoq suv solib, galstukni banka ustiga o'rash kerak.


- > Paxtali matodan tikilgan kiyim va buyumlarda dazmoldan iz qolgan bo'lsa, bu dog'lar vodorod peroksidi bilan namlanadi va 15-20 daqiqadan keyin quruq mato bilan artiladi.
- > Yupqa to'r, jimjimador matolarni doim teskari tomonidan dazmollang.
- > Duxoba va velyur matolarga suv purkab, astaridan dazmol qilinadi.
- > Erkaklarning klassik uslubdag'i shimini dazmollahdan avval "strelka" ustidan uksus va suvning teng miqdorli aralashmasida namlanlangan mato yurgiziladi. So'ng choklarni tekislab, namlangan marli qo'yib dazmol qilish lozim.
- > Dazmol yuzasidagi kuygan mato qoldiqlarini tozalash uchun paxtali mato ustiga ikki osh qoshiq yirik tuz sepasiz. Dazmolni eng yuqori haroratga qo'yib, tuz ustidan yurgiziladi. So'ng quruq paxtali mato bilan dazmolning yuzasi artib olinadi.

**Presslar**



10-rasm. Press


**Bug'li havo manekenlari**




a)



b)



c)



d)

**11-rasm. Bug'li havo manekenlari:** a, c, d – yelkali kiyimlari uchun;

b) belli kiyimlar uchun

### Nazorat savollari:

1. Namlab-isitib ishslashning qanday ahamiyati bor?
2. Namlab-isitib ishslashning asosiy parametrlarini ayтиb bering?
3. Namlab-isitib ishslashda qanday operasiyalar bor?
4. Kiyimning qaysi detallari yupqalashtirib dazmollanadi?

## QO'L CHOKLARIDAN NAMUNALAR TAYYORLASH

Kiyim tikishdagi ishlar ijro etish usuliga karab, qo'lда yoki mashinada bajariladigan bo'lishi mumkin. Boshdan-oyoq qo'lда bajariladigan barcha operatsiyalar qo'lда bajariladigan ishlar hisoblanadi. Bular igna, qaychi, bo'r yordamida bajariladigan ishlardir, shuningdek, kiyimni ip, bo'r, changdan tozalash kabi ishlardan iborat. Qo'lда bajariladigan operatsiyalarga mashinada bajarishdan ko'ra ko'p vaqt ketadi. Qo'lда bajariladigan ishlar mashinada bajariladigan ishlarga qo'shimcha tarzda ham bo'lishi mumkin (masalan, detalni mashina tepkisi tagiga qo'yishdan oldin uning ikki qismi qirqimlarini bir-biriga to'g'rilash).


Tikuvchilik sanoatining hozirgi darajasida anchagina ishlar qo'lда bajariladi. Masalan, jun gazlamalardan ust kiyim tikishdagi qo'lда bajariladigan ishlar kiyimni bitirish uchun ketgan vaqtning 35-40 foizini tashkil etadi. Ishlab chiqarishga yangi mashinalar, apparatlar va yarim avtomatlar joriy qilish natijasida qo'lда bajariladigan ishlar foizi kamayadi, kiyim sifati esa yaxshilanadi.

### Qaviqlar va qaviqqatorlar

Gazlamada igna hosil kilgan kushni teshiklar orasida iplar chalishuvining bitta tugallangan tsikli qo'lda bajarilgan bulsa, *qaviq* deyiladi. Ketma-ket takrorlangan qaviqlardan esa qaviqqator hosil bo'ladi (12-rasm).

## baxya qator


## Chok kengligi




12-rasm. Baxya uzunligi va kengligi

Qaviqlar tuzilishi jihatidan quyidagi xillarga bo`linadi: to`g`ri qaviq, qiya qaviq, iroqisimon qaviq, xalqasimon qaviq, xalqa qaviq. Tuzilishi jihatidan qaviqlar oddiy va murakkab bo`ladi. Oddiy qaviqlarga qiya sirma qaviq, qiya biriktirma qaviq, to`r qaviq, yo`rma qaviq, tepchima qaviq, to`g`ri sirma qaviq, yashirin biriktirma qaviq, iroqisimon biriktirma qaviq, solqi qaviq, yolg'on qaviqlar kiradi. Murakkab qaviqlar asosan xalqa qaviqlardan iborat bo`ladi.


### QO'L QAVIQLARI TURLARI



Sirma qaviq to'g'ri va qiya bo'lishi mumkin (13-14-rasm). Bunday qaviqlar ust kiyimlar tikishda uning detallarini vaqtincha ko'klab qo'yish, ko'ylak tikishda burmalar hosil qilish kabi maqsadlarda ishlataladi. Ammo yo'l-yo'l yoki katak gazlamalardan tikiladigan kiyim detallarini ko'klashda ulanayotgan detallar yo'llarini to'g'ri keltirish uchun, yon choklarini ko'klashda mo'ljallab mashina yurgizish uchun to'g'ri sirma qaviq ishlatalishi shart.



13-rasm. Qo'l qaviqlar turlari va ularni bajarish usullari




14-rasm. To'g'ri sirma qaviq namunalari


Sirma qaviqning qanchalik yirik yoki mayda bo`lishi uning nima maqsadda ishlatalayotganiga va gazlamaning turiga bog`liq. Masalan: detallarni solqisiz ko`klanayotganda qaviq yirikligi 2-3 sm, solqi hosil kilib ko`klayotganda esa 1-2 sm bo`ladi. Qaviq detallarni solqisiz sirmalashda 3-5 sm, solqi hosil qilib sirmalashda 1,5-3 sm, bukib ko`klashda esa 1,5-3 sm bo`ladi.

Yo`rma qaviq (15-rasm) detallarning qirqimlari titilib ketmasligi uchun ishlataladi. Bunda qaviq yirikligi gazlamaning zichligiga bog`liq bo`lib, 0,5-0,7 sm, yo`rma kengligi 0,5 sm bo`ladi.

Yo`rma qaviq chapdan o`ngga tomon solinib, qaviqlar bir tomonga bir xilda og`ib turadi.




15-rasm. Yo`rma qaviq




16-rasm. Qiya biriktirma qaviq

Qiya biriktirma qaviq (16-17-rasm) detallar qirqimlarini bir-biriga ulash uchun (masalan, adip qirqimini bort qotirmsiga, yeng qirqimini yeng qotirmsiga biriktirish uchun ) ishlataladi. Qiya biriktirma qaviq solish uchun igna ustki gazlama, uning qirqimiga nisbatan 60-70 gradus burchak hosil kilib sanchiladi. Ignan ustki gazlamani to`la teshib o`tib, ostki qatlarning yarim qalinligini ilib o`tadi. Qaviq ustki gazlama qirqimidan 0,2-0,4 sm masofada o`tishi kerak.




17-rasm. Qiya biriktirma qaviq

Yashirin biriktirma qaviq (18-rasm) detallarning chetini bukib asosiy gazlamaga biriktirish uchun (masalan, ko'ylak etagini qayirib tikish uchun) ishlataladi. Yashirin biriktirma qaviq solish uchun ignani detaining buklangan joyidan 0,1-0,5 sm masofada o'tkazib olib, shu joy ro'parasida asosiy gazlamaning yarim qalinligini ilib oladi. Har 1 sm da 2-3 ta qaviq bo'ladi.



18.-rasm. Yashirin biriktirma qaviq


Iroqsimon biriktirma qaviq (19-rasm) qirqimlari ochiq yoki yopiq detallarning chetlarini biriktirish (masalan, ayollar pal'tosi astarining etagini tikish, Yoqa qaytarmasi va uchlarni ostki Yoqaga tikish) uchun qo'llaniladi. Iroqsimon qaviqlar boshqa qaviqlar singari o'ngdan chapga emas, balki chapdan o'ngga bajarilib, ignaning sanchilishi esa o'ngdan chapga bo'ladi. Detalning buklangan qirqimi to'la teshilib, detal' asosiy gazlamasining yarim qalinligi ilib olinadi. Yuqoridagi va pastdag'i teshiklar bir-birining ro'parasida bo'ladi. Qaviqning yirikligi gazlama zichligiga bog'liq bo'lib, 0,5-0,7 sm ga etadi



19-rasm. Iroqsimon biriktirma qaviq


Solqi qaviq (20-rasm) belgi chiziqlarni bir detaldan ikkinchisiga (masalan, cho'ntaklarning joylanish chizig'ini) ko'chirish uchun ishlataladi. Solqi qaviqqatori oldindan belgilab qo'yilgan chiziq bo'ylab tikilib, qattiq tortilmaydi. Bunda solqining uzunligi 0,5-0,7 sm, qaviq takrorligi esa 5sm da 4-5 tadan bo'ladi. O'ngi

ichkari tomon qilib qo'yilgan detallar orasi ochilib, detallar orasida ko'ringan iplar qaychi bilan qirqiladi: shu qirqilgan iplar ko'chirilgan chiziq konturlarini tashkil etadi. Ommaviy kiyim tikishda solqi qaviq ishlatilmaydi, chunki bunda yordamchi andazalardan foydalanib, belgilar bo'r bilan chizib olinadi.



**20-rasm. Solqi qaviq**


Tepchima qaviq (21-rasm) ikkita detalni bir-biriga ularshda detallarga qoshimcha qayishqoqlik berish va ularning ma'lum holatda saqlanib turishi (ostki Yoqani, adip qaytarmasini tepchib qavish) uchun ishlataladi. Tepchib qavishda ust tomondagi gazlama to'la teshilib, ost tomondagi gazlamaning yarim qalinligi ilib olinadi. Tepchima qaviqlar detalning o'ng tomonidan ko'rinxinmaydigan bo'lib, teskari tomonidan esa qiya qaviqlar kabi ko'rinxinadi. Gazlama qalinligiga qarab xar bir qaviq 0,5-0,7 sm bo'lishi mumkin. Qaviqlar orasidagi masofa 0,4-0,5 sm bo'ladi.



**21-rasm. Tepchima qaviq**


Yolg'on qaviq (22-rasm) gazlamalar chetini zichlashtirish, detal' (bortlar, adip qaytarmasi, Yoqa va boshqalar) shaklini mustahkamlash uchun ishlataladi. Ip taqilgan igna gazlamaga olg'a tomon og'diribroq sanchilib, pastdag'i gazlamaning yarim qalinligi ilib olinadi. Ignaning navbatdag'i sanchiladigan joyi ustki gazlamadan igna chiqqan joydan 0,5-1,0 mm masofada bo'ladi. Iplar gazlamaning

o'ngi tomonidan ko'rilmaydigan bo'lishi kerak. YOlg'on qaviqqa 33, 65, 75- ipak iplar ishlatilib, qaviqning yirikligi 0,3-0,4 sm bo'ladi.




22-rasm. Yolg'on qaviq

To'rsimon qaviq (23-rasm) o'miz chocklarini mahkamlashda, bort qotirmasini va astarini yeng o'tkazilgan choklarga tikish va shu kabilarda ishlatiladi. To'rsimon qaviq hosil qilishda igna birinchi o'tkazilgandan keyin u yana gazlamaga yarim qaviq bo'yicha beriroqqa sanchiladi. Qaviq yirikligi 1-1,5 sm., bunda 10-30 ip bilan qaviladi.




23-rasm. To'rsimon qaviq

To'r qaviq (24-rasm) mashinada baxyaqator yuritish qiyin bo'lgan yoki yuksakroq cho'ziluvchanlik talab etadigan chocklar bor joylardagi detallarni doimiy ularash uchun ishlatiladi. To'r qaviq hosil qilishda ip gazlama qalinligidan to'la o'tib qaytadi va yana gazlamadagi oldingi teshikdan o'tadi. To'r qaviqning gazlama o'ngi tomonidagi tashqi ko'rinishi mashina baxyaqatoriga o'xshaydi. Qaviqning teskari tomondagiga nisbatan ikki barobar ortiq bo'ladi. Qaviq yirikligi gazlama qalinligiga bog'liq bo'lib, 0,1-0,4 sm ga etadi.



24-rasm. To'r qaviq


Xalqa qaviq (25-rasm) izmalarni yoki tililadigan gazlamadan olingan detallar qirqlarni yo'rmash uchun ishlataladi.



25-rasm. Xalqa qaviq

Xalqa qaviq hosil qilish uchun igna gazlamaga uning chetidan 0,3 beriroqqa sanchiladi, keyin ignaning ko'zi tomonidagi ipni igna uchiga chapdan o'ngga aylantirib tashlab, hosil bo'lgan xalqa bir maromda tortiladi. Qaviqlarni bir-biridan bir xil masofada joylashtirib, gazlamaning o'ngi tomonda jumjima xalqa hosil qiladi. Yo'rma xalqa mustaxkamroq bo'lishi uchun va hosil bo'ladigan jumjima bo'rtibroq turishi uchun ustki kiyim izmalari bo'ylab ularning qirqimidan 0,1-0,2 sm masofada ikki buklangan 10-20 ip yoki maxsus shnur qo'yiladi. Xalqa qaviqning takrorligi uning nimaga muljallanganligi va ishlov beriladigan izmaning kandayligiga bog'liq. Kiyimni tugmalaydigan izmani yo'rmashda qaviq zichligi lismda 6-8 ta, karkasli izmalarda 1sm da 12-15 ta bo'ladi.

**Tugma qadash** tugma gazlamaga tirkakli va tirkaksiz qilib qadaladi. Tugmani tirkakli qilib qadashda gazlama bilan tugma orasida qaviq iplaridan solqi qoldiriladi. Shu solqi iplar ustiga 4-5 marta ip o'rab tirkak hosil qilinadi (26-rasm).



**26-rasm. Tugma qadash usullari**

**Nazorat savollari:**


4. Vaqtinchalik qaviqlar, ularning parametrlari va qo'llash doirasi.
5. Doimiy qaviqlar, ularning parametrlari va qo'llash doirasi.

## MASHINA CHOKLARIDAN NAMUNA TAYYORLASH


Mashina ignasi yordamida hosil qilingan qo'shni teshiklar orasidagi iplar chalishuvining bita tugillangan sikli **baxya deyiladi**. Ketma-ket qator takrorlangan baxyalarlan **baxyaqator hosil bo'ladi**. Igna o'tgan ikki qo'shni teshiklar orasidagi masofa **baxya yirikligini ifodalaydi**.

Baxyaqatorlar konstruksiyasiga va qaerda qo'llanishiga qarab turli tikuv mashinalarda bajariladi. Tikuv mashinalarda moki baxya va zanjirsimon baxya hosil qilinadi.


Mashinada bajariladigan choklar konstruksiyasiga va vazifasiga ko'ra uch turga bo'linadi:



- **Birlashtiruvchi chok** kiyim detallari va uzellarini bir-biriga birlashtirishda ishlatiladi,
- **ziy chok** bilan kiyimning hamma ziylariga, detal chetlariga ishlov beriladi,
- **bezak choklar** kiyim detallari va umuman kiyimni bezashda ishlatiladi.




**Biriktirma chok** kiyim tikishda eng ko'p uchraydigan choklardan biri. U yeng qirqimlarini, old va ort bo'laklarning yon qirqimlarini, shim va Yubkalarning yon qirqimlarini birlashtirishda ishlataladi (27-rasm). Biriktirma chokni tikayotganda ikki detaldan birini terib (solqi hosil qilib) yoki termay tikish mumkin. Tikilgan chokni yupqalashtirish uchun chokni yorib yoki chokni bir tomonga yotqizib dazmollanadi. 2 va 3 detallarning qirqimlarini to'g'rilab 1 baxyaqator yuritiladi.



27-rasm. **Biriktirma chok:** a) to'g'ri biriktirma chok; b) yorib dazmollanadigan biriktirma chok; c) yotqizib dazmollangan biriktirma chok

**Yorma choklar** biriktirma chokning bir turi bo'lib, biriktirma chok 3 bajarilgandan keyin chok haqlari ikki tomonga yotqiziladi yoki yorib dazmollanadi. Chok haqlarini 1 va 5 detallariga puxtalash uchun 2 va 4 baxyaqatorlari yuritiladi (28-rasm).




28-rasm. **Yorma chok**

**Bostirma choklar** ikki turga bo'linadi: ochiq qirqimli va berk qirqimli. Ochiq qirqimli bostirma chokni hosil qilish uchun 1 va 4 detallari biriktirma chok 3 bilan

tikiladi. Keyin detal 1 chok atrofida aylantirib detal ziyiga parallel baxyaqator 2 yuritiladi. I va 4 detallrining chok haqi qirqimlari ochiq qoladi.(29-rasm)

Bir tomoni yopiq qirqimli bostirma chokni hosil qilish ucun 1 va 4 detallari biriktirma chok 3 bilan tikiladi. Keyin detal 1 chok atrofida aylantirib detal ziyiga parallel baxyaqator 2 yuritiladi. Detal 1 ning chok haqi baxyaqator 2 bilan yopiladi




**29-rasm. Bostirma choklar:** a) Bir tomoni ochiq qirqimli bostirma chok;  
b) Bir tomoni yopiq qirqimli bostirma chok


**Quyma choklar** ham uc turga bo'linadi: bir tomoni ochiq qirqimli, bir tomoni yopiq qirqimli quyma chok va yopiq qirqimli quyma choklar. Bir tomoni ochiq qirqimli quyma chokni hosil qilish uchun detal 1 detal 3 ning ustiga shunday joylashtiriladiki, baxyaqator yuriti-ladigan qirqimlari qarama - qarshi tomonga yo'nalgan bo'lishi kerak. Baxyaqator 2 ni detal qirqimlariga parallel qilib yuritiladi (30-rasm).

Bir tomoni yopiq qirqimli quyma chokni hosil qilish uchun esa Detal 3 ning o'ng tomoniga detal 1 ning bukilgan ziyini qo'yib qirqimlari to'g'rilanadi va detal 1 ning bukilgan ziyiga parallel bostirma chok 2 yuritiladi.


Yopiq qirqimli quyma chokni hosil qilish uchun 1 va 3 detallarining ukilgan ziyi tomonidan bostirma chok 3 yuritiladi. Detal 1 ni qirqimlarini ichkariga buklab ziy tomonidan bostirma chok 2 beriladi.



a)




b)




c)

**30-rasm. Quyma choklar:** a) Bir tomoni ochiq qirqimli; b) Bir tomoni yopiq qirqimli; c) yopiq qirqimli


**Ichki choklar.** Ichki choklar 3 turga bo'linib, 1- ichki choc; 2-qulf choc; 3-qo'sh chocdir. Ichki chocni hosil qilish uchun baxyaqator 3 ni yuritish uchun 1 va 4 detallarining o'ngi ichkariga qaratib qo'yiladi, bunda qirqimlarning parallelligi saqlanadi va detallar bir-biridan ma'lum masofada joylashtiriladi (31-rasm). Keyin detal 4 ning qirqimi detal 1 ning yonidan aylantiriladi va baxyaqator 3 yuritiladi. Qulf chocni hosil qilish uchun ikki ignali qo'shimcha moslamalni mashinada 1 va 4 detallarining qirqimlarini bukib baxyaqator yuritiladi. Qo'sh chocni hosil qilish uchun 1 va 2 detallari ag'darma choc 4 bilan biriktiriladi. Detallar o'ngiga ag'dariladi va baxyaqator 3 yuritiladi. Chok haqi baxyaqator 3 bilan puxta-lanishi kerak.



a)




b)



c)


**31-rasm. Ichki choklar:** a) ichki choc; b) qulf choc; c) qo'sh choc

**Tutashtirma chok.** Tutashtirma chokni hosil qilish uchun detal 3 o'rtafiga 1 va 5 detallarini qirqimlarini tutashtirib qo'yiladi va ikkita parallel 2 va 4 baxyaqator yoki bitta siniq baxyaqator bilan bostirib tikeladি.(32-rasm)



**32-rasm. Tutashtirma chok.**

**Ziy choklar** 'kiyim detallarining chetlarini titilib ketishdan saqlashda Yoqalar, bortlar, yeng uchlari, shim pochalariga ishlov berishda ishlataliladi. Ziy choklar buklama chok, mag'iz chok, ag'darma choklardan iborat.




**Ag'darma choklar.** Ag'darma chokni hosil qilish uchun 1 va 2 detallari ag'darma chok 3 bilan tikeladি va detallar o'ng tomonga ag'dariladi va dazmollanadi. Detallarni mustahkamlash uchun bukilgan ziyda vaqtinchalik yoki bezak baxyaqator 4 yuritiladi (33-rasm).

Ziy chiqarilgan ag'darma chokni hosil qilish uchun Detallarni biriktirma chok 1 bilan ulangandan keyin 2 va 3 detallarni o'ngiga ag'dariladi va detal 2 dan

ziy chiqarib to'g'rilanadi. Detallar holatini mustahkamlash uchun detal 3 ziyi yaqinida vaqtinchalik yoki bezak baxyaqator 4 yuritiladi.

Oddiy ramkali ag'darma chokni hosil qilish uchun detal 2 dan ramka hosil qilish uchun ikki buklanadi. Unga detal 3 ning o'ngini pastga qaratib qo'yiladi va baxyaqator 1 yuritiladi. Keyin detal 3 choc atrofida o'ngini yuqoriga qaratib aylantiriladi va dazmollanadi.


Murakkab ramkali ag'darma chokni hosil qilish uchun 3 va 4 detallarini biriktirma choc 1 bilan tikiladi va choc haqi yorib dazmollanadi. Keyin detal 3 dan ramka hosil qilish uchun buklanadi. Baxyaqator 1 ga parallel holda choc 2 yuritiladi.



33-rasm. Ag'darma choklar: a) ag'darma choc; b) ziy chiqarilgan ag'darma choc; c) oddiy ramkali ag'darma choc; d) murakkab ramkali ag'darma choc.

**Mag'iz choklar.** Bir tomoni ochiq qirqimli mag'iz choc hosil qilish uchun asosiy detal 1 mag'iz 4 bilan biriktiriladi. Mag'izni asosiy detal atrofidan aylantirib biriktirilgan chocdan narida bostirma choc 2 yuritiladi (34-rasm).


Yopiq qirqimli mag'iz chokni hosil qilish uchun asosiy detal 1 mag'iz 4 bilan birik-tiriladi. Mag'izni asosiy detal atrofi-dan aylantirib, ochiq qirqimini ichkariga buklab biriktiril-gan chocdan narida bostirma choc 2 yuritiladi.



**34-rasm. Mag'iz choklar:** a) bir tomoni ochiq qirqimli; b) yopiq qirqimli.

**Buklama choklar.** Ochiq qirqimli buklama choklarni hosil qilish uchun detal 1 ning cheti teskari tomonga buklandi va detal qirqimiga hamda bukilgan chetiga parallel bostirma chok 2 yuritiladi (35-rasm).

Yopiq qirqimli buklama choklarni hosil qilish uchun Detal 1 chetini ikki qavat buklab universal mashinada detal ziyiga parallel bostirma chok 2 yuritiladi.



**35-rasm. Buklama choklar:** a) ochiq qirqimli; b) yopiq qirqimli; c) yopiq qirqimli buklama chok (maxsus mashinada bajariladi)

**Bezak choklar** kiyim detallarini bezashda ishlatalib, taxlamalar va bo'rtma choklardan iborat bo'ladi.

## BEZAK CHOKLAR

Mag'izli biriktirma choklar

Bo'rtma choklar


Taxlamalar

**Mag'izli biriktirma chokni** hosil qilish uchun detal 2 o'ngiga ikki buklangan mag'iz 3 ni va uning ustiga detal 1 ni qo'yiladi, qirqimlarini to'g'rilab biriktirma chok 4 bilan ulanadi. Keyin 1 va 2 detailari chok atrofida aylantiriladi va mag'izdan kant hosil qilinadi.


**Bo'rtma chokni** hosil qilish uchun detal 1 ostiga bo'ylama 2 qo'yiladi. Detal 1 ni bo'ylama 2 ga ikkita parallel chok 3 va 4 bilan bostirib tikiladi. Ikkiti baxyaqator orasida detal 1 da bo'rtma hosil qilinadi. Detal 1 ostiga bo'ylama 2, ularning orasiga shnur 5 qo'yilib, ikki tomonidan parallel baxyaqator 3 va 4 yuritiladi.

**Taxlamalarni** hosil qilish uchun detal 2 bukish chizig'i yonidan bitta baxyaqator 1 bilan chok bajariladi. Bukish chizig'idan baxyaqator chizig'igacha bo'lgan masofa modelga muvofiq bo'ladi. Asosiy detal 1 o'ngi ichkariga qaratib buklangan va detal 2 o'ngiga qo'yiladi. Detal ziyi yonidan baxyaqator 3 bilan chok yuritiladi. Chok kengligi modelga muvofiq bo'ladi (36-rasm).


Taxlamalar birlashtiruvchi yoki faqat bezatuvchi bo'lishi mumkin. Birlashtiruvchi taxlamalar bir necha detailni ulab, ya'ni birlashtirib taxlama, bir-biriga qaragan va ikki tomonga qaragan bo'lishi mumkin. Bir tomonga yoki ikki tomonga qaragan birlashtiruvchi taxlamalarni tikishda detallarni o'ngi ichiga qaratib qo'yiladida, belgi chiziq bo'ylab qo'lda to'g'ri sirma qaviq bilan yoki maxsus bir ipli zanjirsimon baxyali mashinada ko'klanadi. Taxlama haqi bir tomonga qaratib dazmollanadi. Detal qirqimlari biriktirib tikiladi. O'ng tomonidan bezak baxyaqator yuritib bostirib tikiladi-da, ko'klangan ip so'kib tashlanadi.



a



b




c

**36-rasm. Bezak choclar:** a) mag'izli biriktirma choc; b) bo'rtma choc; c) taxlamalar.

#### Nazorat savollari:

- Vazifasiga ko'ra choclar qanday turlarga bo'liadi?
- Gazlamalari ulash usuli bo'yicha choclarig qaday turlarini bilasiz?
- Birlashtiruvchi choclar qaday turlarini bilasiz?
- Ziy choclar qaday turlarini bilasiz?
- Taxlamalarni qanday turlarini bilasiz?
- Nima uchun ichki choclarining konstruktsiyasi murakkabroq bo'ladi?




**39-rasm. Tungi ko'yylak modeli**

### **AYOLLAR KIYIMLARINING BO'YIN O'YINDILARIKA ISHLOV BERISH NAMUNALARINI TAYYORLASH.**

Yoqasiz buyumda Yoqa o'mizi qirqimlarini shu Yoqa o'mizi shaklida bichib yoki qiya (tanda ipiga nisbatan 45 gradus burchak ostida) bichib olingan mag'iz yoki beyka bilan ag'darma choc solib, kant hosil qilib tikish mumkin. Avval mag'iz bo'laklari biriktirib tikiladi, choc haqi yorib dazmollanadi, keyin asosiy detal o'ng tomonga o'ngini pastga qilib to'g'rilanadi va ag'darma choc bilan tikiladi. CHok mag'iz tomonga bukilib, mag'izning o'ngidan ag'darma chocdan 0,1-0,3sm. oraliqda bostirib tikiladi. Keyin mag'iz buyumning teskari tomoniga qaytarilib, 0,1-0,2sm kenglikda kant hosil qilib dazmollanadi. Mag'izning ichki qirqimlari buklab tikilgan (40-rasm, a), yoki maxsus mashinada yo'rmalangan bo'ladi (40-rasm, b). Keyin mag'iz asosiy detalga 7-8sm oraliqda yashirin qaviq bilan qo'lda chatiladi yoki maxsus mashinada tikib qo'yiladi.

Qalin gazlamalardan tikilgan kiyimning Yoqa o'mizini mag'izli choc bilan (40-rasm, v) va ikki ignali mashinada beyka qo'yib tikish mumkin (40-rasm, g).




PACM 8


**40-rasm. Yoqasiz kiyimlar Yoqa o'mizini tikish.**

Bo'yinning shakli bo'yicha kesilgan adip bilan bo'yin o'miziga ishlov berish

1. Ichkariga qaragan qismlarni qirqimlarini tenglashtiriladi va tikib chiqiladi. Chok kengligi 0,5 - 0,7 sm. (41-rasm)
2. Agar kiyim jun, ipak yoki sintetik tolali matolardan tayyorlangan bo'lsa, choklarini dazmollash lozim. Agar paxta gazlamalardan bichilgan bo'lsa - choklarini 2 tomondan kengaytirish kerak.
3. Adip ichki qismlarini teskari tomonga 0,5-0,7 sm bukib, chetidan 0,1 sm masofada tikib qo'yiladi. Agar ko'ylik sitiladigan matodan tikilgan bo'lsa, overlokda chetlarini oldindan yo'rmalab qo'yish kerak.
4. Agar bo'yin o'mizida old yoki orqa bo'yin chizig'idan taqilma mo'ljallangan bo'lsa, adip uchlarini taqilma bilan birga tikib ketiladi. Chok kengligi 0,7 sm.
5. Choklarni taqilma adibi tomon ag'darib olinadi.
6. Adibni asosiy gazlama o'ngiga o'ngiga qo'yib, ziylarini bir biriga hamda yelka choklariga to'g'rilab, 0,7 sm kenglikda chok yurg'iziladi.
7. Ichki choklari bo'ylab bo'yin omizlari choklariga 0,1-0,2 sm yetkazmasdan kertib qo'yiladi
8. So'ng adipni chokini adip tomon qaratib ustidan 0,1-0,3 sm kenglikda bostirib tikiladi
9. Adipni ko'ylik ichki tomoniga ag'dariladi hamda asosiy detaldan 0,1-0,2 smli kant hosil qilib yaxshilab dazmollab qo'yiladi



**41-rasm. To'rtburchak va yumaloq shakldagi bo'yun o'mizlariga ishlov berish**



**42-rasm. V shakkli Yoqa o'miziga ishlov berish**

#### **Nazorat savollari:**

1. Yoqasiz kiyimlarning Yoqa o'mizini tikishni tushuntiring
2. Yoqasiz buyumda Yoqa o'mizi qirqimlarini shu Yoqa o'mizi shaklida mag'iz yoki beyka necha gradusda bichilib kant hosil qilib tikish mumkin?

3. Yoqasiz kiyimlarning Yoqa o'mizini tikishda chok qaysi tomonga bukilib, mag'izning o'ngidan ag'darma chokdan necha sm oraliqda bostirib tikiladi?
4. Mag'iz asosiy detalga necha sm oraliqda yashirin qaviq bilan qo'lda chatiladi yoki maxsus mashinada tikib qo'yiladi .

## **AYOLLAR KIYIMLARIGA TURLI XILDAGI YENG NAMUNALARINI TAYYORLASH**


Yengil kiyimlarning yenglari o'tkazma, reglan, old va ort bo'laklar bilan yaxlit bichilgan, kombinatsiyalangan bo'lishi mumkin. O'tkazma yenglar eng kup uchraydi. Yenglar tuzilishi jixatidari bir chokli yoki ikki chokli, to'g'ri, uchi tomoniga kengaygan yoki toraygan, yukori qismida yoki uchida burma hosil kilingan, turli vitachkali, taxlamali, kesmali, bufli va burtma yulli bo'lishi mumkin. O'tkazma yengli buyumlarning yeng umizlari past tuchgan, chukur uyilagan, kvadrat va x.k bo'lishi mumkin.

Reglan bichimli yenglar ikki bo'lakli yoki yelkadan yengga o'tadigan joyi bir tekisda bo'lishi uchun yukori qismi vitachkali yaxlit bo'lishi mumkin. Yaxlit bichilgan yenglar buyumlar yengining old qismi buyumning old bo'lagi bilan, tirsak qismi esa buyumning ort bo'lagi bilan yaxlit bichiladi. Asosiy detallar bilan yaxlit bichilgan yenglar xishtakli bo'lishi mumkin.

**Manjetsiz yenglarning uchini tikish.** Yeng uchi choklash yoki mashinada bukma chok bilan tikilishi mumkin, kalin gazlamalardan tikiladigan buyumlarning yeng uchi qirqimlari esa oldin bukib tikiladi (43-rasm).

Yozlik kuylaklarning yeng uchiga kupincha elastik tasma tikib quyiladi. Yeng kir-kimlari biriktirib tikilgandan keyin yeng uchi yopik qirqimli kilib buqiladi va bir yula ichiga elastik tasma qo'yib tiqiladi, kancha kator tasma quyilishi modelga boglik bo'ladi. Bunda fakat oxirgi tasma yeng uchini bukib tikayotganda quyiladi,

kolganlari esa maxsus mashinada yurmalgan petlya teshigi orkali qo'lda takib o'tkaziladi.



43-rasm. Manjetsiz yenglarning uchini tikish

Modelga binoan yeng uchi kupincha ikki kavat yeng qo'yma burmali kilib tiqilishi mumkin. Bu xolda yeng uchi (burmaga va shnur yoki elastik tasma qo'yib bukib tikishga muljallangan) ishlov xvki koldirib yoki yeng uchi shaklida bichilgan mag'iz qo'yib tiqilishi mumkin.

Yeng uchi ishlov xaki bilan tiqiladigan bo'lsa, belgi buylab yeng teskari tomoniga ag'dariladi va bukish ziyan burma kengligida teng oralikda bahaqtor yuritib tiqiladi (43-rasm).

Keyin chok xakining qirqimini ichkari tomonga 0,5-0,7 sm bukib, orasiga shnur yoki elastik tasma quyiladi va bukilgan ziydan 0,1 sm oralikda bukma chok bilan tiqiladi.

Yeng uchiga mag'iz qo'yib tikishda yeng uchi ag'darma chok bilan tikilgandan keyin yengdan kant hosil kilib dazmollanadi. Yeng uchining ziyan burma kengligiga boglik oralikda bahaqtor yuritilada, keyin mag'iz bilan yeng orasiga shnur yoki elastik tasma qo'yib, mag'izning cheti tikib quyiladi. Yeng uchiga bezak yoki asosiy gazlamalardan beyka qo'yib tikishda beyka mashinada maxsus moslama yordamida yengga bostirib tiqiladi. Beykani bostirib tikayotganda uning qirqimi bilan yeng uchining qirqimi ichkari tomonga 0,7 sm buqiladi. Uchi yalangkavat keng qo'yma burmali yenglarda shnur yoki elastik tasmani yalang

kavat yoki ikki kavat beyka qo'yib bukib tiqiladi. Manjetsiz yeng uchi mag'iz qo'yib tiqiladi. Kuplab ishlab chikarishda yeng uchining o'ng tomoniga mag'iz qo'yib, uning qirqimlari maxsus momlama yordamida 0,5-0,7 sm ichkariga bukilib yengga bostirib tiqiladi. Maxsus moslama bo'limgan tak-dirda yeng uchiga mag'iz qo'yib, mag'iz tomongan ag'darma chok bilan tiqiladi. Chokni mag'iz tomonga kaytarib, mag'izning o'ng tomonidan ziydan 0,2 sm naridan bostirib tiqiladi. Yengning uchi ichkariga kaytariladi, yeng qirqimlari bilan mag'iz qirqimlari tekislاب quyiladi va yengning ostki qirqimlari birga biriktirib tiki-ladi. Mag'iz yengning teskari tomoniga kayriladi, yeng uchidagi chok asosiy detaldan 0,2 sm kenglikda kant hosil kilib tekislanib dazmollanadi. Mag'izning ichki cheti buylab maxsus mashinada yengga tiqiladi yoki xar 4-5sm oralikda 5-6 qaviq to'chirib qo'lda yashirin qaviq bilan puxtalanadi. Takilma chetlari tikilgandan keyin yengning tirsak qirqimlari tikib bo'ltingan takilmá oxirgi uchigacha biriktirib tiqiladi, keyin detalni to'g'ri burchak ostida bürib, tikilgan takilmaning ishlov xaki ikkita kaytma bahyaqtor yuritib puxtalanadi. Tayyor takilma dazmollanadi.

Uchiga tomon torayib ketgan manjetsiz yenglarga qo'l bermalol sigishi uchun yeng taxlamasida yoki yaxlit detalb kesimida takilma tiqiladi.

Taxlamadagi takilmani tikish uchun oldin yeng detalida ikkita taxlama o'rni belgi-lanadi. Bitta taxlamaning o'ngiga belgi chiziq buylama ag'darma chok bilan tikilgan yoki urilgan shnurdan yasalgan petlyalar quyiladi va xar bir petlya uchini 4-5 tadan qaviq to'chirib chatiladi. Keyin kertma buyicha taxlamani bukib, petlyalar uchi taxlama orasiga joylanadi va bukilgan ziydan 0,1 sm naridan taxlama teskarisidan biriktirib yoki o'ngdan bostirib tiqiladi.

Yengdag'i ikkinchi taxlama chatilagan tugma pishikligini oshirish maqsadida ki-lanadi. Keyin yeng uchi mag'iz qo'yib ag'darma chok bilan tiqiladi va tirsak qirqim-lari takilmasiz yenglarni biriktirib tikkandagidek tiqiladi.


Yeng kesimidagi takilmani tikishda ag'darma chok bilan tikilgan yoki urilgan shnur petlyasini kesim chetiga, petlya uchlarini qirqim tomonga qaratib chatiladi. Yeng uchida kesimi bor yenglar mag'izi kesim mag'izi bilan birga bichiladi,

shuning uchun yengning tirsak qirqimlari biriktirib tikilagandan keyin yeng uchi bilan birga ag'darma chok bilan tiqiladi.

### **Manjetli yeng uchlarini tikish. Manjeti yeng bilan yaxlit bichilgan yenglar.**

Engdan chikkan, ya'ni kaytarma manjetli yenglarning uchi ypiq qirqimli bukma chok bilan tiqiladi (44-rasm) bunda yeng uchining bukish xaki manjetning (kaytarmaning) ikkilangan eni mikdoricha uzaytiriladi.

Manjetga uxshash kaytarma taxlamali yengning uchini tikishda yeng uchi teskari tomoniga manjet kengligida buqiladi, yengni qirqim atrofidan aylantirib, shu bukilgan ziydan modelga muvofik kenglikda bukib tiqiladi (44-rasm). Bukish xaki yeng uchi tomonga kaytarib dazmollanadi (44-rasm).



**44-rasm. Manjetli yenglarni tikish**


**Manjet tikish.** Manjetlar kotirma qo'yib va kotirma qo'ymay tiqiladi. Murakkab shakldagi manjetning uchala tomoni ag'darma chok bilan tiqiladi. Tugmalanadigan manjetlarning fakat yon tomonlari ag'darma chok bilan tiqiladi (45-rasm).

Ulanma manjetga kotirma qo'yib tikishda manjetning yon tomonlarini biriktirib tikishdan oldin kotirmani manjetga qo'yma chok bilan (5-rasm) yoki bukma chok bilan (45-rasm) tiqiladi.

**Manjetni yengga ulash.** Ulanma manjetlar choklash mashinasida yengga ulanadi.


CHoklash mashinasida ulashdan oldin manjetning ostki qismi yengga ulanib olinadi, chok manjet tomonga kaytarib quyiladi. Ustki manjet qirqimi ulash bahaqaqtorini yopadigan kilib ichkariga buqiladi va bukish ziyidan 0,1 sm yuralikda bostirib tiqiladi (7-rasm).

Keyin yeng qirqimlari biriktirib tiqiladi (45-rasm) va manjetni bostirib tikkan bahaqaqtor ustidan ikkita kaytma bahaqaqtor yuritib, pastdagi chok xaki puxtalanadi (9-rasm).



**45-rasm. Manjetli yenglarni tikish**

Kotirmali manjetlarda bahaqaqtor bukilgan ziy buylab yuritiladi (46-rasm). Yengning uchiga manjetni tikish – yo'rmalash mashinasida ulash mumkin. Buning uchun manjet bilan yengning o'ngini ichkariga qaratib quyiladi va yeng uchining manjet ulanmaydigan joyi bilan birga mashinada yurmab ulanadi. Keyin manjet yengning qarama-karshi tomoniga kaytarib quyiladi. Yeng uchining manjet ulanmagan joyi ochik qirqimli bukma chok bilan tiqiladi. Yeng uchiga kaytarma manjetni mag'iz qo'yib, kiya beyka qo'yib yoki mag'iz xam, beyka xam qo'ymay tikish- yo'rmalash mashinasida ulash mumkin (46-rasm).



46-rasm. Manjetli yenglarni tikish

Kaytarma manjetni yengga ulashdan oldin yeng qirqimlari biriktirib tijiladi. Mag'izning yon tomonlari xam biriktirib tikilgan bo'lishi kerak. Mag'izning ichki qirqimlari yurmalgan yoki bukib tikilgan bo'lishi mumkin. Tayyor manjet ostki manjet o'ngini tayyor yengning o'ngiga qaratib kiydiriladi, mag'izning o'ngini manjet tomonga qaratib kiydiriladi, qirqimlarni bir-biriga to'g'rilib, mag'iz tomonidan ulanadi. CHokning kengligi 0,7 sm. chokni mag'iz tomonga kaytarib, ulangan chokdan 0,2-0,3 sm oralikda bostirib tijiladi. Mag'izni yengning teskari tomoniga kaytarib, chokni to'g'rilib, yengdan 0,1-0,2 sm kenglikda kant hosil kilib dazmollanadi. Mag'izning ichki cheti yengning bir necha joyiga qo'lda yashirin qaviq bilan yoki yashirin baxyali maxsus mashinada mag'iz cheti buylab tikib quyiladi. Manjetni yengga yalang kavat yoki ikki kavat beyka qo'yib ulash mumkin. Ikki kavat beykaga muljallangan gazlama parchasini teskari tomonini ichkariga qaratib urtasidan uzunasiga buqiladi-da, xuddi manjetni yengga mag'iz qo'yib ulagandagidek ulanadi. Manjet bilan beykani yengga ulagandan keyin, chok yeng tomonga kaytariladi, choc beyka bilan yopiladi, manjetni kaytarib turib, beykaning bukilgan ziyidan 0,1-0,2 sm oralikda yengga bostirib tijiladi (46-rasm). Manjetni yengga tikish-yo'rmalash mashinasida ulashda manjetni yengning ichiga o'ngini yengning teskarisiga qaratib joylanadi, qirqimlarni bir-biriga to'g'rilib, ustki va ostki manjet yeng tomonidan ulanadi. CHokni yeng tomonga kaytarib,

ziyidan 0,2-0,3 sm oralikda yengga bostirib tigiladi. Keyin manjet yengning o'ngiga kaytariladi. Yengning uchi dazmollanadi.


#### Nazorat savollar.

1. Yeng uchiga kanday usullarda ishlov beriladi ?
2. Manjetsiz oddiy yengga kanday ishlov beriladi ?
- 3.Oddiy yeng uchiga elastik tasma kanday ulanadi ?
4. Manjet necha detaldan iborat bo'ladi ?
5. Manjet turlari.

### AYOLLAR KIYIMLARIKA TURLI XILDAGI CHO'NTAK NAMUNALARINI TAYYORLASH

CHO'ntaklar kiyimda amaliy hamda bezak vazifasini o'taydi. Hamma cho'ntaklar tashqi yoki ichki bo'ladi. Tashqi cho'ntaklar qirqma, chokdag'i va qoplama bo'ladi. Qirqma cho'ntaklar qopqoqli, listochkali, ramkali va kantli bo'lishi mumkin. CHokdag'i cho'ntaklar bo'rtma choklarda va taxlamalarda bo'ladi. Qoplama cho'ntaklar turli shaklda bo'lib, taxlamalar, vitachkalar, qopqoqlar va qoplama mag'izlar bilan bezatiladi. Ichki cho'ntaklar astar bilan alipning biriktirma chokida va adipda bo'ladi. Hamma cho'ntaklarning ko'rinishi va tikilish usuli har xil bo'ladi.


#### CHO'NTAK TURLARI



**Qoplama cho'ntaklar** turli shakllarda bo'lishi mumkin. Cho'ntakning yuqori qismi chok haqi bilan yoki mag'iz qo'yib tikilishi mumkin. Cho'ntak mag'izi

asosiy yoki bezak gazlamadan bo'lishi ham, detalning o'ng tomoniga o'tkazilgan bo'lishi ham mumkin. Cho'ntakning yuqori qismi qiya bichilgan kant qo'yib maxsus moslamali mashinada mag'iz chok bilan tikilishi mumkin. Qoplama cho'ntak atrosiga bezak kant va to'r qo'yib tikishda oldin cho'ntakka bezak detallar ulanib olinadi, so'ngra cho'ntakning yuqori burchagi ag'darma chok bilan tikiladi (47-rasm).

Qoplama cho'ntaklar astar qo'yib, cho'ziluvchan gazlamadan tikiladigan buyumlarda esa qotirma qo'yib tikiladi. Qaytarmali qoplama cho'ntaklarning qaytarma qismi asosiy yoki bezak gazlamadan bo'lishi mumkin. Cho'ntakning ostki burchagi tanda ipi bilan baxyaqator orasidagi  $45^{\circ}$  burchak hosil qilib tikiladi.



**47-rasm. Qoplama cho'ntak tikilishi**

**Qirqma cho'ntaklar** qirqmasi yo'nalishiga qarab vertikal, gorizontal va qiyalama cho'ntak og'zi shakliga qarab to'g'ri chiziqopqoq shaklida, murakkab shaklda bo'ladi. Cho'ntak yuqori tomonining bezalishiga qarab listoshkali cho'ntak qopqoqli va mag'izli bo'ladi. Cho'ntak og'zining nastki tomoni ramkalii yoki kantli qilib tikilishi mumkin.

Qirqma cho'ntak tikish protsessi ush bosqishga bo'linadi: mayda detallarni (cho'ntak qopqoq va lastoshkalarni) tikish, cho'ntak xalta tikish, cho'ntakni tikib yig'ish. cho'ntak qopqoqli va lastoshkali qirqma cho'ntaklar ko'p tarqalgan bo'lib, yuqori cho'ntak va yon cho'ntak tikishda ushraydi.

#### **Qopqoqli qirqma cho'ntaklarni tikish.**


Qopqoqli qirqma cho'ntaklarni tikish ushun cho'ntak cho'ntak qopqoq astar tomonidan ushlash belgi shizig'i, asosiy detal o'ngidan o'rni belgi chizig'i

bo'ylanadi. Keyingi belgi chiziq bitta gorizontal va 2 ta ko'ndalang chiziq qopqoqdan iborat bo'ladi. qopqoqli qirqma cho'ntak tikish ushun tayyor tikilgan cho'ntak qopqoqdan tashqari, cho'ntak og'zining nastki qirqimiga ishlov berish ushun asosiy materialdan mag'iz, asosiy materialdan bishilgan bir bo'lak ikki bo'lakdan iborat cho'ntak xalta bo'lishi sho'ziluvshan gazlamadan tikiladigan kiyimda ham bo'ylama bo'lishi zarur. Bo'ylama o'rniga gazlamaning urish ini bo'ylab bishilgan mag'iz yoki cho'ntak xalta ham tiksa bo'ladi. Tikib tayyor qilingan cho'ntak qopqoqni asosiy detalga belgi chiziqopqoq bo'ylab qo'yiladi (48-rasm).

Material sho'ziluvshan bo'lsa, detal teskari tomonga bo'ylama qo'yiladi. Bu bo'ylama ənning markazini asosiy detalning bo'ylama shizig'iga to'g'ri keltirib qo'yiladi va qo'lda sirma qaviq bilan yoki zanjirsimon baxyali mahsus mashinada bitta yoki ikki baxyqa qator yuritib kuklanadi. Bo'ylamani küklab olmasdan cho'ntak qopqoq ulayotganda birga tikib ketsa ham bo'ladi. Belgi chiziqopqoq ushidan baxyqa qator yuritib cho'ntak qopqoqni asosiy detalga ulanadi. qaytma baxyqa qator yuritib, baxyqa qatorning boshi va oxiri no'xtalab qo'yiladi. Yo'l-yo'l yoki katak-katak gazlamalardan tikiladigan kiyimlarga cho'ntak qonqog'ining yo'lli yoki katak chiziq qopqoqlari asosiy detal yo'lli yoki katagiga to'g'ri keltiriladi.

Keyin cho'ntak qopqoq asosiy detalga mashinada ulanadi. Mag'izni yoki mag'iz vaziphasini o'taydigan cho'ntak xaltani kant bilan chok haqi kengligining yig'indisiga teng kenglikda teskari tomonga bukib dazmollanadi. Bukilgan ziyi cho'ntak og'zi shizig'idan nast tomonga qaratilib ziydan 0,5-0,7 sm oraliqda baxyqa qator yuritib, mag'izga cho'ntak xalta asosiy detalga ulanadi. Cho'ntak qopqoq ulangan shok bilan mag'iz ulangan shokning boshi va oxiridagi ushlari bir xil oraliqda bo'lishi kerak. Asosiy detal teskarisidan 2 baxyqa qator orasidagi material asosiy material va bo'ylama qirqiladi. Keyin baxyqa qatorlar tomonga 0,1 sm etkazmay qiyalatib qirqiladi. Cho'ntak qopqoq ushi cho'ntak xalta yoki mag'iz asosiy detal teskarisiga o'tkaziladi va cho'ntak ushlari tekislaniib, universal mashinada qaytma baxyqa qator yuritib no'xtalanadi. Cho'ntak xaltaning ikkinshi ushi cho'ntak qopqoq ulangan shokka ulanadi. Cho'ntak xalta mag'zdan alohida


bishilgan bo'lsa, bri 0,7-1,0 sm shok bilan mag'izning oshiq qirqimli tomoniga ikkinshi ushi cho'ntak qopqoq ulangan shokka tikiladi. Modelda ko'rsatilgan bo'lsa, cho'ntak qopqoq ulangan shok yuqorisidan bezak baxya qator yuritiladi. Cho'ntak xaltaning ushshala tomoni biriktirib tikiladi. Ilgari cho'ntak ushlari no'xtalanmagan bo'lsa, cho'ntak xaltani tikish naytida cho'ntak ushlari qaytma baxya qator bilan no'xtalanadi. Cho'ntak xalta qirqimlari shok haqidagi 1-1,5 sm qoldirib mahsus mashinada yo'rmaladi.



**48-rasm. Qapqoqli qirqma cho'ntak tikish.**

Lastoshka ham cho'ntak qopqoqqa o'xshab tayyorlanadi. Tayyor lastoshkaning ostki tomonida ushslash shizig'i belgilanadi. Asosiy detalb o'ngida cho'ntak o'rni chiziqopqoq bilan belgilab oladi. Tikilayotgan kiyim gazlamasi yo'l yoki katak bo'lsa, asosiy detalb bilan lastoshka yo'li va kataklari bir-biriga to'g'rilib keyin lastoshka ulash shizig'i belgilanadi. Lastoshkaning belgi shizig'ining asosiy detalb o'ngidagi belgi chiziqopqoqqa to'g'rilib, lastoshkani o'ngini asosiy detalb tomonga qaratib qo'yiladi, biriktirib tikiladi (49-rasm).

Cho'ntak xalta lastoshka bilan yaxlit bishilmagan bo'lsa, lastoshka ustiga xaltani o'ngini nastga qaratib qo'yiladi va birga asosiy detalga ulanadi. Baxya qator boshlanishi va oxiri qaytma baxya qator yuritib no'xtalanadi. Cho'ntak xaltaning ikkinshi bo'lagi o'ngiga nastga, qirqimini cho'ntak og'zi tomonga qaratib qo'yiladi. 0,7-0,1 sm oraliqda biriktirib ulanadi. Asosiy detalb teskarisidan cho'ntak og'zi qirqladi. Cho'ntak xalta detalb teskari tomoniga ag'darib o'tkaziladi. Cho'ntak ushlari ikki-ush qaytarma shok bilan no'xtalanadi.




**49-rasm. Listochkali qirqma cho'ntakka ishlov berish**

### **Ramkali qirqma cho'ntak tikish.**

Asosiy detalning o'ngiga yordamshi andoza qo'yib yoki andozasiz cho'ntak o'rni belgilab olinadi. Cho'ntak o'rni to'rtta (2 ta gorizontal va 2 ta vertikal) shizib belgilab olinadi. Cho'ntak ramkasi oval yoki murakkab shaklda bo'ladi. Belgi chiziqopqoq ham shu shaklda shiziladi. Gorizontal chiziqopqoqlar o'rtasidagi chiziqopqoqlar cho'ntakning ikkala ramkasi kengligiga teng, vertikal chiziqopqoq o'rtasidagi oraliq esa cho'ntak og'zi uzunligiga teng bo'ladi. To'g'ri ramkali qirqma cho'ntak tikishda cho'ntak qirqimini tikishda mo'ljallangan mag'iz ikki bo'lakdan iborat bo'lib, asosiy bezak materiallar tayyorlanadi. Cho'ntak xalta bilan yaxlit bishilgan mag'izning teskarisini ishkarisiga qaratib kant kengligi va 0,5-0,7 sm shok haqi kengligiga teng qilib bukib dazmollanadi. Mag'iz alohida bishilgan bo'lsa, teskarisini ishkariga qaratib uzunasiga ikki bukib dazmollanadi (50-rasm).

Oval shaklidagi qirqma cho'ntakni ham to'g'ri qirqma cho'ntakni kabi tikiladi. Cho'ntak mag'izi asosiy gazlama inining yo'nalishiga  $45^{\circ}$ S burshak ostida bishiladi. Alohida bishib olingan mag'izni teskarisini ishkariga qaratib, uzunasiga ikki bukib dazmollanadi. Asosiy detalidagi belgi chiziqopqoqlar bo'ylab mag'izning qirqimlarining ishkarisiga qaratib detal o'ngiga qo'yib asosiy detal o'ngiga qo'yib asosiy detalga ulanadi. Mag'izni oldin sirma qaviq bilan kuklab olish mumkin.



**50-rasm. Ramkali qirqma cho'ntakka ishlov berish.**

a) murakkab ramkali; b) oddiy ramkali

### Murakkab shakldagi ramkali qirqma cho'ntak tikish.

Murakkab shakldagi qirqma cho'ntakning mag'izi to'g'ri burshakli bo'ladi. Asosiy detal o'ngida cho'ntak o'rni 4 ta chiziqopqoq bilan belgilab olinadi. Cho'ntak og'zining shakli singari belgi chiziqopqoq shakli ham murakkab bo'ladi. Cho'ntak og'zi cho'zilib ketmasligi uchun asosiy detal teskari tomoniga bo'ylama kuklab yoki yonichtirib oladi. YAxlit bichilgan cho'ntak mag'izning o'ngini asosiy detalning o'ngiga qaratib qo'yiladi va biriktirilib tikiladi. Baxya qatorlar orasidagi asosiy material qirqiladi. quma burmali qirqma cho'ntakni tikichdan oldin quyma burma qirqimiga ichlov berib, burma hosil qilinadi. Asosiy detalning o'rniغا burmaning o'ngini yuqoriga qaratib qirqimlarining asosiy detalini cho'ntak qirqimiga tekislab qo'yiladi va bostirib tikiladi. Baxya qatorni cho'ntakni uchi tomon toraytira borib, yo'q qilib yuboriladi.

Molniyali qirqma cho'ntak ham ramkali qirqma cho'ntak kabi tikiladi. Cho'ntak og'zini ramkali qilib tikkandan keyin ramkani teskari tomoniga molniya tasma quyiladi. Asosiy detal o'ngidan mag'iz ulangan chok 0,1- 0,2 sm oraligda baxya qator yuritib molniya ulanadi. Molniyani yuqori tomonini ulachda cho'ntak xaltaning ikkinchi bo'lagi detal teskari tomonidan qo'yilib tikib ketiladi. qolgan onerauiyalar qirqma ramkali cho'ntak tikichdek bajariladi.

### Chokdagi cho'ntakni tikish

Bo'rima choklardagi cho'ntaklar chokning yo'nalishi qandayligiga qarab, vertikal, gorizontal va qiya holatda bo'lishi mumkin. Bu cho'ntaklarni tikayotganda quyidagi talablarga rioya qilinishi kerak (51-rasm)


- kiyish jarayonida u cho'zilib va surilib ketmasligi lozim;
- cho'ntak uchlari pishiq va barqaror bo'lishi uchun cho'ntakning pastki qismi, teskarisi tomondan bo'ylama qo'yib puxtalanadi.

Vertikal bo'rtma chokdagi cho'ntakni tikish, qo'yim qoldirib, bezak baxyaqatorsiz bunday cho'ntak og'zini tikishga quyidagi bo'laklar kerak bo'ladi;

- cho'ntak yuqori qismi uchun 1 ta uqa;
- cho'ntak tagiga qo'yiladigan buylama 1 ta;
- ikki qismdan iborat cho'ntak xalta.

Bo'ylama old bo'lak yon tomonning teskarisiga, cho'ntak og'zini qoplab turadigan qilib qo'yiladi. Surilib ketmasligi uchun u to'g'nab qo'yiladi.

Bo'rtma chok o'ngi tomondan to'g'rilanadi va chok haqlarini old bo'lak oldingi qismi tomonga yo'naltirib maxsus mashinada yotqizib ko'klanadi. Cho'ntak ziyi ko'ndalangiga surilib ketmasligi uchun yashirin baxyaqatorli mashinada yolg'on qaviq bilan puxtalanadi. Cho'ntak xalta va chok teskari tomondan dazmolda yoki pressda ishlov beriladi.



**51-rasm. Chokdagi cho'ntakka ishlov berish**

#### Ishning borishi:

1. Qirqma cho'ntaklarning turlari, ularga ishlov berish usullari va ishni bajarish ketma-ketligi bilan bat afsil tanishish.
2. Qirqma cho'ntaklarga ishlov berish usulini tanlash.
3. Qirqma cho'ntaklarga ishlov berish texnologik kartasini tuzish.
4. Tanlangan usul bilan cho'ntak namunasini tayyorlash.


## AYOLLAR MILLIY KO'YLAK NAMUNALARINI TAYYORLASH

An'anaviy milliy ko'yak gavda qismi to'g'ri siluetli, koketka chizig'i bo'ylab burmali bo'ladi.

Zamonaviy moda yo'nalishi milliy ko'yaklarimizda ham o'z aksini topgan desak adashmaymiz. Kundan kunga milliy ko'yaklarimizning yangi bichimlari, yangi siluetlari ba yangi shakllari yaratilmoqda. Bilamizki milliy ko'yak asosan koketka, qop ba yeng qismlaridan iborat. An'anaviy milliy ko'yak to'g'ri siluetli, koketka chizigi buylab burmali buladi. Old bo'lagida koketka bo'laklari bir – birining ustiga chiqib turishi yoki yaxlit bichilgan bo'lishi mumkin. Yoqali, Yoqasiz bo'ladi. Yoqali bo'lsa Yoqa o'mizi buylab utkazmali, qaytarma Yoqali, tik Yoqali, Yoqa uchlari bog'lanadigan (galstuksimon) bo'lishi mumkin. Yenglari o'tqazma, yarim reglan bichimli, old ba ort bo'lak bilan yaxlit bichilgan bo'lishi mumkin. Yeng bichimlari keng, tor, kapalaksimon, fonarik, burmali ba xakozo bo'lishi mumkin. (52-rasm)

Xozirgi kunda milliy ko'yak bichimlarida juda katta o'zgarishlar ruy bergen. Masalan: Etak kismi kengaytirilib, konussimon shaklda bichilgan ko'yaklar. Bunday qopli ko'yak yengi xam albatta konussimon shaklda bichiladi. Agar konussimon bichimli ko'yakni elastik gazlamadan tikilsa uni etagi ba yeng uchlarini tortib zig-zag usulda qaytarib tikilsa juda chiroyli to'lqinsimon shaklga ega bo'ladi. (53-rasm)

Milliy ko'yak bichimlari bir xil bo'lsa-da, uning Yoqa o'mizlari turlicha uyilishi mumkin. 2,3- rasmlarda to'g'ri bichimli milliy ko'yakni turlicha Yoqa o'mizli koketka turlari tasbirlangan. 4,5,6,7 - rasmlarda esa Yoqa o'mizi va koketka tashqi shakli turlicha bo'lgan milliy ko'yak modellari namunalari ko'rsatilgan.



**52 – rasm. Ayollar milliy kuylining model turlari**

Milliy ko'yaklarimizni burmalar, kесmalar, temsalar, kashta choklar ba munchoq (biserlar)lar bilan bezab tikishi mumkin. Burmalar modelga'binoan asosiy gazlamadan, bezak gazlamadan, kontrast rangli gazlamadan yoki gazlama gullari ranglaridan biri aks etgan sidirg'a gazlamadan bichilgan bo'lishi mumkin. Qo'yida turli bichimdagi ba shakldagi zamonaviy milliy ko'yak namunalarini tabsifini keltiramiz.(54-rasm)



**53- rasm. Munchoqlar bilan bezatilgan milliy ko'yak modellari**



**54 rasm. Bufflar va burmalar bilan bezatilgan milliy ko'yak modellari..**



**55-rasm. Kashta choklar bilan bezatilgan milliy ko'yak modellari**

Agar gazlama elastik, cho'ziluvchan bo'lsa koketka o'tkir burchakli bo'lmasligi kerak. Chunki unga qanchalik qotirmalik gazlama yopishtilmasin, burchaklari egilib chiroyli ko'rinish bermaydi. Qattiq, mustahkam o'rilishdagi gazlamalarga esa qanchalik koketka murakkab bichimda bo'lmasin chiroyli turadi. Bunga misol qilib atlas, adres, beqasam, krep kabi gazlamalarni misol qilish mumkin.

55-rasmida biserlar (munchoqlar) bilan bezatilgan milliy ko'yak modellari ko'rsatilgan bo'lib, bu modellar bichimi yuzasidan bir biriga o'xshasada, bezak ko'rinishlari, Yoha o'mizlari o'yiglarning turli tumanligi bilan fark qiladi. Ushbu modellarimizni yosh kelinlarimizga, o'rta yoshli ayollarimizga tabsiya kilamiz.

53-55-rasmarda esa koketkalari turli bichimda bo'lgan, buf ba bafli choklar bilan bezatilgan milliy ko'yak modellari berilgan. Bu modellar asosan yosh

qizlarimiz, yosh kelinlarimizga mos keladi. Ularni shifon, kreplishin, shoyi kabi gazlamalardan tikish mumkin. Bezak buflarni munchoqlar bilan xam bezash mumkin. Agar ko'ylak kundalikda kiyiladigan bo'lqa, bezak toshlarni kamroq ishlatgan ma'qul.

Xozirgi kunda kashta choklar bilan bezatilgan milliy ko'ylaklarimiz yana urf bo'lmoqda. Ayniqsa kelinlarimiz seplarida kashta choc bilan bezatilgan ko'ylaklarni juda ko'p uchratish mumkin. Kashta choc oralarini biserlar bilan to'ldirib tikilsa kashta choklar yanada chiroyli, ko'rkar va jozibador ko'rinishga ega bo'ladi. 54-55-rasmarda kashta choklar bilan bezatilgan milliy ko'ylak namunalari berilgan.

Milliy ko'ylaklarimizi burmalar, temsalar, ryushlar bilan ham bezab tikish mumkin. Quyma burmali ko'ylaklarni ko'pincha yosh qizlarimiz va kelinchaklarimizga tavsiya qilamiz. Yoshi katta, to'la ga'vdali ayollarimiz esa burmali ko'ylaklarni kiymaganlari ma'qul. Chunki burmalar kishi gavdasini bo'rttirib ko'rsatadi.

Burma turlari ham gazlama turiga qarab turlicha bo'lshi mukin. Undan tashqari xozirgi kunda ko'ylaklar uchun turli tuman tayyor bezak elementlarini dukonlarimizda ko'plab uchratishimiz mumkin. Faqatgina ularni gazlamaga, kishi gavdasi va yoshiga, kiyim turiga qarab tanlashimiz lozim deb o'yaymiz.

Chiroyli kiyinishni har kim ham xohlaydi. Lekin chiroyli kiyinaman degan xotin qizlarimiz me'yorni unutmasliklari, ko'ylak uchun bichim va bezak tanlashda modeler va dizaynerlar maslahatiga rioya qilishlari lozim deb o'yaymiz. Ana shundagina tanlagan kiyimi o'ziga yarashib turishi aniq. Ayniqsa zamonaviy kiyim elementlarini joyida qo'yib ishlatishlari kerak

Klassik o'zbekcha ko'ylak koketkasi asosan ko'ylakning gavda qismiga ulanadigan chizig'i bo'ylab oval shaklida bo'ladi. Old tomonda koketka yaxlit yoki bo'rtli bo'lub, bo'laklari bir-birining ustiga o'tib turadi (56-rasm).

Yoqasi qirqma, Yoqa o'mizi bo'ylab Yoqa qaytarma qismining shakli har xil bo'ladi. Ko'ylak Yoqasiz bo'lshi ham mumkin. Yoqa o'mizining o'yig'i

to'rtburchak, uzaytirilgan, dumaloq oval va h.k. shaklida bo'lishi mumkin (57-rasm).

Hozirgi paytda ayollarning milliy o'zbekcha ko'ylagida ma'lum o'zgarishlar bo'immoqda. Ko'ylik gavda qismining silueti, hajmi va uzunligi qisqarmoqda. Koketka, Yoqa, yenglarning katta-kichikligi va shakliga ko'pgina omillar, shu jumladan moda ta'sir etmoqda




56-rasm. Milliy ko'yarlarda koketka shakllari turlari



57-rasm. Milliy ko'yaklarda bo'yin o'yindilar turlari

Milliy ko'ylik va lozim tikish uchun turli gazlamalar, masalan, (krepdishen, krep-jorjet, atlas, batis, shifon, chit) kabi tabiiy ipak gazlamalar bilan birga zamonaviy materiallar assortimenti (sun'iy shoyi, baxmal, gazlamasimon trikotaj, velyur va boshqalar) ham ishlataladi. Astari esa ko'pincha ip gazlama yoki asosiy gazlamadan bichiladi.

Milliy o'zbekcha ko'ylik va lozim bichim shakli va gazlama xususiyatiga ko'ra O'zbekiston iqlimi sharoitida kiyish uchun juda qulaydir. Bu sifatlar o'zbekcha ko'yakning va lozimning ommaviy bo'lib qolishining asosiy sabablaridir.



### 58-rasm. Milliy ko'yylak va lozimning chizmali ko'rinishi


1-Yoqaga ishvov berish; 2-Yelkaga ishvov berish; 3-Yengga ishvov berish; 4-Etakning yon boshiga ishvov berish; 5-Etakning yuqori qismiga ishvov berish; 6-Manjetga ishvov berish.

Milliy ko'yylakning bo'laklariga ishvov berilgandan keyin, yig'ish, ishlari boshlanadi. Avval adib-astar koketkaga biriktirib, avra va astar o'ngini-o'ngiga qo'yib, bir yo'la Yoqani, Yoqa o'miziga o'tkaziladi. Yoqani Yoqa o'miziga o'rnatilganda kertim berishni unutmaslik kerak. Chunki kertim bergandan so'ng Yoqa koketkada yaxshi yotadi. Kaketka o'ngiga ag'dariladi, bo'rt ziylari qiya qirma qaviqlar bilan ko'lanadi va dazmollanadi. Yoqaga o'rnatilgan kaketka yordamchi andoza yordamida tekshirib olinadi, ortiqcha joylari qirqib tashlanadi. Kaketka etakga yanxhi o'rashishi uchun uning avra va astar kaketkalarining yelka, kaketka ochiq qirqimlari ko'klanadi (58-rasm).

Kaketkaning ochiq qirqimlari etakning yuqori ya'ni burma terilgan qirqimiga ulanadi. Koketkaning etakka ulangan chokini maxsus mashinalarda yo'rmananadi va yotqizib dazmollanadi (59-rasm).

Tayyorlab olingan ko'yylakni yeng o'miziga yeng o'ranatiladi. Yengni o'rnatayotganda to'g'nag'ichlar yordamida kertimlarini to'g'rilib o'mizga to'g'nab chiqiladi. Avval ko'klab tikiladi so'ng mashina chokida biriktiriladi. Biriktirilgan choklar yo'rmananadi, dazmollanadi.

Etak va yeng uchlari bukib mahkamlanadi. Oxirgi ishlov beriladi va NII bajariladiadi.



59-rasm. Milliy ko'yylak bo'laklarini yig'ish

1-Yoqani-Yoqa o'miziga o'rnatish; 2-kaketkani etak yuqori ochiq qirqimiga ularsh; 3-engni-eng o'miziga o'rnatish; 4-engni yashirin qaviq bilan tikish; 5-etakni yashirin qaviq bilan tikish.

## **AYOLLAR YUBKASINING NAMUNASINI TAYYORLASH**

Yubkalar belda turadigan kiyim bo`lib, nimchalar, jaketlar bilan komplekt tarzda yoki mustaqil kiyim sifatida tikiladi.

Yubkalar turli shakl va turli siluetli bo`ladi. siluetiga binoan to`g'ri, konussimon bo`ladi. to`g'ri siluetli yubkalaor o`z navbatida keng va tor tikilgan bo`lishi mumkin. Tor yubka past tomnida kesimli, bitta yoki bir nechta yotqizib dazmollangan taxlamali qilib tikiladi. etagi tomon kengaya borgan Yubkalar klyosh, yarim klyosh, "qo`ng`iroqsimon" bo`lishi mumkin.

Yubkalar birlashtiruvchi choklari binoan quyidagilarga bo`linadi: bir chokli, ikki chokli, to`rt chokli, olti chokli, sakkiz chokli. Yubkalar cho`ntakli, koketkali va turli bezak elementlari bilan tikilishi mumkin. Yubka taqilmalari "molniya" tasmali, ilgaklar va tugmalar bilan qadaladigan bo`ladи. Yubkalarning yuqori qirqimiga ulama belbog`li, qaytarma belbog`li, korsaj lenta qo`yib ishlov berish mumkin. etagi bukma chokli, mag`iz chokli, kungirador, qo`yma burmali, shlkilali qilib tikilishi mumkin. Yubkalar astarsiz va astarli bo`ladi, astarli Yubkalarda astar rangi asosiy material rangiga mos bo`lishi kerak.


### **Yubkani tikish.**

Yubkalarni tikish ishlari tartibi ularning bichilishi bog`liq bo`ladi. To`g`ri bichimli yubkani tikishni vitachkalarga ishlov berishdan boshlanadi. Vitachkalar belgilangan chiziqlar bo`yicha yuqori qirqim pastka qarab tikiladi, choki asta-sekin , tekis yo`q qilib yuboriladi. Model`da mo`ljallanganiga muvofiq vitachkalar yorib yoki bir tomonga yotqizib dazmollanadi. Bir tomonga yotqizib dazmollanadigan vitachkalar detalning o`rta chizig`iga qaratib yotqizilishi kerak. YUbkaning detallari biriktirib tikiladi, choklar maxsus mashinada yo`rmaladi, modelga muvofiq yorib yoki bir tomonga yotqizib dazmollanadi.

### **Yubka taqilmasini tikish.**

YUbka taqilmasi chokda yoki taxlamada bo`ladi. chokdagи "molniya" tasmali taqilmani tikishning bir necha usullari bor. Taqilmaning ikkala tomonini bir xil qilib tikish uchun , yubka choklari biriktirib tikilgandan va yorib

dazmollangandan keyin, "molniya" tasmaningg o'ngi yubkaning teskarisiga qaratilib, dazmollangan taqilma chetlari ustiga qo'yiladi. Avval ko'klab biriktirib olinadi, so'ogra taqilma bukilgan ziylaridan 0,5 sm tashlab bostirib tikiladi (60-rasm).



60-rasm. Yubka taqilmasini tikish

"Molniya" tasmani ko'rinnmaydigan qilib tikish ham mumkin, bunda taqilmaga qo'shimcha tikish haqi beriladi. Tasma taqilayotganda ich kiyimni ilib ketmasligi uchun ehtiyyot ko'rinnma qo'yilsa yaxshi bo'ladi. Ehtiyyot ko'rinnma 8-9 sm kenglikda bichib olinadi, uning uzunligi taqilima uzunligiga mos bo'ladi. Ko'rinnmani teskarisini ichkariga qilib uzunasiga ikki bukib dazmellanadi, yon va past qirqimlari yo'rmaladi. Yubkaning old va ort bo'laklari biriktirilayotganda taqilma qismi tikmay qolidiriladi. Chok yorib dazmellanadi, ayni vaqtida old bo'lakdagagi choc haqib bukib dazmellanadi.


"Molniya" tasmaning bir tomoni yubkaning old bo'lak taqilma choc haqiga bostirib tikiladi, ikkinchi tomoni esa ort bo'lakka ulanadi. Tasamning ustidan ehtiyyot ko'rinnmani ham qo'yib tikiladi, bunda tasma ko'rinnma biloan ort bo'lak orasida qolishi kerak. Old bo'lak taqilmasi ustidan bezak baxyaqator yuritiladi (60-rasm).

"Molniya" tasmani bukish joyidan har xil oraliqda puxtalanadigan qilib tikish ham mumkin. Bu usul kiyimlarni yakka tartibda tikishda ko'p qo'llaniladi. Yubka yon choclariga ishlov berilgandan so'ng, orqa bo'lakning bukib dazmollangan joyi tagiga "molniya" tasmaning o'ng qismi ochilgan holda, taqilma joyining ziyi molniya bo'g'inelariga yopishib turadigan qilib qo'yiladi. Bukilgan ziyan 2-3 mm

oraliqda ko'klab ulanadi. keyin esa chap tomoni ko'klandi, buning uchun "molniya" tasma yopiladi, old bo'lak tomondag'i bukilgan joyi orqa bo'lak tomondag'i bukilgan joyiga taqab qo'yiladi va old bo'lakka "molniya" tasma ko'klab biriktiriladi. O'ng tomondag'i old bo'lakning yuqori qirqimidan boshlab, orqa bo'lakning yuqori qirqimigacha bitta choc bilan bostirib tikiladi (60-rasm).

### **Yubkaning yuqori qirqimiga ishlov berish.**

Yubkaning yuqori qirqimiga modelga qarab ulama belbog' bilan yoki korsaj lenta bilan ishlov berish mumkin.



**61-rasm. Yubkaning yuqori qirqimlariga ishlov berish**


Yubkaning yuqori ziyi teskarisiga yon choclaridan 2 sm oraliqda tayyor holda 0,5 sm kenglikda va 7,0 sm uzunlikda ikkita ilgich puxtalab qo'yilishi kerak. Yuqori qirqimga ishlov berishdan oldin yubkaning tikilish sifati, bel chizig'ining shakli tekshiriladi va yuqori qirqimi bo'ylab o'lchab ko'rildi. Yubka gavdada bemalol turishi uchun, yuqori qirqim uzunligi bel yarim aylanasi o'lchovidan 0,5-1,0 sm ortiqroq bo'lishi kerak.

Yubkaning ulama belbog'i modelga qarab har xil kenglikda bo'ladi. belbog' oskti belbog' bilan yaxlit bichilgan yoki alohida bichilib, bukish chizig' i bo'ylab choc solib tikilgan bo'lishi mumkin. Belbog' uchlari odatdarbir-birining ustiga 3,0-4,0 sm chiqib, qirqma izma bilan tugmalanadigan yoki temir ilgakli bo'lishi mumkin. Belbog'larga bir qavat (faqat ustki belbog' qismiga) yoki ikki qapvat (ustki va ostki belbog'larga yaxlit) qilib elimli qotirma material qo'yildi. Har ikkala holda ham belbog'ning bukish chizig'idan 0,1-0,2 sm masofada ostki belbog' tomonidan bukish chizig'iga parallel baxyaqator yuritiladi. (61-rasm)

Belbog' uchlari ag'darma chok bilan tikiladi, buning uchun o'ng tomonldari bir-biriga qaratib bukiladi va 0,5-0,7 sm chok haqi biolan tikiladi. CHap tomondag'i uchi faqat yon tomonidan tikiladi, o'ng tomondag'i uchi esa yon tomonidan 0,5-0,7 sm va pastki qirqimlari tomonidan 1,0 sm chok haqi bilan 3,0-4,0 sm (o'tim haqi) tikiladi va chok oxiri puxtalanadi. CHokka 0,1-0,2 sm etkazmasdan kertim beriladi (61-rasm).

Ostki belbog' tomondag'i qirqim maxsus mashinada yo'rmaladi. Belbog'ning o'ngini yubka o'ngiga qaratib, yuqori qirqimlariga to'g'rilab qo'yiladi va 0,7-1,0 sm chok haqi bilan tikiladi. Bukish chizig'i bo'ylab bukib, belbog' to'g'rlanadi, chok haqini yuqori tomonga qaratib, ostki belbog' ko'klanadi va yubkaning o'ng tomonidan belbog' ulangan chokning yonidan baxyaqator yuritib puxtalanadi (62-rasm). SHu bilan birga yubka teskari tomonidan yon choklari ustiga ikkita ilgichni uchlarini belbog' ostiga kiritib tikib ketiladi. Belbog' yubka teskari tomonidan, namlangan dazmolmato qo'yib dazmollanadi. Bu usul asosan kiyimlarni yakka tartibda tikishda qo'llaniladi.


Ulama belbog'ni tikishda ostki belbog'ning qirqimi yo'rmalamasdan ichki tomoniga bukib puxtalash ham mumkin, bunda ostki belbog'ning bukilgan ziyi belbog' ulangan chokni 0,2-0,3 sm ga yopib turishi kerak (62-rasm).



**62-rasm. Yubkaning belbog'iga ishlov berish**

Yubkaning ulama belbog'ini boshqa usul bilan ham tikish mumkin. Bunda belbog' ostki belbog' bilan yaxlit bichilib, to'laligicha elimli qotirma material yopishtirilgan bo'ladi.

Belbog'ning bukish chizig'idan 0,1-0,2 sm oraliqda oskti belbog' tomondan bukish chizig'iga parallel ravishda baxyaqator yuritib, qotirma material qo'shimcha puxtalanadi. Belbog'ning o'ngi yubka tesarisiga qaratib qo'yiladi. Pastki taqilmasi ziyidan boshlab ustki taqilma ziyigacha 0,7-1,0 sm chok bilan tikib ulanadi. SHu bilan bir vaqtida ikkinchi ilgak ham tikib ketiladi. Belbog' yubkaning o'ngi tomonga, uning qirqimi ulangan chokdan 1,0 sm oshirib bukiladi va belbog' uchlari 0,5 sm kenglikda ag'darma chok bilan tikiladi. Burchaklarida 0,2-0,3 sm chok haqi qoldirilib, undan ortiqchasi qirqib tashlanadi. Belbog' burchaklari o'ngiga ag'darilib, to'grilanadi. Belbog' ikkinchi qirqimi 0,7 sm bukiladi va belbog' ulangan chokdan 0,2 sm pastroq tushirilib, shu bukilgan ziyidan 0,2 sm masofada bostirib tikiladi (63-rasm). Ayni vaqtida belbog', uning yuqori va yon chetlari bo'y lab ulardan 0,2 sm masofada bostirib tikiladi. Belbog'ning ostki tomoniga temir ilgaklar tikiladi. Ostki taqilma tarafdan belbog' ustiga ipdan izmalar tikiladi.



63-rasm. Yubka yuqori qismiga ishlov berish

Yubka yuqori qismini korsaj lenta bilan ishlanganda, korsaj lentani yubkaga ularshdan avval dekatirovka qilinadi, ya'ni ho'llab va dazmollab olinadi. Bel aylanasi o'lchamiga binoan klrsaj lentaning uzunligi aniqlab olinadi, bunda har ikki uchiga 1,0 sm dan bukish haqi qo'shiladi. Korsaj tasma uchlardidan bukish haqi mashinada tikiladi. Korsaj lentani yubka yuqori qirqimi ustiga, o'ngiga teskarisini qaratib qo'yiladi. 1,0-1,2 sm qirqimni yopib, qo'yma chok bilan tikiladi. korsaj lenta ziyidan chok haqi 0,2 sm. teskari tomondan yubka qirqimi korsaj lentaga iroqisimon yashirin choklar bilan tikib chiqiladi (63-rasm). Keyin korsaj lentani yubka teskari tomoniga bukiladi, bunda yubka qismidan 0,1-0,2 sm kant hosil qilinishi kerak. Model' bo'yicha ko'zda tutilgan bo'lsa, yubkaning yuqori ziyidan qilinishi kerak.

baxyaqator yuritilish mumkin. Korsaj lentaning pastki chetini yubkaning chok haqlari va vitachkalariga qo'lda chatib puxtalab chiqiladi.

Korsaj lentani yubkaga ikki bukib tikish ham mumkin. Buning uchun ham avval korsaj lentani dekatirovka qilib olinadi.

Korsaj lenta uchlari 1,0 sm bukiladi, keyin uzunasiga bir tomoni ikkinchisiga nisbatan 0,3-0,4 sm kengroq qilib bukib dazmollanadi, dazmollanayotgan bukilgan tomoni cho'ziladi. Lentaning ikki uchidagi bukilgan ziyidan 0,2-0,3 sm oraliqda baxyaqator yuritiladi (11-rasm, a). Korsaj lentaning keng tomonini yubka teskarisiga to'g'rilib, yubkaning yuqori qirqimini korsaj tasma orasiga kiritiladi, ko'klab chiqiladi. Lentani tor tomonidan 0,2 sm oraliqda baxyaqator yuritib yubka bostirib tikiladi (11-rasm, b). Korsaj lentani yubkaga bostirib tikish paytida ikkala ilgich uchlari yon choklarda puxtalab ketiladi. Korsaj lentani yubkaning yuqori qirqimi bo'ylib tesakri tomoniga bukiladi va korsaj lenta tomondan namlangan dazmolmato qo'yib dazmollanadi. Yuqori chetida bezak baxyaqator mo'ljallangan bo'lsa, uni o'ng tomonidan yuritiladi.

#### **Yubka orqa bo'lagidagi kesimga ishlov berish.**


Yubkaning orqa bo'lagidagi o'rta chokda (ba'zan yon choklarda ham) ajratib qirqib hosil qilingan ochiq joy kesim deyiladi. Kesim hosil qilish uchun, bichiqda tikish haqi qoldiriladi. Kesimlar kiyim bezagi sifatida ham, kiyimni kiyib yurish qulay bo'lishi uchun ham xizmat qiladi. Kesim ziylari barqaror bo'lishi uchun uning tesakri tomoniga elimli noto'qima material (proklamelin, flizelin)dan bo'ylama qo'yiladi. Ot bo'lakning chap tomonidagi chok haqiga bo'ylama o'rta chiziqqacha yopishtiriladi. O'rta chok tikib, yo'rmalgandan so'ng yorib dazmollanadi. O'ng tomonda chokka 0,1-0,2 sm etkazmay kertim beriladi. O'ng tomonda kesim belgilangan chiziq bo'yicha bukib dazmollanadi va mashinada tikiladi, chap tomonda o'rta chok davomida chok haqi bilan bir chiziqdagi yotqizib dazmollanadi. Yubkaning etak qismi belgilangan chiziq bo'yicha bukib keo'klanadi va dazmollanadi. Orqa bo'lakni o'ngiga ag'darib kesmaning har ikkala tomonini to'grilab, qo'lda ko'klab qo'yiladi, kesimning yuqori qismi chokka

nisbatan  $45^{\circ}$  qiyalikda mashina chok bilan puxtalanadi. Yubkaning pastki qirqimi yashirin qaviq bilan qo'lda yoki maxsus mashinada bukib tikiladi. Kesimning pastki qismi ham etak chok haqiga yashirin qaviqlar bilan chatib qo'yiladi (65-asm).

### **Yubka etagini tikish.**


Yubka etagini bukish uchun burlashda uning old va ort bo'laklari o'rtasidan yukilib, yon choklari, vitachkalari va boshqa simmetrik choklari bir-biri bilan istma-kst keltirilib stolga yoyiladi – bunda yubkaning o'ngi tashqarida, tesakrisi esa ichkarida bo'lishi kerak. Andaza qo'yilib, bukish chiziqlari belgilanadi. (64-asm)

Yubkaning etagi belgilangan chiziq bo'yicha bukib, ochiq qirqimini ichkariga yukib yashirin baxyali maxsus mashinada tikiladi. Yubka tez tililib ketadigang materialdan tikilayotgan bo'lsa uning etak qirqimi avval bir marta bukib-universal nashinada tikib olinadi yoki qirqimga tasma qo'yib tikib olinadi, keyin yashirin baxyali mashinada tikiladi. Yubka ip gazlamadan tikilayotgan bo'lsa, uning etak qirqimi universal mashinada yopiq qirqimli bukma chok bilan tikilish mumkin.



**64-rasm. Yubkaning etak qismiga ishllov berish**

Cho'ziladigan materiallardan tikiladigan Yubkalar shaklini saqlash uchun hamda qalin gazlamalardan tikiladigan qishgi Yubkalarga astar qo'yib tикишса мақсадга мувоғиқ бўлади. Yubka astarini taxlama va burmalar uchun haq tashlamasdan bichiladi. Taxlamali Yubkalarda astar chokini taxlama ostiga to'g'rilab, pastda harakat erkinligi uchun kesim qoldiriladi.



65-rasm. Yubkaning qismlariga ishlov berish


Yubka astarining etagi tayyor holda avra etagining bukish haqi qirqimigacha bo'ladi. yubka astarini avra bilan faqat yuqori qirqimi bo'yicha biriktiriladi. Vitachka va choklar belgilangan chiziqlar bo'yicha tikeladigan. Astarning taqilmaga to'g'ri keladigan choki tikilmasdan ochiq qoldiriladi. O'rta chokda, yurish erkinligi uchun beriladigan kesim joyida, baxyaqator pastga 15-20 sm etmasdan to'xtatiladi, chok yorib dazmollanadi, tikilmagan joyidagi chok haqi ichkarigap 0,3-0,5 sm bukiladi va bukilgan ziyidan 0,1 sm oraliqda mashinada tikeladigan. Astar etak qismi yopiq qirqimli bukma chok bilan universal mashinada yoki siniq baxyali maxsus mashinada tikeladigan.(66-rasm)



**66-rasm. Astarli yubkaga ishlov berish**

Yuqori qirqimi bo'yicha astar bilan avra, astarni avra ichiga teskari tomonlarini bir-biriga qaratib joylab olib, ko'klab chiqiladi. Bunda vitachkalar va choclar mos tushishi kerak. Belbog' bilan yoki korsaj lenta bilan ishlov berilishda astar qo'shilib tikilib ketiladi. Taqilma qismida astarning bukilgan chetlari avraning choc haqiga bostirib tikiladi. (67-rasm)

12



**67-rasm. Astarli yubkaning shlitsasiga ishlov berish**

#### **Nazorat savollari:**

1. Joriy mavsumda Yubkalarning modalari yo'nalishi qanday?
2. Yubkalar konstruktiv jihatdan qanday o'ziga xosliklarga ega?
3. Yubkalarga ishlov berishning umumiyl tekniq shartlari nimalardan iborat?
4. Yubkalarni tikishda asosan qaysi choc turlari ishlataladi va ularni bajarishga qanday talablar qo'yiladi?

## AYOLLAR BLUZKASINING NAMUNALARINI TAYYORLASH

Ayollar kiyimlari assortimentiga: blizkalar, blizka-xalat, blizka-palg'to, blizka-kostyum, sarafan, tunika, bluzka, bluzka-jemper, bluzka-batnik, jilet, blizka, blizka-kombinezon, kombinezon, shimli kostyum, shim, yubka, yubka-shimlar va hokazolar kiradi.

Blizkalar kiyilishiga qarab yelkali kiyimlar turiga kiradi. Ular yaxlit, bel qismidan, bo'ksa va ko'krak qismlaridan qirqma bo'lishi, yengli yoki yengsiz, Yoqali yoki Yoqasiz xolatda uchrashi mumkin. Blizkalar kashtalar, burmalar, to'rlar, tugmalar, tasmalar, taxlamalar va boshqa xil bezaklar bilan bezatilishi mumkin. Ularni turli xil: ip tolali, shoyi, jun, zig'ir tolali hamda sunhiy va sintetik tolali gazlamalardan tikish mumkin. Blizkalarga gazlama tanlashda kiyimning nimaga mo'ljalanganligiga hamda fasliga qarab ehtibor berish kerak, ya'ni kiyimni uylik, kundalik, bashang kiyim ekanligini unutmaslik lozim.


Uylik kiyimlar arzon, ip tolali gazlamalardan tikilgani ma'qul bo'lib, ular keng, qulay bo'lishi, bezaklari mehyorida ishlatilishi kerak.

Kundalik kiyimlar yoz oylarida yengil, yupqa gazlamalardan, yorqin rangda, yengli yoki yengsiz qilib tikilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Qish oylarida esa yumshoq, zich to'qilgan jun tolali, sidirg'a yoki katak, yo'lli, mayda gulli gazlamalardan turli xil fasonlarda uzun yengli, Yoqali yoki bo'yin o'yindisini yopiq qilib Yoqasiz tikish mumkin.

Bashang kiyimlar chiroqli, zarli, gulli yoki sidirg'a gazlamalardan tayyorlanishi mumkin. Bunday kiyimlar juda murakkab fasonlarda bo'lishi, hamda ularga chiroqli bezaklar: kashtalar, burmalar, mayda taxlamalar, sunhiy gullar, belbog'lar ishlatib tikish mumkin. Blizka fasonlarini tanlashda gazlamaning xususiyatlariiga, odam gavdasining tuzilishiga hamda kiyimning vazifasiga qaraladi.


### Model bichimlari

Ayollar bluzkasi yelkali kiyimlar turiga kirib, bluzkani loyihalash xuddi blizkani loyihalash usulidek bajariladi, lekin buyum uzunligida farqi bo'ladi. Agar bluzkani yubka ustidan chiqarib kiyilsa, uning beldan uzunligi 10-15 sm yoki bo'ksadan bir oz uzunroq bo'lishi, bluzkani yubkaning ichiga kirkizib kiyiladigan bo'lsa, bo'ksa chizig'idan 5-7 sm uzoqlikda bluzka uzunligi olinadi. (68-rasm)




**68-rasm. Bluzka fasonlari namunalari**

Bluzka yuqorigacha taqiladigan yoki bortlari qaytarilgan bo'lishi mumkin. Bluzkani bel vitochkalarisiz to'g'ri, ya'ni ko'krak chizig'i bilan bo'ksa chizig'ini birlashtirib to'g'ri va vitochkali qilib loyihalash mumkin. Bluzkani loyihalashda uning taqilmasiga ehtibor berish kerak. Bluzka taqilmasida adipi yaxlit bo'lsa avval uning o'tim haqi 2-3 sm, so'ngra adip haqi  $2,5 \times 2 + 1,5 = 6,5$  sm qo'yilad (69-rasm)





69-rasm. Vitochkalarga ishlov berish



Bluzka taqilmasida adip alohida bo'ssa, o'tim haqi 2-3 sm, so'ngra bort adipini tikish uchun chok haqi 0,5 sm qo'shiladi, ya'ni  $2,5+0,5 = 3$  sm. Bluzka taqilmasida yaxlit plankali ishlatsa, u holda o'tim haqi 2 barobar ko'p olinadi, ya'ni  $2,5 \times 2 + 2 = 7$  sm . (70-rasm)




70-rasm. Bluzka taqilmasiga ishlov berish



30




32




71-rasm. Bluzka Yoqalariga ishllov berish




34



35



38



37



72-rasm. Bluzka yenglariga ishllov berish


## ERKAKLAR KO'YLAGI NAMUNASINI TAYYORLASH

### Erkaklar ko'ylagi taqilmalarini tikish.

Kesimi old bo'lak etagigacha tushadigan ko'y lakning taqilmasini tikish uchun, old bo'lak chap tomoniga qirqimi bukilgan qo'shimcha qatlam qo'yib, maxsus moslamasi bor qo'sh ignali mashinada bostirib tikiladi yoki ag'darma chok bilan universal mashinada tikiladi. Qo'shimcha qatlamning ichki cheti qirqimidan 0,5 sm narida bostirib tikiladi. Old bo'lak o'ng tomonining cheti 0,5 sm bukib, bukilgan ziyanidan 0,1 sm narida universal mashinada tikiladi. Bichilganda old bo'lakning cheti gazlamaning milki joyiga to'g'ri kelgan bo'lsa, uni buklanmaydi.

Qopqoqli taqilma ko'yak etagigacha tushadi bo'lsa ustki qopqoq va old bo'lak qirqimlari maxsus buklagich yordamida bukiladi va qo'sh ignali mashinada bir yo'la ikkita baxyaqator yuritib, bostirib tikiladi. Old bo'lak o'ng tomoniniig ishlov haqi maxsus buklagich yordamida ochiq yoki yopiq qirqimli bukib tikiladi.

Ustki qopqoq old bo'lak bilan yaxlit bichilgan bo'lsa, old bo'lakni maxsus moslama buklagich yordamida qopqoq kengligida bukib, qo'sh ignali mashinada bostirib tikiladi (73-rasm).



73-rasm. Erkaklar ko'ylagi ayrim detallariga ishlov berish

## **Erkaklar ko'ylagini yig'ish**


Erkaklar ko'ylagining ayrim qismlarini tikishda bir tomoniga yelim kukuni yoki elim plynoka qoplangan qo'shimcha qatlam, shuningdek, qotirib turadigan maxsus eritma shimdirlig'an qo'shimcha qatlam ishlatiladi.

Erkaklar ko'ylagini tikishda biriktirma, bostirma, yopiq qirqimli bukma, ag'darma, bo'rtma choklar ishlatiladi.

### **Yoqa tikish va o'tqazish.**

Qaytarma yoki tikayotganda qattiqroq bo'lishi uchun ustki Yoqa bilan ostki Yoqa orasiga ip gazlamadan qo'shimcha qatlam qo'yiladi. YAnada qattiqroq bo'lishi uchun esa shu qo'shimcha qatlam bilan ostki Yoqa orasiga yana bir qavatdan 74-rasmida ko'rsatilgan tarzda qo'shimcha qatlamlar yopishtiriladi. Bu keyingi yopishtirilgai qo'shimcha qatlamlarning chetlari Yoqaning ag'darma chokiga qo'shib tikilmasligi kerak.

Yoqaning qaytarmasi bezak baxyaqatorli bo'lsa, qaytarma detali, uning yo'li yoki gulini to'g'rilib, chetlarini tekislab qirqiladi. Ustki Yoqa bilan ostki Yoqa o'ngi tomonlari ichkariga qaratilib juftlanadi va ustki Yoqa tagiga qo'shimcha qatlam qo'yib, ostki Yoqa tomondan 0,6 sm kenglikda ag'darma choc bilan tikiladi. Burchak joylarda 0,3 sm choc haqi qoldirib, ortiqchasi kesib tashlanadi. Yoqaning o'ngi ag'dariladi. Yoqa uchlari maxsus moslama yordamida to'g'rilanib, modelda mo'ljallangan kenglikda bezak baxyaqator yuritiladi. Yoqaning ikki uchi bir-biriga to'g'ri keltirib bukib, uning pastki qirqimini tekislab qirqiladi.



**74-rasm. Erkaklar ko'ylagi yoqalariga ishlov berish**

Yoqa bezak baxyaqatorsiz tikiladigan bo'lsa (74-rasm), yelim qoplangan qatlam yumshoq qatlam ustiga 0,6 sm qo'yma chok bilan tikiladi.

Bunda baxyaqator yelim qoplangan qatlam ustidan yoqa qaytarmasining ustki qirqimiga parallel tikiladi. Yoqa qaytarmasi yumshoq qo'shimcha qatlam bilan birga ostki yoqa tomondan ag'darma chok bilan tikiladi (75-rasm). Bunda baxyaqator qo'shimcha qatlam qirqimidan 0,6 sm masofada yuritiladi. Keyingi ishlov berishlar bezak baxyaqatorli yoqadagi kabi bo'ladi.

Yoqa uchlari qalin bo'lmasligi uchun, yon tomondagi ag'darma chok ostki yoqa tomonga o'tkaziladi. Bunda yoqa uchlari oldin ag'darma chok bilan tikib olinadi, keyin yoqa uchlarini to'g'rilib olib, qaytarma tomoni ag'darma chok bilan tikiladi.

Yoqa qaytarmasini ko'tarmaga, ko'tarmasini esa yoqa o'miziga o'tkazish (75-rasm) uchun ostki ko'tarmaning pastki qirqimini qo'shimcha qatlam tomonga bukib, ziydan 0,2-0,3 sm kenglikda baxyaqator yuritib, tikib olinadi. Tayyor yoqa qaytarmasini yoqa ko'tarmasining ikki qismi orasiga kertimlarga to'g'rilib quyiladi va yoqa qaytarmasini ko'tarmaga o'tqazib ayni vaqtida ko'tarmaning yon chetlarini ag'darma chok bilan tikiladi. Ko'tarma o'ngiga ag'darilib, choklar to'g'rilanadi. Ustki ko'tarma yoqa o'miziga o'tqaziladi. Chokni ko'tarma tomonga yotqiziladi. Ostki ko'tarmani bukilgan ziyidan 0,1-0,2 sm oraliqda yoqa o'miziga bostirib tikiladi, ayni vaqtida ko'tarmaning yuqori cheti ham bostirib tikiladi.




75-rasm. Erkaklar ko'ylagi yoqalariga ishlov berish

Qaytarmasi bilan ko'tarmasi yaxlit bichilgan yoqa) ag'darma chok bilan tikib

olgandan, keyin qo'shimcha qatlamga yoqa qaytarmasining ko'tarmaga o'tish chizig'i bo'ylab, yoqa uchlariga 3-4 sm etmaydigan qilib, elim uqa qo'yiladi. Bundan keyingi operatsiyalar ko'tarmasi alohida bichilgan yoqadagi kabi bo'ladi.

Ustki yoqa qo'shimcha qatlam bilan birga yoqa o'miziga o'tqaziladi. Ostki yoqaning pastki cheti 0,7 sm bukiladi va ustki yoqa o'tqazilgan chocni yopadigan qilib, bukilgan ziyidan 0,1 sm oraliqda bostirib tikiladi) yoki ustki yoqani ko'tarma qirqimini qo'shimcha qatlam tomonga bukib, ziydan 0,3 sm kenglikda baxyaqator yuritib, tikib olinadi.. Ostki yoqa yoqa o'miziga o'tqaziladi va ustki yoqa ostki yoqa o'tqazilgan chocni yopadigan qilib, bukilgan ziyidan 0,1-0,2 sm oraliqda Yoqa o'miziga bostirib tikiladi.

**Yeng tikish va o'tqazish.** Eng uchi kesimiga yaxlit mag'iz qo'yib (76-rasm), mag'izning ikkala uzina qirqimi maxsus buklagich moslamali mashinada tikiladi. Kesim oxirini eng teskarisidan yoki eng o'ngidan puxtalab qo'yiladi. Ko'yakning yon choclari tikilishidan oldin engni eng o'miziga buklagich moslamasi bor qo'sh ignali mashinada 0,6 sm ichki choc bilan ko'yakning o'ngidan tikiladi. Eng biriktirma choc bilan o'tkazilsa, choc qirqimlari yo'rmab qo'yiladi, choc kengligi esa 0,8 sm bo'ladi.



76-rasm. Manjetni yengga ulash usuli

Ko'yak yon qirqimlari bilan eng qirqimlari 0,4-0,6 sm ichki choc bilan maxsus buklagichi bor, qo'sh ignali. ko'tarma platformali mashinada eng

uchlaridan boshlab biriktirib tikiladi. YOn qirqimlar bilan eng qirqimlari 0,8 sm chok bilan tikilib, qirqimlari yo`rmab qo`yilsa ham bo`ladi. SHundan keyin eng uchları tikiladi.

Yenga manjet qo`yiladigan bo`lsa (76-rasm), ustki manjet bilan ostki manjet, ularning o`ngi ichkariga qaratilib, ustki manjet tomonga qo`sishimcha qatlam qo`yib, ostki manjet tomondan 0,6 sm ag'darma chok bilan tikiladi. Manjetni o`ngiga ag'darib, ikki buklab tepe qirqimlari tekislanadi. Manjetning o`ngi tomonidan tepe qirqimiga 1,5 sm etkazmay bezak baxyaqator yuritiladi.

Yeng uchiga ostki manjet qo`sishimcha qatlam bilan birlashtirilib, eng uchida modelga muvofiq tahlamalar yoki burmalar hosil qilinishi mumkin. Ustki manjet o`ng tomonidan qirqimi ichkariga bukilib, ostki manjet ulangan chokni yopadigan qilib bostirib tikiladi.

Manjetni ag'darma chok bilan tikishdan oldin, ustki manjetni teskari tomoniga qo`sishimcha qatlam qo`yib, manjet yuqori qirqimini 0,5-0,7 sm kenglikda qatlam tomonga bukiladi. Bukiqan ziydan 0,3-0,4 sm oraliqda baxyaqator yuritib, tikib olinadi (9-rasm). Keyin ustki va ostki manjetni ular o`ngini ichkariga qaratib ag'darma chok bilan tikiladi. Manjet burchak laridagi ortiqcha chok haqi qirqib tashlanadi va manjet o`ngiga ag'dariladi. Burchaklari to`g'rilanadi va dazmollanadi. Ostki manjet engga ulanadi. Ustki manjet ostki manjet ulangan chokni yopadigan qilib, bukiqan ziydan 0,1-0,2 sm oraliqda engga bostirib tikiladi.

#### Nazora savollari:

1. Joriy mavsumda erkaklar ko`ylagilarning modalari yo`nalishi qandayq
2. Erkaklar ko`ylagilar konstruktiv jihatdan qanday o`ziga xosliklarga ega?
3. Erkaklar ko`ylagilarga ishlov berishning umumiy texnik shartlari nimalardan iborat?
4. Erkaklar ko`ylagilarni tikishda asosan qaysi chok turlari ishlataladi va ularni bajarishga qanday talablar qo`yiladi?

## O'G'IL BOLALAR SHORTIGINING NAMUNASINI TAYYORLASH

O'g'il bolalar shortiklari hozirgi kunda universal kiyim-kechaklardan biri bo'lib, ularsiz o'g'il yoki qizni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu jismoniy tarbiya yoki sport formasining bir qismi va kundalik kiyimning elementi va uy garderobining bir qismi ham bo'lishi mumkin.

Shortilar - bu juda keng, gavdada bemalol turishi bilan ajralib turadigan kiyimlar. Ular har qanday yoshga to'g'ri keladi va sevib kiyiladi - tug'ilishdan to keksa yoshgacha kiyiladi. Ular uy va ko'cha, bolalar bog'chasi va maktab uchun universal tarzda mos keladi. Ular yoz, bahor-kuzgi mavsumda va hatto qishda ham bemalol kiyilishi mumkin.

Bugungi kunda sotuvda turli xil modellarni topish mumkin. Bélida elastik lentali shortilar maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarga mos keladi. Kalta shimplarda cho'ntaklar - barcha o'g'il bolalar va erkaklar kiyimining eng muhim detallaridan biri hisoblanadi. Shortilar futbolkalar va ko'yylaklar bilan mos keladi.

O'g'il bolalarning yoshi qanchalik kichik bo'lsa, shortikning uzunligi shuncha kalta bo'ladi. Bolalar kiyimlari ishlab chiqaruvchilari ko'pincha tizzadan yuqori bo'lgan shortilarini taklif qilishadi. Shortilar turli materiallardan tayyorlanadi. Material esa tanlangan fasoniga, kiyilish vazifasiga va hududning iqlim sharoitiga bog'liq. Shortilar bitta materialdan yoki bir vaqtning o'zida bir nechta kombinatsiyadan tayyorlanishi mumkin, ular charm qo'shimchalar, aplikatsiyalar va boshqalar bilan bezatilgan bo'lishi mumkin. Shortilarda qo'shimcha elementlar bo'lishi mumkin: cho'ntaklar, kamar, koketkalar.

Klassik shortilar odatda oddiy dizaynga ega bo'lib, tekis bichilgan. cho'ntaklar, kamarga ega. Uzun tekis shortilar bridji deb ataladi. Poliamid va laykradan tikilgan tizzagacha yoki biroz balandroq tor shimplar velosiped shimplari deb ataladi. Ular velosiped haydash uchun maxsus ishlab chiqilgan.

Tasmali shortilarning eng zamonaviy va mashhur uslublaridan biri bu kombinezon-shortilardir. Bunday modelni ko'pincha yosh bolalar va o'smir qizlarda ko'rish mumkin.

Shortilar turli uzunliklarga ega bo'lishi mumkin. Juda kalta yoki mini-shortilar, o'rta uzunlikdagi modellar yoki Bermuda shortilari, uzun shortilar, ular ko'proq kalta shimga o'xshaydi (77-rasm).

O'g'il bolalar kalta shimplari bichig'ida klassik elementlari - yon va odim choklari, bel chizig'ida qirqma belbog'i borligi, shimming pocha tomoni bir oz kengaytirilganligi bilan ajralib turadi. Alovida kiyiladigan shimplar bichig'i juda xilma-xil bo'lishi mumkin: vertikal yoki gorizontal yo'nalgan choklari bor, tizza chizig'i shakldor, gavdaga tarang yopishib turadigan, koketkali bo'lishi mumkin. Yonlari yo'rma chok bilan bostirib tikilgan, kashta tikilgan yoki shim pochasiga kesimi bo'lishi mumkin. Molniyasi oldida yoki yon chokida bo'lishi mumkin. Shimming yuqori qirqimiga tarang qilib belbog' ulanadi, ba'zan korsaj tasma qo'yiladi. Shimda turli cho'ntaklar tikilishi mumkin, shim pochasi manjetsiz bo'ladi (77-rasm).




77-rasm. O'g'il bolalar uchun kalta shimplar namunalarini

Kalta shim qaerda kiyilishi va modaning yo'nalishiga qarab tikiladi. Uning old bo'lagi yaxlit yoki vitochka taxlamalardan iborat bo'lishi mumkin. Bu vitochkalarda albatta ishlov beriladi. Ort bo'laklarda yuqori qirqimidan yo'nalgan bitta yoki ikkita vitochka bo'lishi mumkin. Bu vitochkalar soni shim konstruktsiyasiga, buyurtmachi gavdasiga bog'liq bo'ladi.

Kalta shim bo'laklariga namlab isitib ishlov berish uning konstruktsiyasiga materialning tolasiga bog'liq bo'ladi, bu ish bichiqni belgilaydi. Buyurtmachining

gavdasiga mos shakl berish uchun shim old va ort bo'laklariga namlab isitib ishlov beriladi.



78-rasm. Kalta shim bichiqlari


Keyingi vaqlarda shimning shakliga konstruktiv o'zgarishlar kiritilgan (78-rasm), lekin ko'p konstruktsiyalarda odim qirqimi, yuqori qismi, ort bo'lak o'rta qirqimi cho'zib dazmollangan.

Namlab-isitib ishlov berish mumkin bo'lgan materiallardan tikiladigan klassik bichimli kalta shimplarga quyidagi tartibda ishlov beriladi.

Tizza chizig'idan boshlab, yon va odim qirqimlari shim pocha qirqimigacha cho'zib, old bo'lak o'rta chizig'ida hosil bo'lgan salqi kirishtirib dazmollanadi. Bunday namlab isitib ishlov berish shimning tizzadan pastki joyida shim bir oz qayirib turishi uchun bajariladi. Shimdan keyin old bo'lakning ikkinchi tomoniga aylantirib, shu operatsiyalar qaytarib bajariladi.

Shimning balansi asosan odim qirqimlarini qanday tikilganiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun ularni biriktirishga katta ahamiyat beriladi.


Odim qirqimlarini biriktirishdan oldin shim bo'laklari stol ustiga yoziladi va old bo'lak bilan ort bo'lak odim qirqimlarini tutashtirib, qirqimlar uzunligini tekshirib, nazorat belgilari qo'yiladi (79-rasm).



**79-rasm. O'g'il bolalar kalta shimining chizmali ko'rinishi.**

1-belbog' ishlaniши; 2-yon, odim, о'рта qирғимларни тикиш; 3-yon cho'ntak ishlaniши; 4-planka ishlash.



Shortilarни тикишда avval orqa va old detallariga ishlov berish kerak. Old qismlarida esa cho'ntak tayyorlanib tikib olinadi. Cho'ntak og'zini teskari tomonidan qotirma yopishsirish kerak cho'zilib ketmasligi uchun (80-rasm).



**80-rasm. Cho'ntakka ishlov berish.** a- detal bichiqlari; b va c – cho'ntak qopi

Cho'ntak og'zini cho'ntak qopi bilan biriktirilib, og'darma chok bilan ishlov beriladi. Cho'ntak qopining ikkala tomonini ham bir biriga moslab to'g'rilanib, ilgaklar bilan mahkamlanadi va 10-12 mm chok bilan tikiladi (80-rasm).

**«O'g'il bolalar kalta shimining mayda bo'laklarini tayyorlash va yig'ish»  
bo'yicha texnologik xarita**

Texnologiya asosida faoliyat turlari	Tavsiya etiladigan moslama va uskunalar	Chizma	Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi
I	II	III	IV
<b>I. Old bo'lakka ishllov berish</b>			
1.1. Old bo'lak qirqimlarini yo'rmalash	MM		Kalta shim yon qirqimini, odim qirqimini va og' qirqimlarini maxsus mashina yordamida yo'rmalanadi.
1.2. Old bo'lak o'rta chizig'ini chiqarib dazmollash	Dazmol		Kalta shim old bo'laklarining o'ngini ichkariga qaratib, qirqimlarini to'g'rilab, shim etak qirqimini o'ng tomonga, yon qirqimini ichkariga qaratib qo'yiladi, yon va odim qirqimlarini shimming etak qirqimigacha cho'zib, old bo'lak o'rta chizig'ida hosil bo'lgan salqi kirishtirib dazmellanadi.
1.3. Ort bo'lak yon qirqimdag'i cho'ntakni belgilash	Qaychi		Old bo'lak yon qirqimdag'i qirqma cho'ntakning o'rnnini belgilab va belgilangan joydan 0.5 sm qaychida kertim qo'yamiz.
1.4. Old bo'lak yon qirqimdag'i cho'ntak o'miga yelimli qotirma yopishtirish	Dazmol		Yelimli tasmani yon qirqimdag'i cho'ntakka kertim qo'yilgan joyga yelimli tasmani qo'yib dazmellanadi.

1.5. Old bo'lak yon qirqimidagi cho'ntakka cho'ntak xaltani qo'yib ko'klash	Ignat, ip		Cho'ntak teskarisini xaltaning cho'ntak belgilangan o'rniiga, teskarbel qismiga, yon qirqimiga tekislab belgilangan chiziqdan 1.0 sm kenglikda ko'klandi.
1.6. Old bo'lak yon qirqimidagi cho'ntakka bezak baxyaqator tikish	UM		Yaxlit bichilgan mag'iz cho'ntak xalta tomonga buklab ko'klandi va mashinada bezak baxyaqator yuritiladi, yaxlit bichilgan mag'iz cho'ntak xaltaga qirqimdan 0.3-0.4 sm kenglikda bostirib tikiladi.
1.7. Old bo'lak yon qirqimdag'i cho'ntak xaltaga ko'rinnmani bostirib tikish	UM		Cho'ntak xaltaning va ko'rinnmaning tepe va yon qirqimlarini tekislab, ko'rinnmaning 0.5-0.7 sm ichki qirqimini buklab cho'ntak xaltaga buklangan joydan 0.1-0.2 sm bostirib tikiladi.
1.8. Old bo'lak yon qirqimdag'i qirqma cho'ntakni cho'ntak xalta bo'laklariga birlashtirib tikish.	UM		Old bo'lak kalta shimni cho'ntak xalta ko'rinnmasiga qo'yib, cho'ntak xaltaning bel qirqimi, yon qirqimi va etak qirqimlari tekislanadi. 1.0-1.5 sm chok haqqi qo'yib to'g'rilib, biriktirib tikiladi. Cho'ntak boshi va oxiri puxtalanadi.
1.9. Cho'ntak xaltaning qirqimlarini yo'rmalash.	MM		Cho'ntak xaltaning qirqimlari maxsus mashina yordamida yo'rmalanadi.

1.10. Old bo'lak yon qirqimdag'i qirqma cho'ntakni dazmollash	Dazmol		Old bo'lak yon qirqimdag'i qirqma cho'ntakni nam mato orqali dazmolda teskarli tomondon dazmollanadi.
---	--------	--	---



### II. Ort bo'lakka ishlov berish

2.1. Ort bo'lak qirqimlarini yo'rmalash.	MM		Ort bo'lak yon qirqimini, odim qirqimini, og' qirqimini o'ngidan maxsus mashina yordamida yo'rmalanadi.
2.2. Ort bo'lakka namlab isitib ishlov berish	Dazmol		Ort bo'laklarni uzunasiga ikki bukib, yon va odim qirqimlarini etak qismidan boshlab bir biriga to'g'ri keltirib, ziy torionidagi salqi egri chiziq hosil bo'lguncha kirishdirib dazmollanadi.



### III. Kalta shim etagiga ishlov berish

3.1. Kalta shim etagiga planka tikish	UM		Kalta shim etak qirqimiga plankani o'ngini o'ngiga qilib 0.5 sm kenglikda biriktirib tikiladi.
3.2. Kalta shim plankasini dazmollash	Dazmol		Biriktirib tikilgan chok orasini yorib, nam mato orqali dazmollanadi.
3.3. Kalta shim plankasiga bezak baxyaqator yuritish.	UM		Plankadan kalta shimga ziy chiqarib ziydan 0.5 sm kenglikda bezak baxyaqator yuritiladi. Planka tepe qirqimini 0.7 sm ichkariga buklab ziydan 0.5 sm masofada bostirib tikiladi.


#### *IV. Yon qirqimlariga ishllov berish*

4.1. Yon qirqimlarini biriktirib tikish.	Ignal, ip		Kalta shim old va ort bo'laklarining o'ngini ichkariga qaratib, yon qirqimlarini to'g'rilib, tekislab kertimlarni bir-biriga to'g'ri keltirib, salqi hosil qilmay, kalta shim old bo'lagi tomondan yirikligi 1.0 sm to'g'ri sirma qaviq bilan biriktirib ko'klandi, chok haqqi 0.9 sm bo'ladi.
4.2. Yon qirqimlarni biriktirib tikish	UM		Yon qirqimlar ko'klangan tomondan biriktirib tikiladi, baxyaqator biriktirib ko'klangan baxyaqatordan 0.1 sm oraliqda yuritiladi. Ko'klangan iplar olib tashlanadi.
4.3. Yon qirqimlarni dazmollash	Dazmol		Yon qirqimdagagi choklarni nam mato orqali orasi yorib dazmollanadi.


#### *V. Odim qirqimlariga ishllov berish*







5.1. Odim qirqimlarini biriktirib ko'klassh	Ignal, ip		Kalta shim old va ort bo'laklarining o'ngini ichkariga qaratib, qirqimlarni to'g'rilib, tekislav nazorat belgilarini bir-biriga to'g'ri keltirib, to'g'nog'ich to'g'nab old bo'lak tomondan ko'klandi.
5.2. Odim qirqimlarni biriktirib tikish	UM		Odim qirqimlari biriktirib ko'klangan tomondan, qaviqqatordan 0.1 sm oraliqda baxyaqator yuritib biriktirib tikiladi. Keyin ko'klangan iplar olib tashlanadi.

## VI. Kalta shim o'rta og' qirqimlariga ishlov berish

6.1. Kalta shim bo'laklarining o'rta og' qirqimlarini biriktirib ko'klash.	Ignat, ip		Kalta shim bo'laklarining o'ngini ichkariga qaratib, odim choclarini va ort bo'lak choclarini bir-biriga to'g'ri keltirib, o'rta qirqimlari chap tomondan to'g'ri sirma qaviqda ko'klandi.
6.2. Kalta shim o'rta og' qirqimlarini biriktirib tikish	UM		Kalta shim o'rta og' qirqimlari ko'klangan tomondan biriktirib tikiladi, baxyaqator qaviqqatordan 0.1 sm oraliqda yuritiladi. Biriktirib tikishda oralig'i 0.1 sm bo'lgan ikkita baxyaqator yuritib va chocni cho'zib turib tikiladi.
6.3. Kalta shim o'rta qirqimini dazmollash	Dazmol		Kalta shim o'rta chocini maxsus taxta qolip ustida, oldin namlab keyin choc orasini yorib dazmollanadi.
6.4. Kalta shim old o'rta qirqimda bezak taqilma baxyaqatorini yuritish.	Universal mashina.		Kalta shim old o'rta qirqim chocida bezak baxyaqatori model bo'yicha yuritiladi.

## VII. Kalta shimming yuqori qirqimiga ishlov berish

7.1. Belbog' yon tomonini biriktirib tikish	UM		Belbog' o'ngi ichkariga qaratib yon tomoni 0.7 sm choc haqqi kenglikda biriktirib tikiladi. Rezina uchun ozgina ochiq joy qoldirib choclar boshi va oxiri puxtalanadi.
---	----	---	--

7.2. Belbog' yon tomon chokining orasini yorib dazmollash	Dazmol		Belbog' yon tomon choklarining orasini ochib teskari tomondan namlangan mato orqali dazmollanadi.
7.3. Belbog' o'rtaidan baxyaqator yuritish.	UM		Belbog'ni o'rtaidan 2 qator rezinka o'tkazish uchun baxyaqator yuritiladi.
7.4. Belbog'ni kalta shimga ko'klassh	Ignal, ip		Kalta shim bel qismiga belbog'ni o'ngini o'ngiga qo'yib, belbog' choklarini kalta shim yon chokiga to'g'nog'ich to'g'nab, qirqimlari tekislanib, ko'klanadi. To'g'nog'ich olib tashlanadi.
7.5. Belbog'ni kalta shimga biriktirib tikish	UM		Belbog'ni kalta shimga ko'klangan tomondan 1.0 sm choc haqqi bilan biriktirib tikiladi.
7.6. Kalta shim belbog'ini dazmollash	Dazmol		Belbog' qirqimlarini kalta shimga qaratib nam mato orqali dazmollanadi.
7.7. Kalta shim belbog'ini yo'rmalash	MM		Belbog' qirqimlarini maxsus mashina yordamida ziydan yo'rmalanadi.

### VIII. Kalta shimga so'ngi NII berish

8.1. Kalta shimni pardozlash	Qaychi		Kalta shim bo'linganidan tikib keyin ortiqcha iplar qirqib tashlanadi, o'ngidagi bo'rlangan chiziqlar o'chirib tashlanadi.
8.2. Tayyor kalta shimga so'ngi NII berish	Dazmol		Kalta shimni dazmollahda maxsus qolip va dazmol mato ishlataladi. Kalta shimming hamma choklari nam mato orqali dazmollanadi.

#### Nazorat savollar:

1. Joriy mavsumda o'g'il bolalar shortigi moda yo`nalishi qanday?
2. Shortilar konstruktiv jihatdan qanday o`ziga xosliklarga ega?
3. Shortilarga ishlov berishning umumiyl teknik shartlari nimalardan iborat?
4. Shortilarni tikishda asosan qaysi chok turlari ishlataladi va ularni bajarishga qanday talablar qo'yiladi?


## ERKAKLAR SHIMINING NAMUNASINI TAYYORLASH

Shimlar fasoniga ko'ra turli-tuman bo'ladi. moda yo`nalishi o`zgarishiga qarab shimlar to`g'ri, pastki qismiga qarab kengaygan yoki toraygan, yaxlit bo`lakli yoki ikki qismga ko`ndalangiga bo`lingan bo`lishi mumkin. Shimlarning yuqori qirqimi turli kenglikdagilama belbog'lar, belbog'i bilan yaxlit bichilgan yoki belbog'siz ishlov beriladi. Shim taqilmasi tugma va petlyalar bilan yoki maxsus "molniya" tasma bilan ishlanadi. Shimning pochasi bir qavatli yoki bir yarim qavatli manjetlar bilan, manjetsiz ishlov berilishi mumkin. Shimning yon choklari yorib dazmollanadi, ba`zan fasonga muvofiq bir tomonga yotqizib bostirilgan yoki yoki yorma bostirma chok bilan tikilishi ham mumkin.


### Shimning old va orqa bo`laklariga ishlov berish.

Shim old va orqa bo`laklarini yon va odim qirqimlari, ort bo`lak o`rta qirqimi maxsus mashinada yo`rmaladi.

Shimga ishlov berishni orqa bo`la ulorg'ini va agar fason mo`ljallangan bo`lsa koketkalarni biriktirishdan boshlanadi, keyin vitachkalar tikiladi. Vitachkalar o`rtasidagi belgi chiziq bo`ylab bukiladi va chetidagi belgi chiziqlar bo`ylab tikiladi. Vitachkaning choki uning uchiga borib tekis yo`q qilib yuboriladi. Taxlama-vitachkaning biriktirma choki esa old bo`lak yuqori qirqimidan 5-6 sm masofada ko`ndalangiga ikkita qaytma baxyaqator yuritib puxtalanadi. Vitachka va taxlama vitachkaning choklari modelga muvofiq bir tomonga yotqizib dazmollanadi, vitachka uchidagi solqi kirishtirib dazmollanadi. Shim old bo`lagi astarining paskti qirqimi maxsus mashinada yo`rmaladi. Old bo`lak avrasining teskarisiga astar qo'yib, u yuqori va yon qirqimlaridan 2,5 sm masofada ko`klab chiqiladi, ko`klanayotganda vitachka va taxlama vitachkalar joyida astar bukib qo'yiladi, astarning taqilmadan past tomondagi qismi avraga nisbatan 0,5 sm torroq bo`ladi. Old bo`lak qirqimlari astar bilan qo'shib yo`rmaladi (81-rasm).



81-rasm. Shimda vitochkalarga ishlov berish




**82-rasm. Shim old-ort qismlariga ishlov berish**

Konstruktsiyasida ort bo'laklar namlab-isitib ishlanishi mo'ljallangan bo'lsa, ular o'ngi ichkariga qaratib juftlanib stol ustiga odim qirqimlari dazmollanayotgan ishchi tomonga qaratib qo'yiladi. Odim qirqimlari 2-2,5 sm gacha cho'zib, hosil bo'lgan solqilik ort bo'lak kengligining o'rtafigacha dazmollab kirishтирiladi. Ikkala ort bo'lak bir xilda chiqishi uchun ikkinchi ort bo'lak tomondan yana shunday cho'ziladi va kirishтирib dazmollanadi. Keyin ort bo'laklar uzil-kesil kerakli shaklga kiritiladi. Buning uchun ularning har qaysisi alohida o'ngini ichkariga qilib va yon qirqimi odim qirqimi ustiga to'g'ri keltirib buklangan. Ort bo'lak buklangagn ziyi bo'ylab dazmollanadi va buklangan ziy yuqori qismida hosil bo'lan solqi kirishтирib dazmollanadi (82-rasm).

#### **Shim taqilmasiga ishlov berish.**

Taqilmaga ishlov berishda dastab gul'sik (tugma solinadigan joyi) va tugma joyi (tugmalar chatiladigan joyi) tikiladi.

Agar gul'sik ham, tugma joyi ham ikki qismdan iborat bichilgan bo'lsa, ularning qismlari 0,7 sm kenglikda biriktirilib tikiladi va chocklar yorib dazmollanadi. Tugma joyi va gul'sik pishiqroq bo'lishi uchun ularga elimli qotirma material yopishtiriladi. Qotirmalgi tugma joyi va astar o'ngini ichkariga qaratib juftlanadi va tugma joyining tashqi qirqimi bo'ylab 0,5 sm kenglikda ag'darma choc bilan tikiladi. Bu chocning pastki burchagi qirqlib, tugma joy o'ngiga ag'dariladi. uning ziylari to'g'rilanadit va tugma joy avrasidan 0,1-0,2 sm kant hosil qilib dazmollanadi. Tugma joyi astarining ichki qirqimini maxsus mashinada yo'rmab qo'yish mumkin (83-rasm).



**83-rasm. Shim taqilmasiga ishlov berish**

Gul'fik astari bilan o'ngini ichkariga qilib juftlanadi va 0,5 sm ag'darma chok solib astarining tashqi qirqimi bo'ylab tikiladi. Gul'fik o'ngiga ag'darilib, choki to'g'rilanadi va avrasidan 0,15 sm kant hosil qilib, ziyidan 0,2 sm masofada astar tomondan baxyaqator yuritiladi. Gul'fikka andazani qo'yib, izma joylari belgilanadi va maxsus mashinada izmalar o'rni yo'rmaladi, bunda izmalar gul'fik chetidan 1,0 sm ichkarida bo'lishi kerak. Tayyor gul'fik taqilma astari uning ziyiga 0,5 sm etkazmay qo'yiladi va gul'fik bilan taqilma astarining ichki qirqimlari birga qo'shib yo'rmaladi (83-rasm).

Chap old bo'lak taqilmasining cheti cho'zilib ketmasligi uchun unga elim uqa yopishtiriladi. Chap old bo'lak taqilma qismiga astar qo'yib, cheti kenrtimdan yuqori qirqimgacha 0,5 sm ag'darma chok bilan tikiladi. Taqilma cheti avradan 0,3-0,4 sm kant hosil qilinib, bukib dazmollanadi. Old bo'lak taqilma qismi astarning ustiga uning bukib dazmollangan ziyidan 0,2 sm narida gul'fik qo'yiladi va u shu astarga universal mashinada izmalar oralig'ida uzunligi 0,7-1,0 sm ikkita yoki uchta qaytma baxyaqator yuritib, bostirib tikiladi.

Old bo'lakni bukib dazmollangan ziyi bo'ylab gul'fik teskari tomonga qaytariladi-da, belgi chiziq bo'ylab bostirib tikiladi. Tugma joyi shimning old bo'lagiga kertimdan yuqori qirqimgacha 0,7 sm kenglikdagi chok solib ulanadi. CHok bir tomonga yotqizib yoki yorib dazmollanadi. Tugma joy astari tugma joy ulangan chokdan 0,1 sm narida shim old bo'lagi o'ngidan baxyaqator yuritib ulanadi.

Taqilmaga "molniya" tasma qo'yib tikishda tugma joyiga qotirma qo'yilmaydi, gul'fik o'ngiga asosiy gazlamadan adip qo'yiladi.

Tugma joyiga astar qo'yib tashqi qirqimi ag'darma chok bilan tikiladi. Detal' o'ngiga ag'darilib, asosiy detaldan 0,2 sm kant hosil qilib dazmollanadi. Tugma joyini ichki qirqim tomonga "molniya" tasmaning bir tomonini qo'yib, astar, avra va tasma qirqimlari yo'rmaladi.

Keyin tugma joyi "molniya" tasma bilan birga shim old bo'lagining o'ng tomoniga biriktirib tikiladi. Chok haqi asosiy detal' tomonga yotqizib dazmullanadi-da, o'ngi tomonidan bostirib tikiladi.

Old bo'lak adipining ichki qirqimi maxsus mashinada yo'rmaladi. Adipning o'ngiga belgilangan chiziq bo'lab "molniya" tasmaning ikkinchi tomoni qo'yib bostirib tikiladi. Bunda baxyaqator tasma chetidan 0,2 sm oraliqda yuritiladi.

Shim old bo'lagining chap tomonidagi taqilma joyiga adipni qo'yib, uqa bilan birga ag'darma chok solib tikiladi. Adipni shim teskarisiga ag'darib, asosiy detaldan 0,2 sm kant hosil qilib dazmullanadi va belgilangan chiziq bo'lab taqilmaning o'ngidan baxyaqator yuritiladi.

### **Shimning yuqori qirqimiga ishlov berish.**

Shimning belbog'i ulama bo'lsa, unga ip yoki ipak gazlamadan qotirmali astar qo'yiladi. Astar o'rniga maxsus tasma qo'yisa ham bo'ladi. belbog' shimning old va ort bo'laklariga bir ignali yoki qo'sh ignali amshinada ulanishi mumkin.

Belbog' bir ignali mashinada ulanadigan bo'lsa, oldin belbog' astariga qotirma qo'yib olib, belbog' avrasi shimga ulangandan keyin qotirmali astar belbog' avrasiga qotirma qo'yib, shimga ulab, keyin astari ulanadi (84-rasm).

Belbog' astariga oldin qotirma qo'yib olinadigan bo'lsa, belbog' ni shim yuqori qirqimiga belbog' tomonidan 1 sm li chok solib ulanadi. Model'da kamartutkichlar mo'ljallangan bo'lsa, ularning o'ngini shim old bo'lagi o'ngiga qaratib qo'yiladi, belbog' ulanayotganda qo'yib tikiladi. Belbog' ulangan chok yorib dazmullanadi. Kamartutkichlar 0,3-0,4 sm bo'shroq qoldirilib, ularning yuqori uchi belbog' yuqori qirqimiga tikiladi.

Cho'ntakxaltaga to'g'rilanib, belbog' ulangan chokka qo'lda yoki maxsus mashinada ko'klanadi. belbog' va tugma joyi ulangan choklardan 0,5 sm masofada yuritiladi. Shu bilan birga orqa va yon cho'ntakxaltalarining yuqori qirqimlari ham shim avrasiga ko'klab ketiladi. Shim bo'laklarining o'ng tomonidan belbog' ulangan chokdan 0,1 sm masofada bostirma chok tikiladi.


Belbog' avrasiga qotirma chok qo'yib ishlanadigan bo'lsa, elimli qotirma belbog' qismiga to'liq qo'yiladi. Belbog' avrasi shim tagiga yuqori qirqimlari to'grilanib, o'ng tomonlari ichkariga qaratib qo'yiladi. SHimning teskariligi tomoni ustiga belbog' astari, uning o'ngini pastka qaratib qo'yiladi. Bk uchchala detalning qirqimlari bir-biriga to'g'rilanib, 0,8-1,0 sm oraliqda belbog' astari tomonidan baxyaqator yuritib tikiladi. Belbog' avrasi va astari qayirib tekislanadi va belbog' ulangan chok yoniga baxyaqator yuritiladi. Belbog' avrasi bilan astari yuqori chetlari ichkari tomonga 0,7 sm bukib ko'klab olinadi. so'ngra bukilgan ziyidan belbog' astari o'rniga maxsus 0,1-0,2 sm masofada baxyaqator yuritib tikiladi. belbog' astari o'rniga maxsus tasma (korsaj lenta) qo'yiladigan bo'lsa oldin belbog' avrasi ulab olinib, hosil bo'lgan chok belbog' tomonga yotqizib dazmullanadi. Belbog' yuqori qirqimi

ustiga 1,0 sm o'tqizib tasma qo'yiladi va qo'yma chok bilan tasma ziyan 0,1-0,2 sm oraliqda tikiladi. Belbog'yuqori qismidan 0,1-0,2 sm kant hosil qilib tasma shimning teskari tomoniga bukiladi. Tasmaning pastki cheti belbog' ulangan chok ustidan yoki 0,1 sm oraliqda baxyaqator yuritib tikiladi. belbog' chetlaridan bezak baxyaqator yuritilishi mo'ljallangan bo'lsa tasmani tikish boshqa usulda amalga oshirilishi mumkin. Oldin belbog' avrasi shimga olinib, hosil bo'lgan chok belbog' tomonga yotqizib dazmullanadi. Belbog' qirqimi teskari tomoniga 0,7 sm bukilib, uning ustiga tasma qo'yiladi, belbog' avrasidan 0,1-0,2 sm kant hosil qilib, tasmaning yuqori cheti bo'ylab bostirib tikiladi. Tasmaning pastki cheti esa belbog' ulangan chok ustiga bezak baxyaqator yuritayotganda tikib ketiladi. yuritayotganda tikib ketiladi. belbog'lar astar bilanishlov berilganda, belbog' astarining chok tomoniga belbog' uchinining adipi ulanadi, bu chok yorib dazmullanadi, belbog'ning uchi belgilangan kertimgacha ag'darma chok bilan tikiladi, chok haqi burchaklarida 0,2-0,3 sm qoldirilib, ortiqchasi qirqib tashlanadi, belbog'ning ikkinchi uchi yon tomonidan ag'darma chok bilan tikiladi (84-rasm).


Belbog' maxsus tasma (korsaj lenta bilan ishlov berilganda esa chap tomonida taqilma o'timi uchun qoldirilgan qismining chetini, tayyor belbog'ni o'ngini ichkariga qilib uzunasiga ikki buklanaldi va 0,5 sm chok haqi bilan tikiladi, burchagiga 0,2 sm chok haqi qoldirilib, ortiqchasi qirqib tashlanadi. Chok yorib dazmullanadi va belbog' uchi o'ngiga ag'dariladi (85-rasm).

SHimning bel qismiga ishlov berilgach, teskari tomonidan namlangan dazmolmato bilan dazmullanadi.

Belbog' uchlariga belgilangan joylarida tugma chatiladi va maxsus mashinada izma tikib qo'yiladi.



84-rasm. Shimning yuqori qismlariga ishlov berish



**85-rasm. Shimning yuqori qismlariga ishlov berish**

### **Shimning odim qirqimlarini, o'rtal qirqimlarini va pochasi tikiш.**

Odим qirqimlari to'g'ri ularishi uchun shimning odim qirqimlari yon choklari ustiga to'g'ri keltirilib, stolga yozib qo'yiladi, va odim qirqimlarida bo'rlab belgi chiziqlar qo'yiladi. Shu belgi chiziqlar to'g'ri keltirilib odim qirqimlari old bo'lak tomonidan biriktirib tikiladi. Bu biriktirma choklar yorib dazmollanadi.

Shimning o'rtal qirqimlari 1 sm kenglikda chok hosil qilib, chok haqi kengroq mo'ljallanganda esa belgilangan chiziq bo'ylab shimning chap bo'lagi tomonidan tikiladi. O'rta chok pishiqroq chiqishi uchun, uni ikki ipli zinjirsimon baxya mashinada bitta baxyaqator yuritib yoki universal mashinada oralig'i 0,1 sm bo'lagn ikkita baxyaqator yuritib tikiladi.

Choklar maxsus taxta qolip ustida dazmolda yoki maxsus yostiqli pressda yorib dazmollanadi. Taqilmaning pastki tomoni kertimidan 0,5 sm yuqiroq joyiga universal mashinada qaytma baxyaqator yuritib puxtalanadi.

Shim polchasini tikiш uchun shimning o'ng bo'lagi ustiga odim va yon choklari to'g'ri keltirilib, taqilma bilan tugma joy ziylari, shuningdek shim belbog'ining yuqori ziysi va shim o'rtal choki to'g'rilanib qo'yiladi. Andaza qo'yib pochaning qirqladigan va bukish chiziqlari odim choklari va yon choklari tomonidan belgilanadi. Pochalarning cheti belgilangan chiziq bo'yicha qaychida tekislab qirqladi. Pochaning cheti edirilib ketmasligi uchun unga tasma qo'yiladi.

Shimning pochasi manjetsiz tikiladigan bo'lsa shimning o'ngiga gir aylantirib tasma bostirib tikiladi – tasmaning bo'rtma ziysi pochaning bukish chizig'idan yuqiroq chiqib turishi kerak (bukish haqi ichkariga bukilgandan so'ng tasma pocha ziyan 0,1 sm kaknt hosil qilib chiqib turadigan bo'ladi). bunda baxyaqator tasmaning bo'rtma ziyan 0,1-0,2 sm masofada yuritiladi. Tasma uchlari bir-biri ustiga 1 sm chiqarib, to'g'ri to'rburchak shaklidagi bostirib tikiladi. Shim pochasi

belgilangan chiziq bo`lab bukib, yashirin baxyali maxsus mashinada tikib qo`yiladi yoki qo`lda yashirin qaviq bilan tikiladi (86-rasm).

Bukishdan avval pocha qirqimi maxsus mashinada yo`rmab olinadi. Shim tez titiladigan gazlamadan tikilsa, pochasing qirqimi maxsus lenta yoki tasma qo`yib tikiladi.


Bu lenta yoki tasma universal mashinada 0,6-0,7 sm bilan bostirib tikiladi. Lenta yoki tasmaning pocha qirqimga ulanmagan ziyi pochaga yashirin baxyali maxsus mashinada yoki qo`lda yashirin qaviq bilan tikib qo`yiladi.

Ip gazlamadan tikilgan shimning pochasiga tasma qo`yilmaydi, balki uni universal mashinada yopiq bukma chok bilan tikiladi.

Shim to`la qaytarma manjetli bo`lsa, shim pochasi teskariga bukib, qirqimi burlangan chiziqa to`g`rilab qo`yiladi. Uning ustiga tasmani yupqi shim pochasi qirqimidan 0,1 sm o`tib turadigan qilib, qalin (bo`rtma) ziyi pastka bo`ladigan qilib qo`yiladi. Tasmani ziyillardan 0,2 sm oraliqda uchlarni manjetsiz shimplardagi singari bir-birining ustiga o`tadigan qilib, ikkita baxyaqator yuritib bostirib tikiladi. Manjet tikish haqi tasmaning bo`rtma ziyi chizig`i bo`ylab o`ngi tomoniga qayriladi va maxsus mashinada bukib ko`klanadi. Manjet puxtalash mashinasida yoki universal mashinada yon va odim bo`lgan odim bo`lgan choclariga puxtalab qo`yiladi. Tayyor bo`lgan manjetlar pressda yoki dazmolda dazmollanadi.

To`la qaytarilgan manjetni shim ip gazlamadan tikiladigan bo`lsa, uning pochasi teskarai tomoniga belgi chiziq bo`ylab bukiladi, qirqimidan 1 sm masofada ichkari tomonga yana bukiladi va keyingi bukilgan ziyidan 0,1 sm masofada universal mashinada bostirib tikiladi. Manjet shimning o`ng tomoniga qaytarilib, uni yon va odim choclariga universal mashinada ikkita qaytma baxyaqator yuritib puxtalab qo`yiladi.

Shim yarmi qaytarilgan manjetli bo`lsa, tasmani qalin ziyidan yuqoriga qaratib, belgilangan bo`r chizig`idan 0,1-0,2 sm o`tib turadigan qilib, shimning o`ng tomoniga qo`yiladi. Tasmaning yon uchlari manjetsiz shimplardagi kabi tikiladi. Tasma yupqa ziyi bo`ylab bitta yoki ikkita baxyaqator yuritib tikiladi. Shimning pastki qirqimi o`ngshi tomoni oldin 1,0 sm qaytariladi, keyin esa ikkinchi marta qayrib, bukilgan ziyini birinchi bo`rlangan chiziqdan 0,2-0,3 sm yuqori qilib qo`yiladi. Shim pochasi bukilgan ziyidan 0,2-0,3 mm oraliqda maxsus mashinada bukib tikiladi. Manjetning bukish haqi, bukib tikilgan choc manjet kengligining o`rtasiga to`g`ri keladigan qilib, ikki tomonga o`tkaziladi, keyin dazmollab, yopma baxyaqator yuritib puxtalanadi.



**86-rasm. Shim pocasiga ishlov berish**

#### **Shimni uzil - kesil pardozlash.**

Shimni uzil-kesil pardozlash belbog' izmalarini yo'rmashdan boshlanadi. Bunda ipak bilan yo'rmab, izma uchlari maxsus mashinada puxtalanadi. Keyin ip uchlari, chang va bo'r izlariidan tozalanadi. Bu operatsiyalar oldin shimning teskari tomonida, keyin esa o'ngi tomonida bajariladi.

Uzil-kesil namlab-isitib ishlov berish press yoki dazmolda shimning yuqori qismidan, uning o'ngini yuqoriga qaratib qo'yib boshlanadi. Dazmolda ishlov berish namlangan dazmolmato qo'yib. cho`ntaklarini, belbog' chizig'ini, taqilmani va h.k.ni to`g'rilab turib bajariladi. Keyin shimningpastki qismi. uni stol ustiga qo'yib va tizza darajasidan boshlab pochasigacha yon va odim choclarini to`g'ri keltirib dazmollanadi. Bukilgan joylar odim choclarini tomondan har qaysi bo'lakda alohida, chocldar tomondan esa ikkala bo'lak birga bukib dazmollanadi. Shu bilan birga manjetlar ham dazmollanadi. namlab-isitib ishlov berish tugallangandan keiyn shim 30-40 daqqa davomida osilgan holatda quritiladi.

Qadaladigan tugmalarni izmalar o'rniga moslab, bezak tugmalarni esa modelga binoan chatiladi.

#### **Nazorat savollarri:**

1. Joriy mavsumda shimplarning modalari yo'nalishi qanday?
2. SHimlar konstruktiv jihatdan qanday o'ziga xosliklarga ega?
3. SHimlarga ishlov berishning umumiy texnik shartlari nimalardan iborat?
4. SHimlarni tikishda asosan qaysi choc turlari ishlatalidi va ularni bajarishga qanday talablar qo'yiladi?

## O'G'IL BOLALAR VA ERKAKLAR KURTkasining (ASTARSIZ VA ASTARLI) NAMUNASINI TAYYORLASH

O'g'il bolalar va erkaklar kurtkasi turli shaklli, ya'ni bo'ksagacha uzunlikda, bo'ksa chizig'idan tushib turadigan yoki belgacha uzunlikda; turli shakldagi yoqali, yoqasiz, kapyushonli, yaxlit bichilgan, old taqilmasi molniyali, tugmacha qadaladigan, yashirin taqilmali bo'lishi mumkin. Kurtka turli shakldagi cho'ntaklar, applikatsiyalar, shnur-tasmalar, temir yoki yelim taqilmalar bilan bezatiladi.

### Kurtka fasonlari va bezak elementlarini tanlash

1. **Bomber** — kalta kurtka. Ushbu kurtka birinchi urush paytida uchuvchi bombardemonchilar uchun muljallab tikilgan Odatda bu kurtka kapyushonsiz, qirqma cho'ntaklar bilan tikiladi. O'ziga xos element - belbog' va manjetlarda elastik lentalar. Tikuv materiallari mavsumga qarab farq qiladi, ammo ko'pincha tabiiy charmi ishlataladi. Xozirda bu kurtkaning uchta turi mavjud: qavilgan, klassik va sport uslublari (87-rasm).



87-rasm. "Bomber" kurtka

2. **Kosuxa** – CHarmdan tikilgan, "molniya" taqilmali kalta kurtka. Tabiiy yoki sun'iy charmdan tikiladi.
3. **Parka** – qavilgan uzun kurtka. Bu kurtkaning o'ziga hos elementi – bu mo'yna bilan bezatilgan kapyushoni. Oldin bu kurtkalar mo'ynasi tashqariga qaratilib tikilgan. Xozirda mo'ynani astar sifatida ishlataladi, ko'p hollarda esa isituvchi qatlama sifatida sun'iy mo'yna, sintepon va patlar ham ishlatalmoqda. Asosiy gazlama sifatida djins materiallar ham ishlatalmoqda (88-rasm).



88-rasm. "Parka" kurtkasi

4. **Puxoviklar** — kapyushonli va kapyushonsiz, turli uzunlikdagi kurtkalar. Ko'pincha bu kurtkalar poliamid, poliester yoki neylon kabi yengil materiallardan tikiladi. Puxoviklar suv shimmaydigan xususiyatga ega bo'lgaqligi uchun isituvchi qatlamiga suvda suzadigan qushlar patlari ishlataladi. Sifatli tikilgan puxoviklar vazni 1 kg dan oshmasligi kerak (89-rasm).



89-rasm. "Puxovik" kurtkalari

**Anorak yoki vetrovka** — qalin materialdan tikiladigan, kapyushonli, keng, issiq kurtka. O'ziga xos bichimi sababli bu kurtkani faqat boshdan kiyiladi, cho'ntaklari esa kenguru sumkasiga o'xshab ketadi. Anorak kurtkasini tikishda yengil, lekin pishiqliq gazlamalar ishlataladi, masalan plashli materiallar (90-rasm).



**90-rasm. "Anorak" kurtkasi**

5. **Kagul** (dojdevik) — odatda tizzagacha va tizzadan pastroq bo'lgan uzunlikdagi, yengil va suv shimmaydigan gazlamadan tikiladigan kurtka (91-rasm)




**91-rasm. "Kagul" kurtkasi**

6. **Xarrington** — belbog'ida elastik lentali, yengil gazlamadan tikilgan kurtka. Avra gazlamasi uchun odatda poliester, ip gazlamalar, zamsh yoki gazlamalar ishlataladi. Astarlik gazlamalar sifatida odatda katak gulli gazlamalar ishlataladi, lekin boshqa naqshli gazlamalar, xattoki gulsiz gazlamalarni ham ishlatsa bo'ladi (92-rasm).



92-rasm. "Xarrington" kurtkasi

7. **Djinsovka** — qalin djins gazlamadan tikiladigan kalta kurtka. Taqilmasi knopkali, tugmali va "molniya" surmali. Bu kurtka odatda yoqali tikiladi va turli hil cho'ntaklardan iborat. Odatda ko'krak qismida qapqoqli qoplama cho'ntaklar tikiladi, bel qismida esa qirqmà cho'ntaklar tikiladi. Kurtka yozgi astarsiz yoki kuzgi-baxorgi fasllar uchun esa astarli qilib tikiladi. Bundan tashqari qishki kurtkalar yoqasini mo'yna bilan bezatiladi va astari ham mo'ynadan tikiladi (93-rasm)



93-rasm. "Djinsovka" kurtkasi

#### Kurtka uchun gazlama tanlash

**Drap gazlamalar** jun tolasidan to'qiladi. Drap gazlamalardan xarbiylarni kiyimlarini ham tikish mumkin chunki bu gazlama issiq saqlaydi va tabiiy tolalardan to'qiladi.

#### Drap gazlamalar afzalliklari:

1. Issiqni yaxshi saqlaydi.
2. Yuzasida tvidlar hosil bo'lmaydi.
3. Uzoq muddatga chidamli va quyoshda rangi o'chmaydi.
4. Suv o'tkazmaydi va sovuq xavoga bardoshli.

- Drapdan tikilgan buyum doimo chiroyli ko'rinadi.
- Detallarga shakl berish oson.
- Inson gavdasiga moslash oson.
- Bichishda gazlama chetlari sitilmaydi va surilib ketmaydi.

#### **Drap gazlamalar kamchiliklari:**

- Drap gazlamali buyumlarni yuvib bo'lmaydi. Faqat kimyoviy tozalashdan foydalanish tavsija etiladi.
- Dazmollahda dazmolni past xaroratda ishlatalish kerak, aks holda gazlama kuyib sarg'ayib ketadi.
- Gazlama g'ijimlanish xususiyatiga ega
- Qimmat.
- Yoga, bort qirg'oqlari hamda yeng uchlari ishqalanish natijasida tashqi ko'rinishi buziladi.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki drap gazlamaning kamchiliklaridan afzalliklari ko'p. Bundan tashqari bu gazlamani qadimdan ishlataladi va juda mashxur.

**Sun'iy charm.** CHarm, gazlamalari polimer materialdan kimyoviy yo'l bilan, tayyorlanadi. Xozirgi pa'ytda ishlab chiqarishda yanayam sifatli sun'iy charm gazlamalar ishlab chiqilmoqda. Bunday sun'iy charm gazlamani tabiiy charm dan ajratish qiyin va sifati bo'yicha ham bemalol raqobatlasha oladi.

Sun'iy charm gazlamalar turli tuman bo'lib, fakturasi va rangi bo'yicha assortimenti juda keng. Sun'iy charm asosini paxta tolali gazlama yoki sintetik gazlamalar bo'lishi mumkin. Ular ustiga esa rezinaga o'xshagan polimer qoplab qo'yildi.

#### **Sun'iy charm gazlamalar afzalliklari:**

- Tabiiy charmga nisbatan arzon.
- Tabiiy charmga nisbatan bichish ham oson, chunki bu gazlama kengligi va bo'yisi bo'yicha yaxlit bo'ladi.
- Maxsus jihoz talab etilmaydi. Universal tikuv mashinasida bemalol tikish mumkin.
- Igna sanchilgan joylari teshilib qolmaydi.
- Vazni yengil.
- Yumshoq.
- Suv shimmaydigan xususiyatga ega.
- Turg'un shaklga ega.
- Sovuqqa bardoshli.

#### **Sun'iy charm gazlamalar kamchiliklari:**

- CHoklarni dazmollahda charm yuzasi erib ketadi.
- Xavo o'tkazmaydi, ichki iqlimda tabiiy xavo aynishi yomon.
- Keskin xarakatlarda choklarda gazlama yirtilib ketish extimoli mavjud.
- Issiq saqlamaydi.
- Namlab isitib ishlov berishda detallarga shakl berish qiyin.

- Ko'p kiyilganda ishqalanish joylarida polimer qoplamasini asosiy gazlamadan ajralib ketishi.
- Uzoq muddatga chidamli emas.
- Kimyoviy tarkibga ega.

Ko'rinish turibdiki afzalliklari ham, kamchiliklari ham teng miqdorda, ya'ni 50/50. Demak bunday turdag'i gazlamani buyurtmachi xoxishiga qarab tanlanadi.

**Trikotaj polotno.** Trikotaj matolarni nafaqt kurtkaning asosiy mato – avra sifatida ishlatish mumkin balki kurtkaning yoqa va yeng manjetlari sifatida ham ishlatish mumkin.

### **Isituvchi qatlamlar**

Isituvchi qatlam sifatida uch hil materiallar ishlataladi: sintetik, tabiiy va aralash tolali gazlama va polotnolar.

Sintetik tolali isituqchi qatlam gippoallergen, lekin pishiqlik hamda shaklni yaxshi ushlaydi. Shunga qaramay, bunday xususiyatlar sifatli materialga ega ekanligini yodda tutish kerak.

Shunga qaramay, ko'pchilik tabiiy materiallarni afzal ko'radi, chunki u xavfsizroq va issiqroq. Agar biz patlarni ko'rib chiqsak, ular yaxshi isitadi, amma bu tabiiy material allergiyaga olib kelishi mumkin, hamda bakteriyalar va kanalar uchun muxit yaratib beradi.

Isituvchi qatlam uchun ishlatalgan material tolesi qanchalik yengil bo'lsa, ularning orasidagi havo shunchalik ko'p bo'lsa, demak uning issiq saqlash xususiyati ham yuqori bo'ladi.

Kurtka uchun bezak elementlari kurtkaning tanlangan fasoniga asosan tanlanadi. Eng muhimmi, hamma narsa bir biriga mos tushish kerak.

### **SHerstipon isituvchi qatlam bilan qavilgan astarli material**

SHerstipon – bu tabiiy mato bo'lib, u jun tolalaridan to'qilgan. Bunday astarli material issiqni saqlaydi va bug'ni yaxshi o'tkazadi.

### **Afzalliklari:**

1. Kimyoviy moddalarsiz
2. Gazlama gippoallergen xususiyatga ega.
3. Issiq saqlaydi.
4. Pishiqlik.
5. Engil.
6. Yumshoq.
7. Bichish va tikish oson.

### **Tavsiyalar:**

1. Kir yuvish mashinasida yoki qo'lda yuvganda xarorat  $30^{\circ}\text{S}$  bo'lish kerak.
2. Yoyilgan holatda tabiiy holda quritiladi.
3. Kirishadi. shuning uchun ivitish tavsiya etilmaydi.

4. Yuviganda oqartiradigan vositalarni ishlatalish ham tavsiya etilmaydi.
5. Saqlashda kuyaga qarshi vositalar bilan saqlash kerak.


### **Isituvchi qatlari – sintepon.**

Kurtkani qavilganda qaviqlar xajmli bo'lish uchun sintepon qalinligi kamida 2,0 sm bo'lish kerak.

Tavsiya etilgan o'g'il bolalar kurtkasi bo'ksagacha uzunkorda, reglan yengli, oldi molniya taqilmali, biriktirma yoqali va yeng uchi rezinaga yig'ilgan biriktirma manjetli bo'ladi. O'ng old bo'lagida qiya molniya taqilmali qirqma cho'ntak, old bo'lagida qopqoqli yopishtirma cho'ntak va kurtka bel darajasida ip lenta bilan bog'lanadi;

kurtkani alohida taqiladigan kapyushon to'ldiradi;

Yeng va yon qirqimlari kapyushon bezak choki bilan tikilgan bo'ladi (94-rasm).



**94-rasm. Tavsiya etilayotga erkaklar va o'g'il bolalar kurtkasining tashqi ko'rinishi**

O'g'il bolalar kurtkalari har xil gazlamalardan tikilishi mumkin. Ularning farqi shundaki old bo'lagi taqilmasi tugmali, molniya tasmali bo'lishi mumkin. O'g'il bolalar kurtkasi old bo'lagining qismi ma'lum kenglikda bir-birining ustiga o'tib turadi.

O'g'il bolalar kurtkasi turli fasonda va turli xil bichimda tikiladi. Yengli, yengi reglanli, o'tqazma yengli, kalta yengli, yoqali, yoqasiz, cho'ntakli, cho'ntaksiz bo'lishi mumkin. O'g'il bolalar kurtkasi turli xil bezaklar, qo'yma burmalar gazlama rangiga mos qiya mag'izlar, furnituralar bilan bezatiladi.

O'g'il bolalar kurtkasini tikish tartibi mayda bo'laklarni tayyorlashdan boshlanadi. O'g'il bolalar kurtkasining oski va ustki yoqalari tayyorlanib, ag'darma chokda tikiladi.

## Qavilgan kurtka tikish uchun quyidagilar kerak bo'ladi:

1	Kurtkabop qavilgan material	1.5 m (44-razmer uchun)
2	Astarli material (2 xil material ishlatalishi mumkin – sarja hamda 100 % poliester)	1.5 m
3	Surmali taqilma	1 dona uzun taqilma
4	Kapyushon uchun surma	1 dona
5	CHO'ntaklar uchun surma	2 dona
6	Bezak uchun lenta	
7	Asosiy gazlama rangida tikuv iplari	


Erkaklar kurtkasi nafaqat charmdan yoki sintetik gazlamadan, balki drap yoki movut gazlamadan ham tikilishi mumkin. Bundan tashqari kurtkani ikki xil materialdan xam tikish mumkin

### O'g'il bolalar va erkaklar kurtkasini tikish texnologiyasi

Yoqaning burchaklari texnik shartlarga ko'ra kesilib, o'ngiga ustki yoqadan ziy chiqarib ag'dariladi va dazmollanadi. Tayyor yoqa qndoza yordamida tekshiriladi. Adip bo'laklari birlashtirib tikiladi. Adipga yelimli qotirmani namlangan mato yordamida dazmollab yopishtiriladi.

Qoplama cho'ntak cho'ntak qopqoq bilan old bo'lak qismiga birlashtirib tikiladi, ramkali molniyali qirqma cho'ntaklarni texnik shartlarga ko'ra old bo'lakka joylashtirib tikiladi va dazmollanadi.




O'g'il bolalar kurtkasining yeng uchiga qo'yiladigan manjetga rezinka tikiladi va dazmollanadi (95-rasm).




*95-rasm. O'g'il bolalar kurtkasi*




1-o'g'il bolalar kurtkasi adipiga ishlov berish; 2-o'g'il bolalar kurtkasining manjetiga ishlov berish; 3-o'g'il bolalar kurtkasining yoqasiga ishlov berish; 4-o'g'il bolalar kurtkasining qoplama cho'ntagiga ishlov berish.

**"O'g'il bolalar kurtkasining mayda bo'laklariga ishlov berish" bo'yicha  
texnologik xarita**

<b>Texnologiya asosida faoliyat turlari</b>	<b>Tavsiya etiladigan moslama va uskunalar</b>	<b>Chizma</b>	<b>Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi</b>
I	II	III	IV
<b>I. Kurtka yoqasini tikish</b>			
1.1. Ostki yoqaga yelimli qotirmani yopishtirish	Dazmol		Ostki yoqa teskari tomoniga qotirmani kleyli tomonini, chetki qirqimlariga 0,5-0,7 sm yetkazmay namlangan mato yordamida dazmollab yopishtiriladi.
1.2. Yoqani tikish.	U.M		Ustki va ostki yoqani o'ngini o'ngiga qo'yib, uch tomoni 0.7 sm kenglikda ag'darma chok bilan tikiladi.
1.3. Yoqani kesish	Qaychi		Ustki va ostki yoqa tikilgan chokni burchaklaridan tikilgan chokka 0.1-0.2 sm yetkazmay kesib chiqiladi.
1.4. Yoqani o'ngiga ag'darish.	Qo'lda		Tikilgan yoqani o'ngiga ag'darib burchaklarini dukcha yordamida chiqariladi.
1.5. Ziy chiqarib dazmollah	Dazmol		Ustki yoqa tomoniga 0,1-0,2 sm ziy chiqarib dazmol qilinadi.
<b>II. Adipni tikish</b>			
2.1. Adipga yelim qotirmani yopishtirish	Dazmol		Yelim qotirma adipning ichki qirqimlariga 0,7-1,0 sm, bort qirqimlariga 0,5-0,7 sm yetkazmasdan namlangan mato



			yordamida dazmollab yopishtiriladi.
--	--	--	-------------------------------------

### III. Qoplama cho'ntakni tikish

3.1. Qoplama cho'ntak yuqori qismini tikish	UM		Qoplama cho'ntak yuqori qismi bukish chizig'i andoza yordamida belgilanadi va bukish qismiga yelimli promka yopishtiriladi. Bukish chizig'idan cho'ntak o'ngiga buklab, yon qirqimlari tekislanib, to'g'rilanib ikki yon tomon bukilgan qismi 0.5-0.7 sm kenglikda ag'darma chocda tikiladi.
3.2. Qoplama cho'ntak ziylarini dazmollahsh	Dazmol		Cho'ntakning pastki aylana burchaklarini bukish chizig'iga 0.1-0.2 sm yetkazmay kertim berib kesiladi. Agar yupqa matodan tikilayotgan bo'lsa aylana joylar taxlama qilgan holda dazmollanadi.
3.3. Ostki qopqoqqa yelimli qtirmanini yopishtiris h	Dazmol		Ostki qopqoq ziylaridan 0.5-0.7 sm yetkuzmasdan namlangan mato yordamida dazmollab yopishtiriladi.
3.4. Ustki va ostki qopqoqni ag'darma	UM		Ustki va ostki qopqoqni o'ngini o'ngiga qo'yib ziylaridan 0.5-0.7 sm kenglikda ag'darma

chokda tikish			chokda tikiladi.
3.5. Qopqoqni o'ngiga ag'darish va ziy chiqarib dazmollah	Dazmol		Qopqoq burchaklari ortiqchalari kesilib o'ngiga ag'dariladi, dukcha yordamida burchaklari chiqarilib to'g'rilanadi. Ustki qopqoqdan ostki qopqoqqa 0.1-0.2 sm ziy chiqarib nam mato yordamida dazmollah.

#### IV. Manjetga ishlov berish

4.1. Manjetga rezinka tikish	UM		Manjetning teskari tomoniga rezinkani qo'yib cho'zib tikiladi.
4.2. Manjet tomonlarini birlashtirib tikish	UM		Manjet buklab o'ngi ichkariga olinib, ziylari to'g'rilanib, yon tomonlarini 0.5-0.7 sm kenglikda biriktirib tikiladi.
4.3. Manjetni buklab tikish	UM		Manjetni buklab, rezinkani pastidan manjet ziylarini tekislab, ikkinchi chok bostirib tikiladi.

## GLOSSARY

**Paxta** – g‘o‘za deb ataladigan o‘simlik urug‘ini qoplab turadigan ingichka tolalar bo‘lib, to‘qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi.

**Qotirma** – astar bilan avra orasiga qo‘yilgan material bo‘lib, detalni yoki detal chetini qattiqroq qilish va shaklini saqlash uchun ishlataladi.

**Tabiiy ipak** – ipak qurti o‘raydigan ingichka ip.

**Yaltiroq** – gazlama ustida namlab-isitib ishlov berish natijasida hosil bo‘lgan joy.

**O‘tim** – kiyimni old bo‘lagidagi kenglik qo‘yimi, bu old bo‘lak o‘rtasidan bitta detal ikkinchi detal tomoniga o‘tishi uchun beriladi.

**Dizayner** – dizayner (sanoat estetikasi bo‘yicha mutaxassis rassom).

**Bayka** - yumshoq, yumshoq paxta, jun yoki yarim jun mato, qalin ikki tomonlama taroqsimon qoziq.

**Batist** - yupqa, shaffof zig‘ir yoki oddiy to‘qilgan paxta matosi, juda ko‘p sonli (eng yupqa) o‘ralgan ipdan ishlab chiqarilgan.

**Bobin** - yara ipini o‘rashning bir turi.

**Ilgak** - bu odatda metalдан yasalgan, biron narsani tiqish, pichoqlash uchun mo‘ljallangan asbob.

**Bamaza** - dumaloq zinch mato, kamdan-kam hollarda oddiy to‘quv, odatda, bir tomoni jun bilan.

**Bo‘z** - zinch paxtadan yasalgan mato bo‘lib, unda to‘qish iplari to‘quv iplariga qaraganda ingichka bo‘ladi.

**Andoza** - bu yordamchi materiallardan (qog‘oz, mato mato va boshqalar) kesilgan mahsulot detallari.

**Tanda ipi** – gazlama bo‘ylab o‘tadigan ip.

**Kromka** - bu matoning ikkala tomoni bo‘ylab o‘tadigan tugagan qirrası.

**Chizg‘ich** - tekislikka tekis chiziqlar chizish va ba‘zi o‘lchovlarni o‘tkazish vositali.

**Matoning o‘ng tomoni** - bu matoning naqshini yorqinroq va ravshanroq bo‘lgan tomon

**Angishvona** - qo'llarga tikishda igna sanchishidan himoya qilish va ignani qalin materialdan o'tqazish uchun barmoq ustiga qo'yiladigan qalpoq.

**Santimetrlı lenta** - bu ikki tomonlama santimetr o'lchoviga ega bo'lgan o'lchov vositasi. O'lchovlarni inson qiyofasidan, hajmli narsalardan olish uchun xizmat qiladi.

**Flanel** - paxtadan yasalgan paxta, yungli yoki yarim junli tekis yoki dumaloq to'qilgan mato, paxmoq ikki tomonlama yoki bir tomonlama bir xil siyrak jun.

**Aplikatsiya** - bu turli xil rangli qog'oz parchalari va boshqa materiallarni ustma-ust qo'yish, yopishtirish yoki tikishdan iborat bo'lgan tasvirni olish usuli.

**Karton** - Ajoyib fazilatlar osongina katlanabilen, kesilgan, yopishtiriladigan ingichka, yaltiroq kartonga ega.

**Qalam** - Eskizlar tayyorlashda o'rtacha qattiqlikdagi qalamdan foydalaning. Ular faqat to'g'ri o'tkir qalam bilan ishlaydi.

**O'chirg'ich** - Ish uchun yumshoq elastik tasmani tanlang.

**Qaychi** - Yaxshi, o'tkir qaychi tanlash qog'ozni kesish uchun muhimdir. Qulay va chiroyli tarzda siz o'qdan 60-80 mm gacha yaxlitlashgacha qaychi bilan kesishingiz mumkin. Qaychi pichoqlari erkin harakatlanishi kerak. lekin mahkamlash vintidan osilib qolmasligi kerak.

**Yelim** - Aplikatsiya qilishda elimning sisati katta ahamiyatga ega. Ishlash uchun eng yaxshi va qulay PVA sintetik elim hisoblanadi.

**Andoza** - Buni amalga oshirish uchun kerakli qismning konturi ingichka kartonga chizilgan va qalam chizig'i bo'ylab aniq kesilgan. Shablonni kuzatishda qalam qo'rg'oshin shablonning chetiga mahkam bosilib, kuzatishda xatolik 2-3 mm ga etishi va siluetni katta darajada o'zgartirishi mumkinligi esga olinadi.

**Batik** - (malaycha) - rasm texnikasi, shuningdek u bilan bezatilgan ko'p rangli mato. Chizma mumning ingichka qatlami bilan qo'llaniladi, mato bo'yoqqa botiriladi, bu matoning mumi bilan qoplanmagan qismlarini bo'yab tashlaydi. Batik rasmlari Indoneziya, Hindiston va boshqa xalqlar orasida azaldan ma'lum bo'lgan. Evropada - 20-asrdan.

**Kashtachilik** (slavyan tilidan. Siti, lot. Suo, sutum - "tikish") - iplar, igna yoki kanca yordamida matoga tasvirlar, bezak, dekor yaratish san'ati.

**Kanya** (frantsuz kanevalari), paxta orqali to'qilgan, kamdan-kam hollarda o'ralgan ipdan zig'ir mato, oqartirilgan yoki bo'yalgan, juda ishlov berilgan.

**Begiz** - odatda tutqichli igna. Masalan, teriga o'xshash zinch materiallarni teshish uchun to'sar va poyabzal ishlab chiqaruvchilari foydalanadilar. Bundan tashqari, boshqa hunarmandlar (duradgor, duradgor) tomonidan ish yuritish, elektrni o'rnatish vositasi sifatida foydalaniadi.

**Applikatsiya** - lotincha so'z bo'lib, yopishtirish degan ma'noni anglatadi, ya'ni bu bir material turini ikkinchisining ustiga qo'yib tikish yoki yopishtirishdir.

**Fason** - kiyimdag'i detallar shaklini, chiziqlarini, turli bezaklarni aniqlaydigan detal shakli.

**Izma** - tugma qadash uchun mo'ljallangan, tugma o'lchamidan 0,3 sm ortiq o'lchamga teng ochiq joy.

**Jun** - junli hayvonlarning teri qatlamidagi shoxsimon o'simtalar.

**Kant** - ag'darma chokdagi bir detal ikkinchi detalga nisbatan baxyaqator zihidan surilgan joy.

**Maket** - maket biror joy, narsa, bino, mashina va hokazolarning kichraytirib tayyorlangan fazoviy tasviri, nusxasi.

**Material** - material, xomashyo, narsa. Biror buyum, inshoot va hokazolarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan ashyo.

**Mag'iz** - detal ziylarini ishlash uchun va bezak uchun ishlatiladigan gazlama tasmasi.

**Moda** - ma'lum bir davrda, ma'lum muhitda kishilarning ta'biga, didiga mos bo'lgan va keng tarqalgan kiyim-kechak.

**Model** (lot. modulus - o'lchov, me'yor so'zidan - namuna, andaza, nusxa. Biror narsa, ayollar kiyimi, mashina, bino, inshoot va hokazolarning kichraytirib yoki kattalashtirib tayyorlangan namunasi, masalan, aviamodel-samolyot yoki boshqa uchish apparatining uchadigan modeli.

**Nadhom** - singan joy, siniq, yoriq.

**Paxta** – g‘o‘za deb ataladigan o‘simlik urug‘ini qoplab turadigan ingichka tolalar bo‘lib, to‘qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi.

**Qotirma** – astar bilan avra orasiga qo‘yilgan material bo‘lib, detalni yoki de-tal chetini qattiqroq qilish va shaklini saqlash uchun ishlataladi.

**Tabiiy ipak** – ipak qurti o‘raydigan ingichka ip.

**Yaltiroq** – gazlama ustida namlab-isitib ishlov berish natijasida hosil bo‘lgan joy.

**O‘tim** – kiyimni old bo‘lagidagi kenglik qo‘yimi, bu old bo‘lak o‘rtasidan bitta detal ikkinchi detal tomoniga o‘tishi uchun beriladi.

**Dizayner** – dizayner (sanoat estetikasi bo‘yicha mutaxassis rassom).

**Qo‘l ishlari** ikki guruhgga bo‘linadi: tik turib bajariladigan ishlar va o‘tirib bajarilagan ishlar. Tik turib bajariladigan ishlarda kiyim yoki detal stol ustiga qo‘yiladi, o‘tirib bajariladigan ishlar esa kiyim yoki detalni ham stol ustiga, ham ishchining tizzasiga qo‘yib qilinishi mumkin.

**Ignalar** uzunligi va yo‘g‘onligiga qarab 1 dan 12 gacha nomerlanadi. Toq nomerli ignalar juft nomerli ignalarga qaraganda uzunroq bo‘ladi. Ignalarning usti silliqlangan, igna ko‘zi tekis, silliq bo‘lishi kerak.

**Angishvona** ikki xil tubli va tubsiz bo‘ladi. Ayollar kuylagi va ich kiyimlarni tikishda tubli angishvona ishlataladi. Ust kiyimlardan palto, kostyum, plashlarni tikishda tubsiz angishvona ishlataladi. Angishvona alyuminiy yoki jezdan tayyorlanadi, uning o‘ngida ko‘zlar o‘yilgan bo‘lib, ignani sanchishda igna shu ko‘zlarga tushib, sirpanib ketmayli. Angishvonalar 2 dan 12 nomergacha bo‘ladi.

**Iplar.** Tikuvchilikda ishlataladigan iplar tabiiy, sun’iy, sintetik va paxta tolalaridan tayyorlanadi. Iplarning yo‘g‘onligi uzun, zichligi (tekis) bilan xarakterlanadi. Kiyim tikishda ishlataladigan ip gazlama qalinligiga, kiyim turiga, bajariladigan operasiyalarga qarab tanladi.

**Santimetrali lenta** 150 sm uzunlikdag‘i rezinkalangan lenta bo‘lib, har 0,5 sm oraliqda belgisi bor. Uchi tomonida 10 sm masofada 0,1 sm oraliqda belgi qo‘yiladi. Santimetrali lenta gavda o‘lchamini va detallarni o‘lchash uchun ishlataladi.

**Pichoqli halqa** asosan qo'lda qaviq tushirgandan keyin ipning uchini qirqish uchun ishlatiladi. Pichoqli halqani chal qo'lning ko'rsatkich yoki o'rta barmog'iga taqiladi. Ijni qirqish uchun uni halqa pichog'iga ort tomondan ilib uziladi. Pichoqli halqalar ettita (1-7) o'lchamda chiqariladi.

**Qaychi kiyim** detallarini bichish, tikayotganda detallarning ba'zi joylarini qirqish, baxyaqatorlar oxiridagi ip uchini qirqish uchun ishlatiladi.

**Dukcha** - metall, plastmassa yoki suyakdan yasalgan o'tkir uchli sterjen. Dukcha detallardagi ko'klangan qaviqlarni sug'urib tashlash yoki detal uchlarini to'g'rilash uchun ishlatiladi.

**Iz tushirgich** andazalar tayyorlashda kiyim chizmasidan detallarni kartonga tushirishda tushirishda yoki qog'ozdan gazlamaga, bir detaldan ikkinchi detalga iz tushirishda ishlatiladi. Iz tushirgichlar bita yoki qo'sh diskli bo'ladi. Bu disk oddiy dastak uchiga o'rnatiladi.

**To'g'ri sirma qaviq** kiyim detallarini vaqtincha ko'klassha, burma hosil qilishda ishlatiladi.

**Qiya sirma qaviq** qaviq qator yo'liga nisbatan 30 gradus burchak ostida og'ib tushadi. Qiya sirma qaviq asosan ikki detalni bir-biriga solqi hosil qilib yoki solqisiz bostirib ko'klassha, kiyim etagini bukib ko'klassha ishlatiladi. Qaviqning mayda yoki yirikligi material turiga, qalinligiga qarab, 1 sm. dan 5 sm. gacha bo'ladi.

**Yo'rma qaviq** detallar qirqimini titilishdan saqlash uchun ishlatiladi. Yo'rma qaviqning yirikligi 0,5 sm dan 0,7 sm gacha bo'ladi. Kengligi 0,5 sm bo'ladi.

**Qiya biriktirma qaviq** titilmaydigan detallarning ochiq qirqimlarini bir-biriga ulash uchun ishlatiladi.

**Yashirin biriktirma qaviq** titiladigan gazlamadan tikiladigan detal' chetlarini bukib tikishda ishlatiladi.

**Solqi qaviq** bir detaldagi bo'r yoki belgi chiziqlarini ikkinchi detalga ko'chirish uchun ishlatiladi.

**Tepchima qaviq** detallarni bir-biriga ulab, shu detallarga qo'shimcha qayishqoqlik berish va ularni ma'lum darajada ushlab turish uchun ishlatiladi.

**To'r qaviq** detallarning mashinada tikish qiyin bo'lgan doimiy qaviq bilan tikish uchun ishlatiladi.

**To'rsimon qaviq** ko'proq cho'ziladigan choklarning pishiqligini oshirish uchun qo'llaniladi.

**Yolg'on qaviq** detal' ziylarini zichlashtirish shaklini mustashkamlash uchun ishlatiladi.

**Halqa qaviq** petlyalarni yo'rmashda ishlatiladi.

**Puxtalama qaviq** cho'ntak og'zini, petlya uchini, taxlama uchlarini puxtalashda ishlatiladi.

**Tugma qadash** tugma gazlamaga tirkakli va tirkaksiz qilib qadaladi. Tugmani tirkakli qilib qadashda gazlama bilan tugma orasida qaviq iplaridan solqi qoldiriladi. Shu solqi iplar ustiga 4-5 marta ip o'rab tirkak hosil qilinadi.

**Baxyal -** Mashina ignasi yordamida gazlamalarda xosil qilingan qo'shni teshiklar orasidagi iplar chalishuvining bitta tugallangan sikli

Ketma-ket qator takrorlangan baxyalardan **baxyal qator** xosil bo'ladi.

**Biriktirma choc** ikki detalni bir-biriga biriktirib tikadi, chocni yorib yoki bir tomonga yotqizib dazmollanadi.

**Yorma Chok** asosan dazmol tutmaydigan gazlamalarni birlashtirib tikishda ishlatiladi. Chok xaqini ikki tomonga yorib, ikki tomonidan bostirib tikiladi.

**Dazmollash** – dazmolning qizdirilgan sathini namlangan gazlama sirtidan sal bosib yurgizish.

**Tutashtirma choc** detallar ulangan chocni yupqa qilish uchun ishlatiladi. Siniq baxyal qator yordamida tikiladi.

**Quyma choc** yopiq va ochiq qirqimli bo'ladi.

**Ichki choc** ikki detalni o'ngini ichkarisiga qaratib, bir detal' qirqimini ikkinchi detaildan 0,5-0,7 sm chiqarib qo'yiladi-da biriktirib tikiladi.

**Bostirma choc** qirqimli va bir qirqimli bo'ladi.

**Qo'sh choc** ko'rpa-yostiq jildlari, cho'ntak xaltalari tikishda ishlatiladi.

**Ziy choklar** kiyim detallarini chetlarini titilib ketishidan saqlashda, shimga pochalariga ishlov berishda ishlatiladi. Ziy choklar buklama choc, mag'iz choc, ag'darma chocdan iborat.

**Bezak choklar** kiyim detallarini bezashda ishlatilib, taxlamalar va burtma choklardan iborat.

**Presslash** – gazlamani surilmaydigan qizdirilgan ikki sath orasida siqish.

**Butlash** – gazlamani qizdirilgan sathlar ta'sirida emas, balki bug' bosimi ta'sirida ishlash.

**Namlab-isitib ishlashda ishlatiladigan asosiy uskunalar:** dazmollar, presslar (turli yostiqlar), bug'lagichlar, butli-havo manekenlari.

**Adip** – bu avra gazlamadan bichilgan bo'lak bo'lib, u yordamida adip qaytarmasiga, bortlarga ishlov beriladi, ular kiyimning ichki tomonlariga qo'yiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo yetamiz". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.- Toshkent.: "O'zbekiston", 2016 yil.. -56 b.
2. Mirziyoev SH.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi shart". O'zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2018 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. - Toshkent.: 2018 yil.. -104 b.
3. Mirziyoev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent.: "O'zbekiston", 2018 yil.. -486 b.
4. Z.Davletsheva Tikuv buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent "Sano standart" nashriyoti 2017
5. Gaipova N.S.va boshqalar. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Adabiyot" 2006
6. Olimov Q.T. Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari. Darslik Toshkent 2008 yil.
7. Arzimurodova M.S., Anorqulova G.M., Qayumova F.E. Ayollar milliy ko'ylagini bichish va tikis'hni o'qitish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyanoma. T.: O'MKHTTKMO va UQTI. 2007. – 60 b.
7. M.SH.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi. Darslik. Toshkent "O'zbekiston" 1994 yil.
8. Winifred Aldrich. Metric pattern cutting for women's wear. Blackwell Publishing Ltd, 9600 Garsington Road, Oxford OX4 2DQ, UK. 2008 y
9. Winifred Aldrich. Metric pattern cutting for children's wear and babywear : from birth to 14 years. John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, United Kingdom. 2009 y

### Axborot manbalari

[www.tgpu.uz](http://www.tgpu.uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[tdpu-INTRANET.Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)

[www.lcprominfo.ru](http://www.lcprominfo.ru)

<https://mehnat.uz/uz/article/19-dars-shortilar-qismilarini-vigish-va-ishlov-berish>

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Tikuvchilik ustaxonalarida ish o'rnini tashkil qilish texnologiyasi.	
Texnika xavfsizligi qoidalari.....	4
Qo'l ishlarini bajarishda qo'llaniladigan ish qurollari.....	8
Dazmollah va NIIB (namlab isitib ishlov berish) tartibi va qoidalari.....	14
Qo'l choklaridan namunalar tayyorlash.....	20
Mashina choklaridan namuna tayyorlash.....	29
Ayollar tungi ko'ylagi qirqimlariga ishlov berish.....	38
Ayollar kiyimlarining bo'yin o'yindilariga ishlov berish namunalarini tayyorlash.....	40
Ayollar kiyimlariga turli xildagi yeng namunalarini tayyorlash.....	43
Ayollar kiyimlariga turli xildagi cho'ntak namunalarini tayyorlash.....	49
Ayollar milliy ko'ylik namunalarini tayyorlash.....	56
Ayollar yubkasining namunasini tayyorlash.....	63
Ayollar bluzkasining namunalarini tayyorlash.....	72
Erkaklar ko'ylagi namunasini tayyorlash.....	76
O'g'il bolalar shortigining namunasini tayyorlash.....	81
Erkaklar shimining namunasini tayyorlash.....	92
O'g'il bolalar va erkaklar kurtkasining (astarsiz va astarli) namunasini tayyorlash.....	100
Glossariy.....	111
Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	118

J.R.MUXITDINOVA, A.S.SAYFITDINOV

# TEXNOLOGIYA TA'LIMI

## PRAKTIKUMI

(SERVIS XIZMATI BO'LIMI)

(Oliy ta'lim talabalari uchun o'quv qo'llanma)

*Muharir:*

*Ilxomjon Xalilov*

*Musahhih:*

*Nodira Jumabayeva*

Bichimi: 60x84 1/16. Hajmi: 7,5 bosma taboq.

Ofest usulida bosildi. Buyurtma – 30/1

Adadi: 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent shahar,

Shayxontovur tumani Navoiy ko'chasi 30 uy.

Tasdiqnomalar raqami 3918

---

**"FAZILAT ORGTEX SERVIS"** hususiy korxonasi

bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Namangan sh. Amir Temur ko'chasi 97-uy.

Tel: (+998) 91-363-86-87, (+998) 97-256-87-86



***“Fan ziyosi”***  
***Nashriyoti***

ISBN 978-9943-9225-5-6

9 7 8 9 9 4 3 9 2 2 5 5 6